

R. YO‘LDOSHEV, M. TO‘XTAMIRZAYEV,  
M. RIXSIYEVA, R. NIYOZMETOVA

# O‘ZBEK TILI

Ta’lim turkman tilida  
olib boriladigan maktablarning  
8-sinfi uchun darslik

Birinchi nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi  
vazirligi nashrga tavsiya etgan*

TOSHKENT — 2004  
«IJOD DUNYOSI» NASHRIYOT UYI

Taqrizchilar:

***M. Qodirov,***  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

***A.I.Saidniyozova,***  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi

Ushbu nashga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosish taqiqlanadi.

Ў 4306020200 —19  
2004

ISBN 5-8244-2048-3

© «Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2004.

## MUALLIFLARDAN

Ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili va adabiyotidan yaratilgan ushbu yangi darslik o'ziga xos tuzilishga ega. Unda o'quv materiallari paragraflarga ajratib berilgan bo'lsa-da, biror mavzu shu paragrafning sarlavhasiga olib chiqilmagan. O'quv materiallari: yangi so'zlar, grammatik vosita yoki vositalar, leksik va grammatik mashqlar, nutqiy mashq va topshiriqlar bir-birini taqozo etgan holda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini o'stirish uchun tanlangan, ma'lum mavzularda so'zlash va o'zaro so'zlashishga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan qilib saralangan va guruhlangan. Deyarli har bir paragrafda o'quvchilar nutqini rivojlantirish ishi mavzuning leksik va grammatik asosi sifatida alohida ta'lim halqachasini hosil etadi, adabiy material esa uni to'ldiradi.

Darslikda ilk bor yangi so'zlar har bir paragrafdan keyin emas, balki ilovada joylashtirilgan. Bu yerda (ilovada) so'zlar mavzular hamda so'z turkumlari bo'yicha guruhlangan ikki tilli lug'atlar holida taqdim qilindiki, o'quvchi bu lug'atdan zarur so'zlarni qidirib, qayta-qayta ko'zdan kechirar ekan, unutilganlarini takrorlaydi, yangilarini asta-sekin o'rgana boradi.

Har bir paragraf quyi sinflardan boshlab uzluksizlik, uzviylik, izchillik, tadrijiylik asosida o'rganib kelinayotgan leksik va grammatik materiallarni, o'tilgan mavzularni muntazam mustahkamlab, takrorlab borishga, nutqda qo'llash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladigan mashqlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra ham bu materiallar umumiy bir sarlavhaga birlashtirilmadi. Adabiy materiallar ham o'zlashtirilgan til bilimi hajmida tanlangan ham o'zicha ma'lum izchillikni ifoda etgan.

Darslikda grammatikani formal o'rganish, ya'ni grammatizm yo'lidan borilmadi. Aksincha, grammatik vositani anglatish (ba'zan qoida yordamida), qisqa mustahkamlashdan so'ng ketma-ket nutqda qo'llashga o'tish izchilligi joriy etildi.

Har bir paragraf 2 yoki 3 o'quv soatiga mo'ljallangan. Bu usul o'quvchilarga ma'lum yangilik va yengillik yaratar degan maqsadda qo'llanildi. Bu urinish mualliflarning dastlabki ishlaridan bo'lganligi tufayli ba'zi fikr va e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin. Fikr va mulohazalarni «Ijod dunyosi» nashriyot uyiga (Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30- uy) yozib yuborishingiz mumkin.

## 1- §.

**1- topshiriq.** O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni haqidagi savollarga javob bering.

1. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni qachon bayram qilinadi?
2. Bayram nechanchi yildan beri nishonlanyapti?
3. Bayram qayerda nishonlanadi?
4. Bayramda kimlar qatnashadi?
5. Bayram bilan kimlarni tabriklaymiz?
6. Bayramda qanday she‘r va qo‘shiqlar ijro etiladi?
7. Siz bayramni qayerda nishonladingiz?

**2- topshiriq.** Matnni o‘qib, savollarga javob bering.

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra chaqnaq turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshoqlari, chap tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iborat. Uning yuqori qismida Respublika jipsligini ifodalovchi sakkiz qirrali yulduz o‘rin olgan. Sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz esa musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerb markazida himmat, olijanoblik va baxt timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Humo qushining orqasida respublikamizdagi qorli tog‘lar, Amudaryo va Sirdaryo tasvirlangan. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat va farovonlik yo‘lidagi orzu umidlarini ifodalaydi.

Gerbning chambar bandiga o‘ralgan Respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch xil rangli tasmaning pastki qismiga «O‘zbekiston» so‘zi yozilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi 1992 yilda tasdiqlangan.

### **Savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbida nimalar tasvirlangan?
2. Humo qushi qanday ramziy ma'nolarni bildiradi?
3. Gerbda xalqimizning qanday orzu-umidlari aks etgan?

### **Matnga doir lug'at**

**jipslik** — jebislik

**baxt** — bagt

**himmat** — rehindarlyk

**farovonlik** — eʃret

**3- topshiriq.** Matndagi yangi so'zlarni yod oling.

**4- topshiriq.** Mustaqillik, O'zbekiston haqidagi o'zingiz bilgan she'rlarni yoddan o'qing.

## **2- §.**

### **O'TILGANLARNI TAKRORLASH**

**1- mashq.** Quyidagi otlarning ma'nosini esga tushiring. Ular ishtirokida so'z birikmasi yoki gap tuzing:

Rais, rahbar, boshliq, xodim, ishchi; olim, yozuvchi, shoir, muhandis, shifokor, hamshira, tomoshabin; oshpaz, sartarosh, sotuvchi, quruvchi, bo'yoqchi, duradgor, aloqachi, bog'bon; sportchi, darvozabon, himoyachi, hujumchi; askar, chegarachi, tankchi, uchuvchi.

**2- mashq.** Quyidagi yasama so'zlarni o'qib, so'z yasovchi qo'shimchalarni esga tushiring.

Sinfdosh, binokor, haydovchi, ustalik, chorvachilik, bilim, intizomli, kuchsiz, devoriy, namunaviy, bahorgi, kechki, nomdor, boshqarma, yopiq, qo'rqoq.

**3- mashq.** Quyida berilgan fe'llar asosida savol-javoblar tuzing.

Asramoq, ag'darmoq, boqmoq, buklamoq, buramoq, kavlamoq, kurashmoq, ortmoq, pishirmoq, sug'ormoq, surkamoq, tashimoq, tuzatmoq, to'qimoq, to'g'ramoq, chaymoq, elamoq, yubormoq, yasamoq, o'rmoq, o'stirmoq, qadamoq, qazimoq, qoqmoq, qutqarmoq, qaramoq, bormoq.

### **Namuna:**

– *Sen qaysi ustaga boryapsan?*

– *Men soch oladigan ustaga boryapman.*

**5- topshiriq.** Yusuf Xos Hojibning bilim haqidagi hikmatli soʻzlarini oʻqib, izohlab bering.

Boshliq bilimli va dono boʻlsa, atrofiga oʻziga oʻxshaganlarni yigʻadi.

Jahonda bilimdan ulugʻ, bilimdan aziz nima bor?

Bilimsiz desalar, bu inson uchun haqoratdir.

Bilimsizga toʻrdan oʻrin boʻlsa, koʻr,  
Bu toʻr poygak boʻldi, poygak esa toʻr.

Bilimsizni aql-idrok egalari koʻzi koʻr odamga qiyoslashadi.

Oʻquv koʻrki soʻzu, bu til koʻrki soʻz,  
Kishi koʻrki yuzu, bu yuz koʻrki koʻz.

Kishi soʻzini til bilan soʻzlaydi. Soʻzlari yaxshi boʻlsa, uning yuzi suv oladi, yaʼni obroʻ qozonadi, eʼtibor topadi.

**4- mashq.** «Oʻqishning chegarasi bormi?» degan mavzuda hikoya qiling, uyda kichik insho yozing.

**5- mashq.** Berilgan soʻzlardagi qoʻshimchalarga qarab soʻroq soʻzlar tanlang va shu soʻroq soʻzlarning turkmancha tarjimasida asosida oʻzbekcha soʻzlarni turkman tiliga tarjima qiling.

Namuna: *kechgacha - qachongacha? – haçana çenli? – agsama çenli*

Futbolchi, futbolchining, futbolchini, futbolchiga, futbolchida, futbolchidan; oshqozonning, oshqozonni, oshqozonga, oshqozonda, oshqozondan; sinayapti, sinadi, sinaydi, sinagan, sinar edi; teja, tejama, tejang, tejamang; jarrohlr, jarrohlarning, jarrohlarni, jarrohlarga, jarrohlarda, jarrohlardan, jarrohlr bilan.

**6- mashq.** *Jilgʻa, irmoq, sohil, soʻqmoq, ufq* soʻzlarini qatnashtirib, soʻz birikmalari tuzing.

**7- mashq.** «Yozgi taʼtilda», «Oromgohda», «Oromgohimiz togʻ bagʻrida edi», «Daryo boʻyida» mavzularida soʻzlashga tayyorgarlik koʻring. Buning uchun darslik oxiridagi «Oʻzbekcha-turkmancha lugʻat»ning «Tabiat», «Feʼllar» mavzulariga doir soʻzlarni oʻqing, yangi soʻzlarni eslab qolishga harakat qiling.

### 3- §.

#### O‘TILGANLARNI TAKRORLASH (DAVOMI)

##### Sifatdosh (ortak işlik):

- **gan (-kan, -qan):** *yaratgan olim* — döreden alym, alymyň döreden;
- **ayotgan, -yotgan:** *bo ‘g ‘ayotgan ilon* — bogýan ýylan; *jo ‘nayotgan poyezd* — ugraýan otly.

##### Ravishdosh (hal işligi):

- **ib, -b:** *bitirib* — gutaryp, tamamlap; *payqab* — görüp; *kulib* — gülüp; *yig ‘lab* — aglap;
- **may, -masdan:** *sinamay* (sinamasdan) — synaman, synamazdan; *o ‘rnatmay* (o ‘rnatmasdan) — oturtman, oturtmazdan;
- **gani (-kani, -qani):** *qutulgani* (keldi) — (geldi) gutulmak üçin; *ek-kani* — ekmek üçin; *chiniqqani* — bişismek üçin.

##### Harakat nomi (hereketiň ady):

- **ish, -sh:** *bichish* — biçmeklik, *egallash* — eýelemek; *erishish kerak* — gazanmak gerek, *qatnashish zarur* — gatnaşmak gerek;
- **maslik:** *qo ‘riqlamaslik mumkin emas* — goramazlyk mümkin däl;
- **uv, -v:** *kuzatuv* (punkti) - gözegçilik (punkty), *saylov* - saýlawlar; saýlaw.

##### Ko‘makchilar va ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar (kömekçi we kömekçiniň roluny oýnaýan sözler):

**Bilan:** *olmos bilan* — almaz bilen, *bastakor bilan* — kompozitor (bilen), *hayajon bilan* — tolgunmak bilen, howsalaly, aljyraňny.

**Uchun:** *tinchlik uchun* — parahatçylyk ugrunda, *korxonona uchun* — kärhana üçin, *qiyoslash uchun* — deňeşdirmek üçin.

**Keyin** (so‘ng): *tantanadan keyin* (so‘ng) — dabaradan soň.

**Avval** (oldin, ilgari): *zilziladan avval* (oldin, ilgari) — ýer gynyl-damazdan öň.

**Orqali:** *havo orqali* — howa arkaly; *vositachi orqali* — araçy arkaly.

**Qarshi:** *dushmanga qarshi* — duşmana garşy.

**Boshqa:** *nondan boshqa* — çörekden başga.

**Oid, doir:** *tibbiyotga oid* (doir) — şepagata degişli;

**Ortiq:** *yuzdan ortiq* — ýüzden artyk (gowrak) .

**Bo'lib:** *sartarosh bo'lib* (işlaydi) — dellek bolup (işleýär).

**Bo'ylab:** *mamlakat bo'ylab* — ýurt boýunça.

**Tomon (-ga tomon, tomonga)** — *adir tomon* (adirga tomon, adir tomonga) — düzlüğe tarap.

**Bo'yida:** *soy bo'yida* — derýanyň boýunda, derýanyň kenarynda.

### **Ko'makchi fe'llar (kömekçi işlikler):**

**Olmoq** (bilmek): *yorita oladi* — beýan edip bilýär, *asray oladi* — gorap (saklap) bilýär.

**Olmoq** (özi üçin hereket): *chayib oladi* — çaykap alýar (özi üçin), *egallab oladi* — ele alýar (özi üçin).

**Bermoq:** *yanchib berdi* — üwdüp bermek (kimdir birine), *tejab berdi* — tygşytlap berdi; *sinay berdi* — synagdan geçirdi (hiç zada garamazdan).

**Qolmoq:** *o'zgarib qoldi* — üýtgedi (duýdansyz), *tugab qoldi* — gutaryp galdy (garaşylmazdan), *o'ylanib qoldi* — oýlanyp galdy (çuň).

**Ketmoq:** *sachrab ketdi* — syçrap gitdi (duýdansyz), *oqizib ketdi* — suw alyp gitdi, *tashib ketdi* — alyp gitdi, äkitdi, *o'xshab ketdi* — meňzäp gitdi (bütinleý).

**Yubormoq:** *burib yubordi* — burup goýberdi (birdenkä), *qiynab yubordi* — bizar etdi (hut).

**Tashlamoq:** *suvab tashladi* — suwap taşlady, *sug'urib tashladi* — soguryp taşlady (bütinleý).

**Chiqmoq:** *titib chiqdi* — sermenip çykdy (hemme zady), *sinab chiqdi* — synap çykdy (ahyryna çenli), *o'sib chiqdi* — gögerip çykdy (gögerdi).

**O'tirmoq, turmoq, yotmoq:** *qo'riqlab o'tiribdi* (yotibdi, yuribdi, turibdi) — goraýar.

**O'tirmoq, turmoq:** *o'rnatib o'tirmadi* — ornadyp oturmady, *kutib turmadi* — garaşmady.

### **Fe'lning ayrim shakllari (işligiň käbir şekilleri):**

– **sa kerak:** *kuchaysa kerak* — belik güýçlener, *topshirsa kerak* — belki tapşyrar.

– **im keldi (-ing keldi, -isi keldi):** *gaplashgim keldi* — gepleşesim



geldi *almashging keldi* — çalyşasyň geldi – (seni) çalyşasyň geldi , *almashgisi keldi* — (onyň) çalyşasy geldi.

-(i)b bo'ladi (bo'lmaydi): *buklab bo'ladi* — bükme mümkin, *burib bo'lmaydi* — aýlamak mümkin däl (aýlamaly däl).

-(a)yotgan edi: *kavlayotgan edi* — (ony görenlerinde, ol) gazýardy, *ovutayotgan edi* — köşeşdirýärdi;

-gan edi: *sudragan edi* — (ony görenlerinde, ol) çeki barýardy, *ortgan edi* — (ol) ýükledi.

### Majhul nisbat (passiw dereje):

-il, -l: *sezilmoq* — syzylmak, duýulmak; *qazilmoq* — gazylymak, gazy-  
lan bolmak; *tashilmoq* — geçirilmek;

-in, -n: *hozirlanmoq* — taýýarlanmak, *olinmoq* — alynmak.

### Orttirma nisbat (ýükletme derejesi):

-dir: *terdirmoq* — ýygyp aldyrmak, *uzdirmoq* — üzüp aldyrmak;

-tir: *kestirmoq* — kesip aldyrmak, *sug'urtirmoq* — goparyp aldyrmak.

-t: *kavlatmoq* — gazdyrmak, *tashitmoq* — getirtirmek

### So'z yasovchi qo'shimchalar (söz ýasaýan suffiksler):

-chi: *futbolchi* — futbolçy, *g'ijjakchi* — скрипкачы;

-li: *alangali* — yalkymly, *go'shtli* — etli (сочма);

-siz: *aybsiz* — günäsiz, günäsi ýok; *suvsiz* — suwsyz; *ma'nisiz* —  
manysyz;

-zor: *paxtazor* — pagta meýdany; *gulzor* — gulzar;

-la: *tuzlamoq* — duzlamak; *qishlamoq* — gyslamak;

-lan: *tinchlanmoq* — köşeşmek; *xavotirlanmoq* — tolgunmak, yn-  
jalyksyzlanmak;

-lash: *tezlashmoq* — tizleşmek; *sekinlashmoq* — assalanmak;

-lik: *mangulik* — ebedilik, *hushyorlik* — hüşgärlik, *toshkentlik* —  
**daşkentli**, *ko'ylaklik* — köýneklilik (köýneg üçin mata);

-chilik: qo'yçilik – goýungarçylyk; bog'dorçilik – bagbançylyk.

Qo'shma fe'l hosil qiluvchi qilmoq (etmoq), bo'lmoq fe'llari: *jan-  
jal qilmoq* — uruşmak, *talab qilmoq* (etmoq) — talap etmek, *xafa  
bo'lmoq* — öýkelemek, *xafa qilmoq* — öýkeletmek.

**6- topshiriq.** Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi hosil qiluvchi qo‘shimchalarni ko‘rib chiqing, imlosiga e‘tibor bering. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalarni ayting.
2. Sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalar imlosini tushuntiring.
3. Ravishdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalarni ayting.
4. Ravishdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalar imlosini tushuntiring.
5. Harakat nomi hosil qiluvchi qo‘shimchalarni ayting.
6. Harakat nomi hosil qiluvchi qo‘shimchalar imlosini tushuntiring.

**8- mashq.** Berilgan so‘zlar asosida savol-javoblar tuzing.

**1-namuna:**

- Senga qaysi oshpaz kerak?
- Menga palov pishirgan oshpaz kerak.

**2-namuna:**

- Senga qaysi tikuvchi kerak?
- Menga shim tikadigan tikuvchi kerak.

Cho‘pon, qo‘y boqmoq; duradgor, rom yasamoq; jarroh, operatsiya qilmoq; sozanda, rubob chalmoq; oshpaz, manti pishirmoq; hamshira, ukol qilmoq; sartarosh, soch olmoq; chilangar, qolip yasamoq; to‘quvchi, gilam to‘qimoq; yukchi, yuk tashimoq.

**7- topshiriq.** Quyidagi so‘zlarning turkman tilidagi tarjimasini eslab qoling.

**bel** — bil

**sohil** — kenar

**kamar** — gáyyş

**sobit** — hemişelik

**tangri** — hudaý

**adolat** — hakykat

**ezgulik** — hayýrly iş

**ruh** — ruh

**zulm** — sütem

**istiqlol** — garaşsyzlyk

**istibdod** — sütemlik, zulumlyk

**samar(a)** — netije

**isyon** — gozgalaň

**Sayhun** — Saýhun (derýa)

**Jayhun** — Jeýhun (derýa)

#### 4- §.

**9- mashq.** «Xirmonda», «Paxta tozalash zavodida», «Gazlama do'konida» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. «O'zbekcha-turkmancha lug'at»dan «Kiyim-kechak», «Fe'llar» mavzulariga doir so'zlarni o'qib, kerakli yangi so'zlarni ajratib va ularni eslab qolishga harakat qiling.

**10- mashq.** *Chigit, tola* so'zlarini qatnashtirib, so'z birikmalari tuzing.

**8- topshiriq.** Ko'makchilar va ko'makchi vazifasidagi so'zlarni ko'rib chiqing (3- §) va savollarga javob bering.

1. Ko'makchilardan qay biri maqsad ma'nosini anglatadi?
2. Qaysi so'z *ishlamoq* so'zi bilan birga qo'llanadi?
3. Turkman tilidagi *name bilen? kim bilen?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar o'zbek tiliga qaysi ko'makchilar orqali tarjima qilinadi?

**11- mashq.** Nuqtalar o'rniga ko'makchilardan mosini qo'yib o'qing va ko'chiring.

1. Odam odam ... tirik. (*Maqol*) 2. Naftalin kuyaga ... ishlatiladi. 3. Ota-sining bu bahosi Umar ... kutilmagan gap edi. 4. U shu gapdan ... to'satdan uyg'ongan kishidek o'g'li ... boshini burdi. 5. Tuyani cho'mich ... sug'orib bo'lmaydi. (*Maqol*) 6. Umar bu savolga javob topish ... ko'p vaqt kerak ekanligini anglamadi. (*N. Normat*)

**9-topshiriq.** She'rni ifodali o'qing.

#### VATAN MADHIYASI

*Nurali Qobul*

Jahonning belida yashnagan kamar,  
Tangri tog'laridan oqqan ezgulik.  
Istiqloldan ruhing topganda samar,  
Sen buyuk Vatansan, Vatan degulik.

Sayhun sohilida sobit orzular,  
Adolat o'lkasi qadim Turondir.  
Jayhun jilvasiga intiq ohular  
Zulmu istibdodga tirik isyondir.

Jahonning belida yashnagan kamar,  
Tangri tog'laridan oqqan ezgulik.  
Istiqloldan ruhing topganda samar,  
Sen buyuk Vatansan, Vatan degulik.

**10- topshiriq.** 3- § da berilgan ko‘makchi fe‘llarni, ularning turkman tilida ifodalanishini, shu orqali qanday ma‘no anglatishini o‘rganib chiqing.

**12- mashq.** Berilgan gaplardan fe‘llarni aniqlab, ularni ko‘makchi fe‘l bilan qo‘llang.

*Namuna: Kuzda kechalari shabada esadi. — Kuzda kechalari shabada esib turadi.*

1. Tog‘larda qor tez-tez yog‘adi. 2. Ko‘lda o‘rdaklar suzyapti. 3. Ahmad yangi qog‘oz olib yana yozdi. 4. U xoxolab kuldi. 5. Mirzacho‘lda tez-tez kuchli shamol bo‘ladi. 6. Dangasalar ishning oxiri nima bo‘lishini kutishibdi. (*Ertakdan*) 7. Bir piyola choy uzating. 8. Tuvakdagi gul o‘syapti. 9. Xonada telefon jiringladi. 10. Sulton doim chiroyli kiyinadi. (*G‘ayratiy*) 11. Shu vaqt qo‘shni hovli darvozasidan Nigora ismli qizcha chiqdi. (*R.Farhodiy*)

## 5-§.

**13- mashq.** «Jinoyatning oldi olindi», «Harbiy qismda» mavzularida so‘zlashga tayyorgarlik ko‘ring. Buning uchun darslikdagi «O‘zbekcha-turkmancha lug‘at»dan «Ijtimoiy hayot», «Fe‘llar» qismlarini o‘qib, yangi so‘zlarni eslab qolishga harakat qiling.

**14- mashq.** *Muqaddas, burch, hukm, tartib* so‘zlari ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

**15- mashq.** Darslik oxiridagi lug‘atdan «Ijtimoiy hayot» mavzusini toping, shu mavzuga doir so‘zlarni o‘qib, talaffuzi va ma‘nosini yodingizga tushiring. Yangi so‘zlarning ayrimlarini (*muqaddas, dunyo, el, jannat, hukm, tarix*) eslab qoling. Ular bilan so‘z birikmalari tuzing.

**16-mashq.** Avval juft qilib berilgan so‘zlarning har birini qatnashtirib gap tuzing, keyin ikki gapni qo‘shib ayting va yozing.

*Namuna: Pichoq. Oshpaz. — Pichoq stolda yotibdi. Oshpaz pichoqni oldi. — Oshpaz stolda yotgan pichoqni oldi.*

1. Ota. Karim. 2. Qo‘y. Cho‘pon. 3. Paxta. Terimchi. 4. Iz. Chegarchi. 5. To‘p. Hujumchi. 6. Apparat. Ixtirochi. 7. Majlis. Ishtirokchi. 8. Ko‘mir. Konchi. 9. Quvur. Gazchi. 10. Ko‘ylak. Bola.

**11- topshiriq.** Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining turkman tiliga tarjimasini eslab qoling.

to‘tiyo aylab — hormatlamaq (mukaddes zar ʻalyal)

tanho — ʻekeje, ʻyalʻnyz

**ta'zim qilmoq** — salam bermek, baş egmek  
**makon** — mesgen, mekan  
**unmoq** — ösmek, ulalmag  
**jannat** — jennet  
**ko'z-ko'z etmoq** — görkezmäge goýmak  
**ardoqlamoq** — gadyrlamak  
**taqsim qilmoq (aylamoq)** — paýlamak, bölmek

*12- topshiriq.* She'rni ifodali o'qing va yod oling.

## MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

*Abdulla Oripov*

Men nechun sevaman O'zbekistonni,  
Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo.  
Nechun Vatan deya yeru osmonni  
Muqaddas atayman, atayman tanho.  
Aslida, dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?  
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?  
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.  
Men nechun sevaman O'zbekistonni,  
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,  
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men —  
O'paman: «Tuproq'ing bebaho, Vatan!»  
Aslida tuproqni odil tabiat  
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.  
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,  
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!  
Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,  
Sababini aytgil, desalar menga,  
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin  
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.  
Xalqim, tarix hukmi seni agarda  
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,  
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,  
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?  
Vatanlar, Vatanlar,  
Mayli gullasin,  
Bog' unsin manguлик muzda ham, ammo,  
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun  
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Shoir Vatanga bo'lgan muhabbatini qanday tasvirlaydi?
2. U o'z Vatani nima uchun sevadi? O'sha misralarni topib o'qing.
3. Nima uchun shoir: «Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!» deydi?
4. «O'zbekiston — Vatanim manim» mavzuida matn tuzing.

## **6- §.**

**17- mashq.** «Madaniyat uyida», «Yangi kashfiyotlar», «Maqbara oldida» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Buning uchun darslikdagi «O'zbekcha-turkmancha lug'at»dan «Maktab, adabiyot, san'at, ilm-fan», «Fe'llar», «Sifat va ravishlar» qismlaridagi so'zlarni ko'zdan kechirib, zarur so'zlarni ajratib, yangi so'zlarni eslab qolishga harakat qiling.

**18- mashq.** *Maqbara, asbob, madaniyat, ilm* so'zlarini qatnashtirib, so'z birikmalari tuzing.

**19- mashq.** Nuqtalar o'rniga *ustiga, ichida, yonida, tagida, ostida, o'rtasida, atrofida, orqasida, oldida, orasida* ko'makchilaridan birini qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. Yog'ochni o'z ...gi qurt yeydi. (*Maqol*) 2. Yiqilganing ... chiqib tepma! (*Maqol*) 3. Yaxshisi, ko'chaga chiqib, simyog'och ... o'tiray. 4. Baland simyog'ochda xiragina nur sochib turgan lampochka ... yorqanotlar aylanadi. (*S.Ahmad*) 5. Jo'ravoy kampirning ... o'tirdi. 6. Bu kishiga yerning ... bo'lsa ham yarim tonna eng yaxshi ko'mir topib berasiz. (*S.Ahmad*) 7. Maysa ... oftobda tovlanib yotgan terilar allaqanday mo'jiza edi. (*S.Ahmad*) 8. Chol pichan g'arami ... chalg'i charxlar edi. (*T.Malik*)

**20- mashq.** «Bizning maktabimiz» mavzuida tasviriy matn tuzing. O'z hikoyangizda sifatdoshlarni ishlatib.

**21- mashq.** Quyidagi fe'llar asosida to'satdan bajarilgan harakat ma'nosini ifodalab, gaplar tuzing:

Adashmoq, buzilmoq, sinmoq, tinmoq, tushmoq, to'lmoq, uxlamoq, ushlamoq, o'tmoq, yoqmoq, yirtilmoq, yo'qolmoq, osilmoq, tanimoq, to'ymoq, to'smoq, uyg'onmoq, shamollamoq, eshitmoq, o'chmoq, kuy-moq, tugamoq, shoshmoq, qurimoq, asramoq, sevmoq, uchramoq, o'zgar-moq, aytishmoq.

**13- topshiriq.** Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Ilm ista» g'azalini o'qing. U haqda o'z fikrlaringizni bildiring.

## ILM ISTA

*Hamza Hakimzoda Niyoziy*

Kim bilurdi odamu olam nadur, hayvon nechuk,  
Bo'lmasa erdi agar insonda bu osor ilm.  
Qaysi bir mavjuda boqsang bilmuqa kayfiyatin,  
Lozim o'lgay topmoqa avval o'qib axbor ilm.  
Gar maishatdan so'rarsan, ibrat ol darrandadin —  
Bir-biriga to'ma o'ldi, boisi ag'yor ilm.  
Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,  
Olaming zulmoti tundur, odaming nodori ilm,  
Har muroding, maqsadingga yetmoq istarsan, murod,  
Ko'z ochub bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm.  
Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq,  
Kecha-kunduz so'zlari afkor ilm, afkor ilm.  
Ul haqiqat oyinig'o sayqal istarsan, Nihon,  
Ilm ista, ilm ista, istagil zinhor ilm.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. G'azalni diqqat bilan o'qing. Matn asosida mazmunini tushuntiring.
2. «Har muroding, maqsadingga yetmoq istarsan, murod, Ko'z ochub bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm» misralarini sharhlab bering.
3. «Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq, Kecha-kunduz so'zlari afkor ilm, afkor ilm» misralarini davr bilan bog'lab tushuntirib bering.
4. G'azal boshqa she'r shakllaridan qanday farq qiladi?

### **She'rga doir lug'at**

<b>osor</b> — yadgärlik	<b>ag'yor</b> — özge, yatlar
<b>axbor</b> — habar, maglumat	<b>afkor</b> — pikir
<b>maishat</b> — dabaraly to'y	<b>sayqal</b> — palirowka
<b>darranda</b> — haywan (ýyrtjy)	<b>zinhor</b> — hiç wagt, düybünden

**22- mashq.** *Tejamoq, sinamoq, bitirmoq, uyushtirmoq* (guramak) fe'llarini «-sa kerak», «-(i)b bo'ladi (bo'lmaydi)», «-gisi kelmadi», «-ish kerak», «-(a) yotgan edi», «-gan, (-kan, -qan) edi», «-ar edi», «-mas edi» shakllarida qo'llab, turkman tiliga tarjima qiling.

**23- mashq.** Hasharga mo'ljallangan ishlarning bajarilishiga ishonchsizlik bildirib, bir nechta gap ayting.

*Namuna: Kolya hasharda qatnasha olmasa kerak ...*

24- **mashq.** Darshlikning «Illova» qismidan «Fe'llar»ga oid lug'atni ko'rib chiqing, talaffuzini va ma'nolarini esga tushiring, yangi fe'llarga e'tibor bering.

## 7-§.

25- **mashq.** «Ikki o'rtoq urishib qoldi», «Mening do'stim», «Men sevgan qahramon» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Buning uchun «O'zbekcha-turkmancha lug'at»ning «Inson, uning ma'naviy dunyosi», «Fe'llar», «Sifat va ravishlar» qismlaridagi so'zlarni o'qib, kerakli so'zlarni ajrating, yangilarini eslab qolishga harakat qiling.

26- **mashq.** Quyida berilgan ko'makchi fe'lli birikmalarni «yasay olmoq» ko'makchi fe'lli birikmalar qo'llangan qo'shimchalar bilan ishlating.

### *Namuna:*

Yasay olyapti, yasay olmayapti, yasay oldi, yasay olmadi, yasay oladi, yasay olmaydi, yasay olgan (yasay olgani yo'q, yasay olgan emas), yasay olar edi, yasay olmas edi, yasay olsa, yasay olmasa, yasay olay, yasay olaylik, yasay ol, yasay oling, yasay olsin, yasay olsa kerak, yasay olish kerak, yasay olayotgan edi, yasay olmagan edi.

Ayta olmoq, ko'rsatib bermoq, ushlab qolmoq, tashlab yubormoq, o'lchab chiqmoq.

14- **topshiriq.** Matnni o'qing.

## TOSHBAQA BILAN CHAYON

Bir toshbaqa bilan chayon do'st edilar. Ular bir kun safarga otlandilar. Nogoh yo'lda bir anhorga duch keldilar. Chayon o'ta olmasligini sezib, hayron bo'lib to'xtadi.

Toshbaqa dedi:

– Ey aziz do'stim, senga nima bo'ldi, g'amgin bo'lib turibsan?

Chayon dedi:

– Birodar, men bu suvdan qanday o'taman, deb hayronman.

Toshbaqa dedi:

– G'am yema, orqamga mindirib, seni suvdan bexatar o'tkazib qo'yaman.

Toshbaqa chayonni orqasiga mindirib survgga tushdi. Suzib borayotganida uning qulog'iga bir narsaning tiqirlagani eshitildi va u chayonning harakatidan shubhalanib so'radi:

– Eshitayotganim qanday ovoq, sen nima qilyapsan?



Chayon javob berdi:

– Nayzamni sening qalqoningga urib, sinab ko‘rmoqchiman.

Toshbaqa dedi:

– Ey bemuruvvat, men o‘zimni girdobga tashlab, seni suvdan bexatar o‘tkazmoqchi bo‘lsamu, sen orqamga nish ursang. Bilasanki, nayzang mening qalqonimga zarar yetkaza olmaydi.

Chayon dedi:

– Mening tabiatim, xoh do‘st orqasiga bo‘lsin, xoh dushman siynasiga bo‘lsin, nish urmoqni taqozo etadi.

Donishmandlar, zoti yomonni tarbiyalasang, obro‘yingdan mahrum bo‘lasan, deb bekorga aytmaganlar.

Shunday deb toshbaqa suvga sho‘ng‘idi, chayon esa suvga tushib, halok bo‘ldi.

*Gulxaniy*

### *Matnga doir lug‘at*

**safarga otlanmoq** — yõrişe

ugramak

**hayron** — haýran galmak

**nogoh** — duýdansyz, birden

**g‘amgin** — gaýgyly, gamly

**g‘am yemoq** — gaýgylanmak

**bexatar** — howpsuz, gorkysyz

**mindirmoq** — biliñe (arkasyna) oturtmak

**nayza** — nayza

**sinamoq** — synamak

**girdob** — suwuñ aýlawy

**nish** — iññe

**shubhalanmoq** — şübhelenmek

**qalqon** — galkan


**bemuruvvat** — sypaýyçylyksyz

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Toshbaqa chayonga qanday yaxshilik qildi?
2. Chayon bu yaxshilikka qanday javob berdi?
3. Siz chayonning harakatini qanday baholaysiz?
4. Toshbaqa chayonni suvga oqizib to‘g‘ri qildimi?
5. Matnning mavzusi nima?
6. Matndagi asosiy fikrni ifodalagan gapni toping.
7. Mana shu mavzuga oid qanday o‘zbek xalq maqollarini bilasiz?
8. Ularni daftaringizga yozing.

**27- mashq.** *Hayron bo‘lmoq, shubhalanmoq* fe‘llaridan fe‘l shakllari (sifat-dosh, ravishdosh, harakat nomi) hosil qilib ayting va turkman tiliga tarjima qiling.

**28- mashq.** «Men kuni qanday o‘tkazdim?» mavzuida hikoya tuzing. Hikoyangizda fe‘l shakllaridan unumli foydalaning.



## 8-§.

**29- mashq.** «Sabr-bardosh nima?», «Xalqim uchun xizmat qilaman, deganda nimani tushunasiz?» mavzularida so‘zlashga tayyorgarlik ko‘ring. Buning uchun «O‘zbekcha-turkmancha lug‘at»ning «Inson, uning ma‘naviy dunyosi», «Ijtimoiy hayot» qismlarida berilgan so‘zlardan foydalaning.

**30- mashq.** *Roziman, yurak, yo‘l* so‘zlari ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

**31- mashq.** O‘qing. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomini aniqlab, tagiga to‘liqinli chiziq chizing.

1. Hech kimga bildirmay yurakda sir saqlayman. (*Oybek*) 2. Cho‘lda yovvoyi hayvonlarni uchratish qiyin. 3. Oqiljon gulni qaychida qirqib, onasiga olib bordi. 4. Samolyotning ikki tomonida aylanadigan parraklari bor edi. 5. Ahmad nonushta paytida ham o‘z xayollari bilan bo‘lib, indamay o‘tirdi. 6. Sherzod jiringlaydigan soatni burab bosh tomonga qo‘ydi. 7. Katta bo‘lish mumkin, kichik bo‘lish qiyin. (*Maqol*) 8. Yo‘qolgan pichoqning sopi oltin. (*Maqol*)

**32- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

**1- namuna:**

- Olim nimaning ahamiyati haqida gapirdi?
- Olim yangilik yaratishning ahamiyati haqida gapirdi.

**2- namuna:**

- Oshpaz nimani yaxshi ko‘radi?
- Oshpaz mazali taom pishirishni yaxshi ko‘radi.

**3- namuna:**

- Duradgor nimaga qiziqadi?
- Duradgor rom yasashga qiziqadi.

**4- namuna:**

- Tikuvchi nimada ilg‘or?
- Tikuvchi yangi nusxadagi kiyimlar tikishda ilg‘or.

**5- namuna:**

- Geolog nimadan charchamaydi?
- Geolog kon qidirishdan charchamaydi.

15- *topshiriq*. Mirtemirning quyidagi she'rini ifodali o'qing.

## ROZIMAN, RIZOMAN, O'LA-O'LGUNCHA

*Mirtemir*

Roziman, rizoman, o'la-o'lguncha  
Xalqim deb o'ldim.  
Xalqim nima bo'lsa, men o'sha bo'ldim.  
Yuragim, bo'g'ilma, o'rtanma buncha!

O'zimga xiyonat qildimu aksar,  
Xalqimga xiyonat o'ylaganim yo'q.  
Mening yuragimni teshib o'tdilar  
Xalqimga otilgan talay-talay o'q.

Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim,  
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.  
Faryod solar choqda jim bo'la oldim,  
Xalqim dardi edi dil o'rtaqan dard.

Xalqim etagida yetdim voyaga,  
Xalq bilan kuldim.  
Bardoshim so'z bermas, deyman qoyaga...  
Roziman, o'lguncha xalqim deb o'ldim.

### *She'rga doir lug'at*

**bo'g'ilmoq** — bogylmany syzmak  
**rozi (rizo bo'lmoq)** — razy bolmak,  
kanagatlanmak  
**faryod** — bagryny paralap aydany  
**dard** — agyry, kesel  
**bardosh** — sawyp etme, çydamlylyk

**tolmoq** — ýadamak, armak  
**gard** — çañ  
**xiyonat** — dönüklik  
**o'rtanmoq** — gynanmak  
**aksar** — kopüsi

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Shoir o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatini qanday tasvirlaydi?
2. «O'zimga xiyonat qildimu aksar...» misrasi bilan boshlanadigan to'rtlikning mazmunini sharhlab bering.
3. *Gard, faryod, dard* so'zlarining sinonimlarini toping.
4. She'rni yod oling.

**33- mashq.** Darslikning oxiridagi lug'atdan «Inson, uning ma'naviy dunyosi»ga doir so'zlarni o'qing, talaffuzi va imlosiga, yangi so'zlarning ma'nolariga e'tibor bering.

34- **mashq.** «Mening o'rtog'larim ko'p» mavzuida so'zlab bering.

35- **mashq.** Yuqoridagi mavzu asosida kichik insho yozing.

## 9- §.

36- **mashq.** «Yaxshi o'qishingiz uchun nimalar kerak?», «Qoloqlik qayerdan paydo bo'ladi?», «Mening kun tartibim» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring.

37- **mashq.** *Maslahat, munosabat, muhit, nazorat, reja, bekor* so'zlari ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

**16- topshiriq.** O'zbek tilida harakat nomining egalik qo'shimchasini olib turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishiga e'tibor bering. Lug'atdan tarjimasi berilmagan so'z va so'z birikmalarining turkman tilidagi muqobilini toping.

qayramoq — çalmak, ýitilemek

qayrash — ýonma

qayrashim —

qayrashimning —

qayrashimni —

qayrashimga —

qayrashimda —

qayrashimdan —

qayrashim haqida —

qayrashim bilan —

qayrashim uchun —

birlashmoq — birleşmek

birlashish kerak — birleşmek gerek

birlashishimizni —

birlashishimizga —

birlashishimizda —

birlashishimizdan —

birlashishimiz bilan —

birlashishimiz uchun —

birlashishimiz haqida —

birlashishimiz sari —

38- **mashq.** Savol-javoblar tuzing.

**1- namuna:**

– *Oshpaz nima haqida gapirdi?*

– *Oshpaz ovqat pishirish haqida gapirdi.*

**2- namuna:**

- Cho'pon nimani kuzatyapti?
- Cho'pon qo'y boqishimizni kuzatyapti.

**3- namuna:**

- Tikuvchi nimaga rahbarlik qildi?
- Tikuvchi ko'ylak tikishimizga rahbarlik qildi.

Foydalanish uchun so'zlar: *gulchi, gul, parvarish qilmoq; baliqchi, suv, almashtirmoq; kutubxonachi, kitob, saqlamoq; notiq, tinchlik, saqlamoq; sotuvchi, reklama qilmoq; sutchi, sut, qaynatmoq; yozuvchi, so'z, tanlamoq; dengizchi, ob-havo, bilmoq; bo'yoqchi, bo'yoq, tanlamoq.*

**39- mashq.** Berilgan gaplardagi harakat nomini ko'makchi fe'l bilan qo'llab o'qing.

*Namuna: G'o'zani vaqtida sug'orishning ahamiyati katta. — G'o'zani vaqtida sug'orib turishning ahamiyati katta.*

Muattar o'rinsiz gap aytishdan qo'rqdi.

Muzqaymoqning tez erishini unutma.

Mudirning meni to'satdan chaqirishiga ishonmas edim.

Uzumning kattaqo'rg'on, husayni va boshqa ajoyib navlari yo'qolmasligi kerak.

**40- mashq.** Berilgan gaplardagi sifatdosh, ravishdoshni ko'makchi fe'lli birikmaga aylantirib o'qing va ko'chiring.

1. Choyni to'kkan bola o'rnidan turdi. 2. Nafisa suv to'la chelakni ko'tarmay kimnidir kutar edi. 3. U daftarchamga o'z qo'li bilan yozgan gaplarini darrov esladi.

**41- mashq.** Berilgan fe'llardan avval ko'makchi fe'lli birikma hosil qiling so'ng sifatdosh shaklida qo'llab, savol-javoblar tuzing.

Burmoq, yoritmoq, kichraymoq, payqamoq, unutmog, qotmoq, yotmoq, sepmoq.

## 10-§.

**42- mashq.** «General Skobelevning Farg'onadagi siyosati» mavzuida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Buning uchun «O'zbekcha-turkmancha lug'at»ning «Ijtimoiy hayot» qismidagi so'zlarni o'qib, kerakli so'zlarni eslab qolishga harakat qiling.

43- **mashq.** *Ahvol, jazolamoq, hujum, g'alaba, bostirmoq, aylanmoq* so'zlari ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzing.

## SIFATDOSHNING TURLANISHI VA KO'MAKCHILAR BILAN QO'LLANISHI

### (TAKRORLASH)

**Sifatdoshli birikmada otning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishi**

**Sifatdoshning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishi**

**sevgan shoir** — söyen şahyr

**sevgan shoirga** — söyen şahyra

**sevgan shoirni** — söyen şahyry

**qutqargan askarga** — halas eden  
esgere

**qutqargan askarda** — halas eden  
esgerde

**qutqargan askardan** — halas eden  
esgerden

**ulgurgan kishi bilan** — ýetişen  
adam bilen

**ulgurgan kishi uchun** — ýetişen  
adam üçin

**ulgurgan kishi haqida** — ýetişen  
adam hakynda

**sevgan** — söyen

**sevganga** — söyene

**sevganni** — söyeni

**qutqarganga** — halas edene

**qutqarganda** — halas edende

**qutqargandan** — halas edenden

**ulgurgani bilan** — ýetişen bilen

**ulgurgani uchun** — ýetişene

**ulgurgan haqida** — ýetişen  
hakynda

Sifatdosh **-(a)yotgan** qo'shimchasi yordamida hosil etilgan bo'lsa, turkman tiliga hozirgi zamon fe'li shaklida tarjima qilinadi (sifatdosh qo'shimchasining o'zi turkman tilida *yän, ýan* goshimchalari bilan ifodalanadi). Masalan: *daraxtni butayotgan bog'bon* — agaçy pudaýan bagban; *botayotgan quyosh* — *batýan gün (batýär)*.

Sifatdoshli birikmadagi ot buyumni bildirsa, shu buyumni anglatgan so'z tushirib qoldirilsa, uni ko'rsatadigan sifatdosh *narsa* so'zi bilan qo'llanadi. Masalan: *tutayotgan taxtani (nimani?)* — *tutayotgan narsani (tütäp duran zat)*.

#### 44- mashq. Savol-javoblar tuzing.

##### 1- namuna:

- *Kimga qarayapsan?*
- *So‘zlayotganga qarayapman.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *gapirmoq, bermoq, o‘rnatmoq, qizdirmoq, tinglamoq, sinamoq, qatnamoq, oshirmoq, erishmoq, to‘ntarmoq, bichmoq, payqamoq, kirishmoq, boshqarmoq, yaratmoq, tejamoq.*

##### 2- namuna:

- *Qorovul nimaga qarayapti?*
- *Qorovul taraqlagan narsaga qarayapti.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘t o‘chiruvchi, chumchuq, cho‘pon, geolog, bola, o‘quvchi, o‘qituvchi.*

#### 17- topshiriq. Hikoyani o‘qing.

### OLOY MALIKASI

*(Tarixiy hikoya)*

Chor Rusiyasining sarkardasi, Farg‘ona viloyatining harbiy gubernatori, general Mixail Skobelev qiyin ahvolga tushdi. U rus harbiylariga qarshi bosh ko‘targanlarni shafqatsiz jazoladi. Qo‘zg‘olon rahbari Po‘latxonni dorga tortdi. O‘nlab qishloqlar aholisini yosh demay, qari demay, qilichdan o‘tkazdi. Yuzlab qishloqlarga o‘t qo‘ydirdi. Lekin qo‘zg‘olonchilar yana qayoqlardan paydo bo‘lib, rus zobitlariga hujum qilardi. Ayniqsa, Oloy tog‘larida ularning hujumlari tez-tez sodir bo‘lardi. Agar ish shu zaylda ketaversa, Skobelev erishgan g‘alabalar uch pul bo‘lardi. Farg‘ona vodiysida Rusiya hukmronligiga putur yetardi. Yangi g‘alayonlar yuz berardi.

Qo‘lga tushmas qasoskorlarga Qurbonjon dodxoh boshchilik qilardi. Qizig‘i shundaki, u ayol edi. Dodxoh (general) unvonini Qo‘qon xoni va Buxoro amiridan olgan. Asli ismi Qurbonjon Mamat qizi. O‘shning Modi qishlog‘idan, Andijon hokimi Olimbekning sevimli xotini bo‘lgan. Eri o‘lgandan so‘ng ona qishlog‘iga qaytgan. Oloy o‘lkasining barcha o‘zbeğu qirg‘izlari hukmdoriga aylangan. Bu qirg‘iz ayolini ular «Oloy malikasi» deb atashardi va unga bo‘ysunishardi. Qurbonjon dodxohning to‘rt o‘g‘li qo‘zg‘olonchilar safida bo‘lgan. To‘ng‘ichi Abdullabek qo‘zg‘olon rahbari Po‘latxonning o‘ng qo‘li edi. Skobelev ana shu ayol bilan muzokara yuritish uchun ikki odamini yuborgan. Bugun Qurbonjon dodxoh uning huzuriga kelayotgani haqida xabar olindi.

Skobelev chodiri atrofida turgan zobitlar o'rtasida jonlanish boshlandi.

– Kelishyapti! Kelishyapti!

Ko'p o'tmay, kazaklar qurshovidagi uch otliq yaqinlashdi.

– Oloy malikasi! — dedi kimdir o'rtadagi otliqqa qarab.

Yoqasi mo'ynali shoyi to'n kiygan, qirg'izcha qalpoqli chavandoz chodirga yaqinlashdi. General Skobelev yonidagi tilmoch zobiti bilan unga peshvoz chiqdi.

– Qurbonjon dodxoh hazratlari o'g'illari Qamchibek va jiyanlari Mirza Fayoz bilan huzuringizda, saodati oliylari, — deya raport berdi kazaklar boshlig'i...

General Skobelev muzokaralar oxirida hammani hayron qoldirib, Qurbonjon dodxohga o'z qo'li bilan zarbof to'n kiygizdi.

Oliy lavozimdagi podsho amaldorlari Qurbonjon dodxohdan doimo hayiqishgan. 1901 yilda Turkistonga kelgan Rusiya imperiyasi harbiy vaziri A.I.Kuropatkin shaxsan o'zi uyiga borib, dodxohni ziyorat qilgan. Rus podshosi Nikolay II ning rafiqasi Mariya Fyodorovna yuborgan tuhfa — qimmatbaho uzukni unga topshirgan.

Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatida faol qatnashgan, farzandlarini erksevarlik ruhida voyaga yetkazgan Qurbonjon dodxoh 1907 yili 96 yoshida vafot etgan. O'shanda uning 2 o'g'li, 2 qizi, 31 nabirasi, 57 chevarasi va 6 evarasi bo'lgan.

Qurbonjon Mamat qizi Turkiston tarixida xotin-qizlardan chiqqan birinchi general edi.

*Hamdam Sodiq*

### *Matnga doir lug'at*

**sarkarda** — serkerde

**ahvol** — yagday

**harbiy** — harby

**dor** — dar

**shafqatsiz** — rehimsiz

**jazolamoq** — jezalamak

**qo'zg'olon** — gozgalañ

**paydo bo'lmoq** — peyda bolmag

**zobit** — ofiser

**bosqinchi** — basybalyjy

**lavozim** — wezipe

**voyaga yetkazmoq** — ösdürmek,  
ýetişdirmek

**shu zaylda** — şol obrazda

**hukmronlik** — hökümdarlık, agalyk

**unvon** — at dakmak

**itoat etmoq** — tabyn bolmak

**muzokara** — gepleşik

**jonlanmoq** — janlanmak

**otliq** — atly, kawalerist

**tilmoch** — terjimeçi

**peshvoz chiqmoq** — önünen çykmak

**amaldor** — ýokary wezipely döwlet  
gullykçysy



## 11- §.

45- **mashq.** «To‘garak (sport seksiyasi) mashg‘ulotida» mavzuida hikoya tuzing.

Sifatdosh otlashganda turlanadi. Masalan: *yig‘ilganlar* (ýygylanlar), *kelganlar* (gelenler). Sifatdosh egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanganda shaxsni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan: *kelganimni biladi — meniň gelenimi bilýär.*

Sifatdosh egalik qo‘shimchasi bilan ishlatiladi. Masalan:

<i>intilganimning</i>	<i>intilganimizning</i>
<i>intilganingning</i>	<i>intilganingizning</i>
<i>intilganining</i>	<i>intilgan(lar)ining</i>

Sifatdosh egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan ham ishlatiladi. Masalan:

*intilganim — ymtylanym*  
*intilganimning — ymtylanymyň*  
*intilganimni — ymtylanymy*  
*intilganimga — ymtylanyma*  
*intilganimda — ymtylanymda*  
*intilganimdan — ymtylanymdan*

46- **mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni qo‘llab, savol-javoblar tuzing.

**Namuna:**

- *Bajarganim xatomi?*
- *Yo‘q, bajarganing xato emas.*

Foydalanish uchun fe‘llar: *yashamoq, g‘ijimlamoq, buramoq, yengmoq, ishonmoq, pishirmoq, shug‘ullanmoq, yasatmoq, o‘rgatmoq, buklamoq, chizmoq.*

47- **mashq.** Darslik oxirida berilgan lug‘atdan «Mehnat» mavzuidagi so‘zlarni o‘qing, yangilarini eslab qoling.

48- **mashq.** Quyida berilgan so‘z va so‘z birikmalarini turkman tiliga tarjima qiling.

**Namuna:** *Bajarganga — kimga? — Bejerene — kime? Yaraqalayotgan narsaga — nimaga? — ýalpyldaýan zada — nämä?*

Payqaganni, payqaganda, payqagan bilan, payqaganga, payqaganning, payqagan haqida; erishganning, erishganga, erishgan bilan, erishgandan, erishganni; qizigan narsani, qizigan narsaning, qizigan narsaga, qizigan narsadan, qizigan narsa bilan, qizigan narsa uchun, qizigan narsa haqida; qizdirganning, qizdirganni, qizdirganga, qizdirganda, qizdirgandan, qizdirgan bilan.

**49- mashq.** «Ustaxonada», «Korxonada», «Dastgoh oldida», «Mulq nima?» mavzularida soʻzlashga tayyorgarlik koʻring.

**50- mashq.** *Asbob, dastgoh, mahsulot, xarajat* soʻzlari bilan soʻz birikmalari tuzing.

**18- topshiriq.** Maqollarni oʻqing. Mazmunini tushuntirib bering.

Aql aqldan quvvat olar.

Aql bozorda sotilmas.

Aqlli oʻzini ayblar, aqlsiz — doʻstini.

Ahmoq doʻstdan aqlli dushman yaxshi.

Betga (yuzga) aytganning zahri yoʻq.

Befoyda soʻzni aytma, foydali soʻzdan qaytma.

Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.

Bir mayizni qirq kishi boʻlib yeydi.

Botirdan oʻlim ham qoʻrqar.

Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib.

Yomonning yaxshisi boʻlguncha, yaxshining yomoni boʻl.

Jahl kelganda aql ketar.

Intizomli lashkar yengilmas.

Ip qancha uzun boʻlmasin, baribir uchi topiladi.

Dangasaga ish buyursang, senga aql oʻrgatar.

Yoʻqolgan pichoqning sopi oltin.

Kerakli toshning ogʻirligi yoʻq.

Kiyimning yangisi yaxshi, do'stning eskisi.

Ko'za kunda emas, kunida sinadi.

Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.

Ko'pdan quyon qochib qutulmas.

## 12- §.

51- **mashq.** «Kiyimlar do'konida», «Xo'jalik mollari do'konida» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Buning uchun «O'zbekcha-turkmahcha lug'at»ning «Uy-ro'zg'or buyumlari», «Kiyim-kechak, zeb-ziynat» qismlaridagi so'zlarni o'qib, kerakli so'zlarni ajrating. Yangi so'zlarni eslab qolishga harakat qiling.

52- **mashq.** *Aynimoq, g'ijimlanmoq, kirishmoq* so'zlari ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

### Sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalar

Zamoni	Qo'shimchasi	Misollar
O'tgan zamon	<b>-gan (-kan,-qan)</b>	<i>qizigan temir tekkan o'q chiniqqan bola</i>
Hozirgi zamon	<b>-ayotgan, -yotgan</b>	<i>turayotgan bemor qaynayotgan suv</i>
Hozirgi-kelasi zamon	<b>-adigan, -ydigan</b>  – ar, -r – uvchi, -vchi	<i>tovlanadigan tosh boshlaydigan vaqt oqar suv qatnovchi avtobus</i>

Sifatdosh **-adigan, -ydigan** qo'shimchalari yordamida hosil bo'lganda, shaxsni yoki predmetni odatda bajaradigan ish-harakatiga ko'ra tavsiflaydi. Masalan: *go'sht sotadigan sotuvchi* — (*adatça*) *et satyän satujy, (et satyjysy)*; *26- marshrut bo'yicha yuradigan avtobus* — 26-njy marşrut bo'yuncha yöreyän awtobus

Bunday sifatdosh hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe'llarga (III shaxs birlik) **-gan** qo'shimchasini qo'shib hosil qilingandek bo'ladi. Masalan: *o'tadi* — *o'tadigan, tishlaydi* — *tishlaydigan*.

Eslatma: Odatdagi harakatiga ko‘ra predmet nomi hosil qilingan-da **-r, -ar** qo‘shimchalaridan foydalaniladi. Masalan: *tez yurar, muz yorar* kabi.

– **adigan, -ydigan** qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘lgan sifatdosh shaxsni kelasi zamonda, ya‘ni nutq jarayonidan keyingi harakatga ko‘ra ham tavsiflaydi: *keladigan mehmon — geljek myhman*.

– **adigan, -ydigan** qo‘shimchalari o‘rnida **-(u)vchi** qo‘shimchasi ishlatilishi ham mumkin: *suzuvchi qushlar — yūzyān gyslar*.

**53- mashq.** Bir nechta fe‘ldan **-adigan, -ydigan** qo‘shimchalaridan biri yordamida sifatdosh hosil qilib, o‘tli birikma holida ayting va yozing.

**54- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

*Namuna: qush, sayramoq*

– *Senga qanday qush kerak?*

– *Menga sayraydigan (sayramaydigan) qush kerak.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘ti, gapirmoq; kaltak, sinmoq; soya-bon, yig‘ilmoq; chit, g‘ijim bo‘lmoq; balchiq, davolamoq; po‘lat, zanglamoq; shabada, mayin esmoq; qo‘rg‘oshin, erimoq; arqon, uzilmoq.*

**55- mashq.** «Hayvonot bog‘ida» mavzuida hikoya tuzing. Hikoyangizda sifatdoshlarni qo‘llang.

**56- mashq.** Berilgan gaplardagi **-ydigan, -adigan** qo‘shimchasini olgan so‘zlarni toping. Ma‘nosini ayting.

1. Qushu jonivorlar, maysa-giyohlar tilini biladigan odamni ko‘rganmisiz? 2. Samolyotning ikki tomonida aylanadigan parraklari bor edi. 3. Sherzod sayraydigan qush boqishni yaxshi ko‘radi. 4. Ko‘zni qamashtiradigan yam-yashil quyuc yaproqlar orasida no‘xatday, ko‘ksultunday ko‘sakchalar ko‘zga tashlanadi. 5. Qayin po‘stlog‘idan qo‘li gul ustalar qo‘ziqorin va rezavorlar solinadigan savatchalar to‘qishadi.

**57- mashq.** Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

1. Adham mehmonlarga ayt... so‘zlarini qog‘ozga yozib oldi. 2. Buvam

parovoz remont qil... zavodda o'ttiz besh yil ishlaganlar. (*M.Murodov*)  
3. Bobom ko'p gapir... kishini aslo yoqtirmaydilar. 4. Tog' soylarida uchra... baliqlar juda ham mazali bo'ladi. (*G'.Jo'rayev*) 5. Bolalar to'garaklarida qilin... ishlarni aniqlab oldilar. 6. Dadamning Gazlida ishla... do'stlari bor.

## 13- §.

**58- mashq.** «Milliy zeb-ziynatlar», «Nikoh to'yi» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Buning uchun ilovadagi lug'atning «Kiyim-kechak, zeb-ziynat» qismidagi so'zlardan foydalaning.

**59- mashq.** *Bilaguzuk, zirak* so'zlarini qatnashtirib, so'z birikmalari tuzing.

**60- mashq.** So'z birikmalarini turkman tiliga tarjima qiling.

Intilgan kishi, qog'ozni g'ijimlayotgan bola, tovlanadigan buyum, sinaydigan asbob, qatnaydigan avtobus, yashar edi, yashamas edi, chuvalar edi, chuvalmas edi, payqardi, payqamasdi, bitirganlar, yaratganlar, tejayotganlar, ortadiganlar, orqalaganning, yayraganlar haqida, intilib, intilsa, g'ijimlasa, yaratish, yaratishni, yaratishga, sinashda, sinashdan, sinash haqida, sinash uchun.

**61- mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimcha qo'shib o'qing va ko'chiring.

1. Kamalak — yorug'likning atmosferadagi yomg'ir tomchilarida sinishi, qaytishi, difraksiyasi natijasida yuz ber... optik hodisa. 2. Kanop ekil... yer kuzda 27-30 sm chuqurlikda haydaladi. 3. Ipak bir-biriga yopish... ikki toladan iborat. 4. Bodroq — makkajo'xori yoki bug'doydan tayyorlan... taom. 5. Bodroq tayyorlash uchun makkajo'xori doni qizdiril... qozonga solinib, quruq qovuriladi. 6. Dastgoh — ishlan... buyumlarni mahkam ushlab tur... moslama. 7. Chumchuqdan qo'rq... tariq ekmas. (*Maqol*) 8. Gulni sev... — tikanni ham sevadi. (*Maqol*) 9. Kunda kel... mehmonning qadri yo'q. (*Maqol*)

**62-mashq.** Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ugran otly. 2. Sorap duran yolog'cy. 3. Diñleyän oqlan. 4. Ýöreýän awtobus. 5. Oturdulyp goýulanlar. 6. Gorayıany. 7. Üwäne. 8. Başyndan geçirenden. 9. Aýdym aýdasy gelyär. 10. Diñläsi gelmeyär. 11. Aýdyp berene (sözlöp berene). 12. Dolandyryän.

63- **mashq.** Tarkibida q, h, g' undoshlari, o' unlisi bo'lgan so'zlarni o'qing va ko'chiring.

Tanqid, ipak, dastgoh, jo'nadi, xirmon, qayiq, korxonona, hosil, qarmoq, mahsulot, mix, zarar, nasihat, do'q, ishtirok, hadya, g'alaba, g'oz, yonmoq, o'rnatdi, ezmoq, tingladi, to'ntardi, shakl, yapaloq, yaqqol, cho'ziq, qotdi, o'zlashdi, o'rnashdi, yupqa, sedana, kurmak, ilik.

19- **topshiriq.** «Tong» she'rini ifodali o'qing.

## TONG

### I

#### *Uyg'un*

Bugun erta turib tongni ko'rdim,  
Oq shohi ro'moli boshida.  
Ufq kiyintirib, go'zal falak  
Sochini taraydi qoshida...  
Suqlanib qaradim tongning yuziga:  
Bir qarashda oppoq shohiga o'xshar,  
Bir qarashda marmar, bir qarashda zar,  
Bir qarashda esa sadafga o'xshar.  
Tong ajoyib bir payt, tengi yo'q husn,  
Go'zal tabiatning dilbar lavhasi..  
Yil — kitob, har kunduz undan bir varaq,  
Tong esa varaqning gul sarlavhasi.  
Tabiat saharda misli bir g'uncha,  
Tong esa g'unchanning ochilgan chog'i.  
Yoki taxmin qiling: tabiat bir qiz,  
Tong esa u qizning marmar yonog'i.  
Tongning tasviriga rang bisotidan,  
Eng yorqin, eng go'zal mato sayladim.  
Chunki tong saodat va nur keltirar,  
Unga ilhomimni hadya ayladim.

### II

Xo'rozlar qichqirdi uzoq-uzoqdan,  
Ohista bo'zardi kechanning tusi.  
Ming xil jilva bilan ko'tarildi tong  
Go'yo qanot yoydi eram tovusi.

Tongni ko‘rib hissim, hayajonlarim,  
 Bahor qushlariday qanot qoqdilar.  
 Ajoyib lavhalar, soz manzaralar,  
 Tovlana-tovlana, sekin oqdilar.  
 Tong qushlari kuylab sevgidan, baxtdan,  
 Dilga ezgu bir o‘t yoqib o‘tdilar.  
 O‘ynoqi shabadalar: «Yur biz bilan» deb,  
 Derazalarimni qoqib o‘tdilar.  
 Boshimni chiqarsam, derazamdan men,  
 Ular sochlarimni silab o‘tdilar.  
 Ketar chog‘larida so‘nggi yulduzlar,  
 Egilib yuzimga qarab o‘tdilar.  
 Men esa kuzatdim tongni baxtiyor,  
 Sevinch jo‘sh uradi chalgan kuyimda.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. She‘rni ifodali o‘qing.
2. Nima uchun she‘rga «Tong» deb sarlavha qo‘yilgan?
3. Tong otish payti manzarasi she‘rda qanday ko‘rsatilgan? She‘r asosida tong paytini rasm chizib tasvirlang.
4. Shoir badiiy ifoda vositalaridan qanday foydalangan? Misollar keltiring. She‘rning birinchi qismini yod oling.

### *She‘rga doir lug‘at*

**ufq** — gorizont

**falak** — asman

**suqlanib** — gyzganyp

**sadaf** — perlamutr

**zar** — altyn, tylla reŋkli

**marmar** — mramar

**misli** — g‘oyā

**yonoq** — duluk, yaŋak

**bisot** — goş, goş-golaŋ

## 14- §.

**64- mashq.** Darslikning oxiridagi lug‘atdan «Inson, uning ma‘naviy dunyosi», «Ijtimoiy hayot» mavzulariga oid so‘zlarni ko‘rib chiqing, yangi so‘zlarni eslab qolishga harakat qiling.

**65- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

### *Namuna:*

– *Boshing og‘rimayaptimi?*

– *Yo‘q, boshim og‘rimayapti (Bir oz og‘riyapti).*

**66- mashq.** «Isitma ko‘tarilsa nima qilish kerak?» mavzuida so‘zlab bering.

**67- mashq.** Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating. Bo‘g‘inga ajralmaydigan so‘zlarni izohlang.

Tinglamoq, qo‘riqlamoq, yanchmoq, egallamoq, yaratmoq, oshirmoq, band, dastgoh, ipak, egov, shakl, hosil, hadya, olam, jinoyat, asos, mukofot, hujum, ta‘til, o‘tin.

**68- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

*Namuna:*

– *Suv qanday ekan? Kimdan so‘ray?*

– *Suvga tushgandan so‘ra.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *taom yemoq, majlisda so‘zlamoq, beshik tebratmoq, sog‘liq tilamoq, vazifa topshirmoq, to‘r to‘qimoq, gul o‘stirmoq, yozishni o‘rgatmoq, jo‘mrakni buramoq, so‘ziga ishonmoq, misol yig‘moq, ot minmoq, ovqat pishirmoq, radio tuzatmoq, sabzi to‘g‘ramoq.*

**69- mashq.** Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni o‘qing.

1. Chol o‘g‘illarini chaqirib ... 2. Bolalar gullarni yaxshi ... 3. Ibn Sino tabib bo‘lib, ota-onasini va boshqa odamlarni davolashga ... 4. Majlisda ota-onalar bilan birga o‘quvchilar ham ... 5. Akmalning bayramda qat-nasha olmagani ...

Nuqtalar o‘rniga qo‘yish uchun so‘zlar: *nasihat qilmoq, ahd qilmoq, parvarish qilmoq, ishtirok etmoq, alam qilmoq.*

**20- topshiriq.** «Dunyoning ishlari» qissasidan berilgan parchani o‘qing.

## GILAMPAYPOQ

(«Dunyoning ishlari» qissasidan parcha)

*O‘tkir Hoshimov*

Har yili dam olishga borganimda onamga gilampaypoq olib kelaman, Kavkaz tomonda ko‘p bo‘ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o‘g‘li borligini aytib qo‘shnilarga maqtanadi. Uning oyog‘i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og‘riydi.



Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rasa, ularniyam yupatadi:

– Ha, endi keksachilik-da, o'rgilay.

Lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiynaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

O'shanda necha yoshdaligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan qorbo'ron o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitmam ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... Oxiri tomog'im xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmaymanu, nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitaladi:

– Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganini bilib turardimu, biroq yuzimga qor tushmayotgandek edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, og'ir hansirar edi.

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi:

– O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!

– Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim. Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib keta olmasdim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

– Nega tishlaysan, kuchukvoy? — dedi boshimni silab.

Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqqa ho'l edi. Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga

oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi:

– Voy, poshsha-a-a! Nima qip qo'yingiz, tamom bo'psiz-ku!

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

– Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! — dedi Hoji buvi boshini chayqab. — Shu ahvolda qandoq keldingiz?

Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi.

– Sarpoychang kelaverdingizmi? — dedi Hoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. — Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz.

Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

– Sovuq yegani yo'q,— dedi sekin.— Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

– Sezyapsizmi?

– Nimani? — dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.

Qo'limni sezmayapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi.

Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotdi. Dadam ataylabdan qarg'a otib keldi. Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi. Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo'lib qoldi.

Har yili dam olishga borganimda onamga gilampaypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, ketimdan uzoq duo qilar, birpasda hamma qo'shnilarga ko'z-ko'z qilib chiqardi, shundoq «mehribon» o'g'li borligi uchun maqtanardi. Shunda qor gupillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Hikoyada onaning qaysi fazilatleri ko'rsatilgan?
2. «Gilampaypoq» hikoyasi adib bolaligidagi qanday voqea bilan bog'liq?
3. Ona haqidagi hadis, maqol va hikmatlardan yod oling.
4. «Onam bilan faxrlanaman» mavzuida insho yozishga tayyorlaning.

### *Matnga doir lug'at*

**talmovsiramoq** – dūshūnmezlik  
**xitob** — du'guly a'dy's

**sirg'anmoq** — ta'ymak  
**hansiramoq** — agyr dem almak

**mudhish** — gorkunçly  
**noyob** — seýrek  
**shishmoq** — çişen  
**yupatmoq** — dynçlantyrmak  
**qizamiq** — gyzamyk  
**ko'kyo'tal** — gökbogma  
**bezgak** — gyzyrma,ysytma  
**isitma** — temperatura gyzgyn  
**mudhish** — gorkunçly  
**bo'g' ilmoq** — bogylmag (dem ýetmezden)

**vahima** — howsala  
**idrok etmoq** — özeleştmek  
**tizza** — dyz  
**chalqancha** — arkan  
**engashmoq** — egilmek  
**miya** — beýni  
**cho'loq** — agsak  
**azob** — azap  
**hushdan ketmoq** — özüňden gitmek

## 15- §.

**70- mashq.** Darslikning oxiridagi lug'atdan «Tabiat», «Hayvonlar, qushlar, jonli mavjudotlar» mavzulariga oid so'zlarni o'qib chiqing, yangi so'zlarni eslab qolish-ga harakat qiling. *Cho'qqi, burgut* so'zlari ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

**71- mashq.** «Toqqa qor tushdi», «Chimyon tog'ida» mavzularida so'zlab bering.

**72- mashq.** Yangi so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing. O'qing. *Tashlamoq* ko'makchi fe'lining ma'nosi va qo'llanishiga e'tibor bering.

**Namuna:**

*g'ijimlamoq — g'ijimlab tashlamoq.  
U bir vaqt qog'ozni g'ijimlab tashladi.*

1. Shavkat qumg'onda suv keltirdi, qafasni yaxshilab tozalab tashladi. 2. U bog'ning hamma burchagini ag'dar-to'ntar qilib tashladi. 3. Qahramon xonaning eshik-derazalarini ochib tashladi. 4. Sartarosh sochining qolgan qismini ham olib tashladi. 5. Ukalari uni savollarga ko'mib tashladi.

**73- mashq.** Quyidagi fe'llarni *tashlamoq* fe'li bilan qo'llang.

Buzmoq, bo'lmoq, otmoq, gapirmoq, sochmoq, to'kmoq, urmoq, o'ramoq, qirqmoq, artmoq, yormoq, yirtmoq, tikmoq, chizmoq, cho'qimoq, egmoq, o'ymoq, ag'darmoq, buramoq, sepmoq, surmoq, taxlamoq, ekmoq, yulmoq, o'rmoq, qoqmoq, g'ajimoq, buklamoq, yoymoq, kovlamoq, oqizmoq, suvammoq, sug'urmoq, titmoq, chayqamoq, shoshirmoq, qiynamoq.

**74- mashq.** Quyidagi gaplarning fe'l-kesimini mumkin bo'lgan o'rinlarda *tashlamoq* fe'li bilan qo'llab o'qing.

1. Hamma yoqqa chiroyli xushbo'y gullar ekilgan. 2. Niyoz otam bizga anor ko'chatini keltirdi. 3. Dalaning tepasiga zag'izg'on in qo'yibdi. 4. Onam

tanchada isiriq tutatdi. 5. U beliga qavat-qavat qilib o‘ragan shohi belbog‘ini yechdi. 6. Sartarosh bolalarning sochini oldi. 7. Shamol nozik nihollarni egdi.

*21- topshiriq.* She‘rni ifodali o‘qing.

## BURGUT

*A. Oripov*

Yosh burgut uchmoqda ko‘kda shiddatkor,  
Kumush bulutlarning to‘zg‘itib parin.  
Uchmoqda qalbida mag‘rur ishonch bor,  
Qaqshagan qoyalar, cho‘qqilar sari.

Uchmoqda! Qayerga? Cho‘qqiga! Nechun?  
Burgutning shiddatin uyg‘otgan nima?  
Bo‘ronli dargohda ne kutar uni,  
Qudratli qanotin qo‘zg‘otgan nima?

O‘ynoqi shamollar ila basma-bas,  
Ana, qo‘ndi burgut eng yuksak joyga!  
Cho‘qqi uzra mag‘rur turdi-yu birpas,  
Yana bo‘ron misol qo‘zg‘oldi qayga?

Axir ne bo‘lardi bersang, tabiat,  
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!

*22- topshiriq.* Savollarga javob bering.

1. She‘rda nima haqda so‘z boradi?
2. Asosiy fikr ifodalangan gap qaysi?
3. Shoir nima demoqchi?

**75- mashq.** Berilgan fe‘llarga majhul nisbat hosil qiluvchi **-n, -in, -l** yoki **-il** qo‘shimchasini qo‘shib o‘qing va turkman tiliga tarjima qiling.

Sanamoq, jazolamoq, sinamoq, boshqarmoq, buklamoq, burmoq, bo‘g‘moq, yoritmoq, kuzatmoq, ortmoq, saylamoq, tejamoq, topshirmoq, unutmog, to‘qimoq, chaymoq, chayqamoq, ezmoq, yubormoq, yanchmoq, yaratmoq, o‘rnatmoq, o‘stirmoq, qazimoq, qutqarmoq, g‘amlamoq.

## 16- §.

**76- mashq.** «O‘zbekistonning iqlimi», «Qish manzarasi», «Issiqxonada» mavzularida so‘zlashga tayyorgarlik ko‘ring. Bunda «O‘zbekcha-turkmancha lug‘at»ning «Tabiat» qismidagi so‘zlardan foydalaning.

**77- mashq.** *Alomat, mo‘jiza, fazo, harorat* so‘zlarini qatnashtirib, so‘z birikmalari tuzing.

**78- mashq.** Berilgan so‘zlarga **-li** yoki **-siz** qo‘shimchasini qo‘shib o‘qing va turkman tiliga tarjima qiling.

Ayb, band, vijdon, zavq, zanjir, zarar, iroda, muvaffaqiyat, reja, tantana, qobiliyat, g‘ayrat, hayajon, ilm, istiqbol, madaniyat, tajriba, tarbiya, ta‘sir, farq, fojea, hunar.

**23- topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing.

### SUV BILAN SUHBAT

*Zafar Diyor*

– Hoy sen, jiyron toychamdek,  
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv.  
Dalalarga bayramdek,  
Guldan bezak taqqan suv.  
Quloq solgin so‘zimga,  
Nega buncha shoshasan?  
Qayerdan bu kelishing,  
Qirg‘oqlardan toshasan?

– Yaxshi bola, toychangdek,  
O‘ynab-kishnab kelishim.  
Qir, adirlar oralab,  
Shamol kabi yelishim.  
Ko‘rasanmu, hu o‘sha  
Oppoq qorli tog‘lardan.  
Shoshib oqib kelaman,  
Dalalardan, bog‘lardan.

– Yo‘l-yo‘lakay shildirab,  
Sen yoqimli kuylaysan.

Jilolanib, jildirab,  
Ne xususda soʻzlaysan?  
– Zarrin quyosh nuridan,  
Quvvat olib oʻynayman.  
U mehribon onaning  
Maqtovini soʻzlayman.

– Endi menga, toshqin suv,  
Aytgin, borar yeringni.  
Yomon boʻlmas, shoshqin suv,  
Gar bilsam manzilingni.  
– Borar yerim — manzilim,  
Cheksiz paxta konidir.  
Unutdingmi, azizim,  
Suv ekinning jonidir.

– Yaxshi, jiyron toychamdek,  
Oʻynab-oʻynab oqqan suv.  
Dalalarga, bayramdek,  
Guldan bezak taqqan suv.  
Unday boʻlsa, toʻxtama,  
Oʻynab-kulib oqaver.  
Gʻoʻzalarning koʻksiga  
Guldan bezak taqaver!

**79- mashq.** Savollarga javob bering.

1. Zobitlar qanday qadam tashlab yuradilar? 2. Siz yozda qanday ichimliklar ichasiz? 3. Saylovda qanday ovoz berib saylaydilar? 4. Bugʻdoyni qanday qilib unga aylantiradilar? 5. Siz tergan hosilingizni qayerga topshirasiz? 6. Koʻylakni tikishdan avval nima qilish kerak?

**80- mashq.** Nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzlarni qoʻyib oʻqing va yozing.

1. Oʻquvchilar mehnat ustaxonasida ketmon va belkurakka ... yasadilar. 2. Katta Fargʻona kanalini xalq ketmon va belkurakda ... tuprogʻini zambilda tashigan. 3. Modda va jismlarning atom zarrachalari oʻzaro ... zanjir hosil qiladi. 4. Oʻzbekiston chet mamlakatlarga paxta va ... tolasini sotadi. 5. Qizlar toʻgarakda ... tikish sirlarini oʻrganadilar. 6. Sutdan turli xil ... olinadi.

**81- mashq.** «Oltin kuz» mavzuida turkmancha hikoya qiling.

**82- mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib o'qing.

Ban., taro.i, das.goh, zan.ir, tegirm.n, s.m, xirm.n, sha.l, zam.il, ipa., ka.ta, ego., k.rxona, ma.sulot, m.x, .armoq, hos.l, egal.amoq, yara.moq, te.amoq, bi.moq, o.irmoq, kiri.moq.

**83- mashq.** «Qobiliyat nima?», «Loqaydlik nima?», «Yaxshi xulqqa nimalar kiradi?» mavzularida so'zlashga harakat qiling. Bunda «O'zbekcha-turkmancha lug'at»ning «Inson, uning ma'naviy dunyosi», «Sifat va ravishlar» qismlaridagi so'zlardan foydalaning.

**84- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

**1-namuna:**

- Ustaning ko'zi kimda?
- Ustaning ko'zi taxta arralayotganlarda.

**2-namuna:**

- Bog'bon gulni parvarish qilayotganda nimani o'ylaydi?
- Bog'bon gulni parvarish qilayotganda ularning yaxshi o'sishini o'ylaydi.

**85- mashq.** Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Men istiqloq tantanalarida ishtirok etdim. 2. Kattalarning nasihatini eshitsang, zarar qilmaydi. 3. O'ktamga o'rtoqlari bilan soyga bormagani alam qildi. 4. Biz nihollarni avaylab parvarish qildik. 5. Mansur katta olim bo'lishga ahd qildi. 6. Quruvchilar yangi maktab binosini bolalarga hadva qildilar.

**86- mashq.** Quyidagi fe'l shakllarini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Gatnaşyarys, gatnaşdyk, gatnaşyar; idettilar, idetyärin, idedersin, identmedi; sowgat edyärin, sowgat edyäris, sowgat edin, sowgat etsin, sowgat etmek; dabara etmek, dabara edyär, dabara edyäris, dabara etsinler, dabara edyärsiniz, dabara etdi, dabara etmediler.

**24- topshiriq.** Amir Temur o'gitlarini o'qing. Sharhlashga harakat qiling.

Ishbilarmon, mardlik va shijoat egasi, qarori qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y.

Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z sohibidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim.

Aqlli dushman johilu nodon do'stdan yaxshiroq.

Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.

Kurashib erishilmagan g'alaba g'alaba emas.

Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r — mingni.

Bo'lar odam yoshida bosh bo'lar, bo'lmas odam qirqida ham yosh bo'lar.

Bo'ridan qo'rqqan o'rmonga kirmaydi.

Dushmanning kulgani — siringni bilgani.

Dushmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq.

Og'zingga qon to'lsa ham dushman oldida tupurma.

Kechira olishlik — mardlik, kechira bilmaslik nomardlik sanaladi.

**25- topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Temur o'gitlarida nimalar haqida gapiradi?
2. O'gitlar kimlar uchun yozilgan?
3. Temur o'gitlarining qanday ahamiyati bor?
4. O'gitlardan siz ham xulosa chiqardingizmi?

### *O'gitlarga doir lug'at*

**ishbilarmon** — ga'ratly, dogumly,  
ish bil'yan

**tadbir** — çäre

**uzr** — ötünç

**shijoatli** — gujurly, guýçly

**munofiq** — ýalançy

**ranjimoq** — gownuñ galmak

**sipohiy** — esger

**loqayd** — perwaýsyz

**sohib** — eýe, hojaýyn

**o'git** — nesihat

**johilu nodon** — gödek, izgutsyz

**87- mashq.** Quyidagi so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasi asosida yozing.

Behad, mangu, yonma-yon, ola-bula, mag'rur, sergak, ravshan, yamamoq, yayramoq, g'ijillamoq, yaraqlamoq, intilmoq, tovlanmoq, to'zmoq, tarqamoq, chuvalmoq, kichraymoq.



88- mashq. Berilgan soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib yozing.

Yashirin, alamli, hosil, qayiq, dastgoh, zanjir, tegirmon, tejamoq, oshirmoq, egallamoq, yaratmoq, kirishmoq, tinglamoq, surishtirmoq, qizimoq, yanchimoq, oʻrgatmoq.

89- mashq. Oʻrtoqlaringiz kim boʻlmoqchi? Shu haqda gapirib bering.

90- mashq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Otrutdy, gyzdysyn, bardylar, gyzdyrylmak, gotayarlar, ugrayarys, diñleyär, tejribe etdiler, yerleşdirip, beryärler, gazanyar, dörederler, aşyar, dolandyryarsyñyz, ortun tutyarys, başlamak, gördi.

## 17- §.

Kelasi zamon maqsad feʼli (maksad ishlikleriniñ geljek zamany) ish-harakatning maqsadi maʼnosini ifodalaydi: Masalan: *U hozir dam olmoqchi.* — *Ol häzir dynç almakçy (dynç almak maksady bar).*

26- topshiriq. Oʻqing. -**moqchi** qoʻshimchasining maʼnosi va qoʻllanishiga eʼtibor bering.

U uchuvchi boʻlmoqchi. — Ol lyotçik bolmakçy.

— **moqchi** qoʻshimchasi soʻzlovchining maqsadini bildiradi.

*Men olim boʻlmoqchiman. Biz olim boʻlmoqchimiz.*

*Sen olim boʻlmoqchisan. Siz olim boʻlmoqchisiz.*

*U olim boʻlmoqchi. Ular olim boʻlmoqchi(lar).*

Kelasi zamon maqsad feʼlining boʻlishsiz shakli *emas* toʻliqsiz feʼli yordamida hosil qilinadi.

*Men soʻzlamoqchi emasman.* — Men geplesjek däl.

Ushbu feʼning boʻlishsiz shakli tustlanganda shaxs-son qoʻshimchalari *emas* toʻliqsiz feʼliga qoʻshiladi.

*Men bormoqchi emasman. Biz bormoqchi emasmiz.*

*Sen bormoqchi emassan. Siz bormoqchi emassiz.*

*U bormoqchi emas. Ular bormoqchi emas(lar).*

Feʼning boʻlishsiz shakli baʼzan qoʻshib aytiladi va yoziladi.

*Bormoqchimasman.* — Men barjak däl (barjak niyetim ýok).

91- **mashq.** «Mening orzuim» mavzuida hikoya qiling. Hikoyangizda fe'llarni kelasi zamon maqsad fe'li shaklida qo'llang.

92- **mashq.** «Qobusnoma»dan keltirilgan parchani o'qing.

## DO'ST TANLASH HAQIDA

(«Qobusnoma»dan)

Ey farzand, to kishi tirikdir, do'stsiz bo'lmas. Kishining do'stsiz bo'lganidan birodarsiz bo'lgani yaxshidir. Bir donishmanddan so'radilarki, «Do'st yaxshimi, birodar?» Donishmand dedi: «Do'st yaxshi».

Do'stlarning ishi to'g'risida o'yla, ularga hadyalar yubor va muruvvatlar qil. Chunki har kim do'stlarini yod qilmasa, do'stlar ham uni yod qilmas, oqibat u kishi hamisha do'stsiz qolur.

Hamma vaqt do'st tutmoqni odat qil, chunki har kishining do'sti ko'p bo'lsa, fazilati ko'payadi. Lekin yangi do'stni topganingda eski do'stdan kechma, ulardan yuz o'girma, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsin. Shunday deganlarki, yaxshi do'st kishiga ulug' davlatdir.

Yaxshi va yomon odamni bil, ikkoviga ham do'stlik qil. Yaxshilarga ko'ngil bilan, yomonlarga til bilan do'stlik qil. Ikki toifa senga do'stlik bilan qaraydi. Shunday vaqt keladiki, kishining hojati zarurat yuzasidan yomonlarga ham tushadi. Demak, bu ikki toifaning ham do'stligini hosil qil.

Aqlsiz odamlar bilan hargiz do'st bo'lma, aqlsiz do'st aqlli dushmanidan yomonroqdir. Aqlsiz do'st shunday ish qiladiki, aqlli dushman uni qila olmaydi. Olijanob, muruvvatli, ilimli, vafoli kishilarni do'st tutki, sen o'zingning muruvvating, shafqating, ilming bilan mashhur bo'lasan.

Bilgilki, do'st bo'lishga loyiq odamni ikki narsa bilan bilsa bo'ladi: Biri shuki, do'stiga tangdastlik yetishgan vaqtda, qashshoqlik vaqtida qudrati yetguncha undan yuz o'girmaydi, ikkinchisi — do'sti olamdan o'tgandan so'ng uning farzandlarini, qarindosh-urug'larini chaqirtirib, ularga yaxshiliklar qiladi va ba'zan do'stining mozoriga borib ziyorat qiladi.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Matnni o'qing, lug'at yordamida mazmunini tushunib oling.
2. Do'stlik va do'stlikni qadrlash haqida nimalar deyilgan?

3. Matnda ilgari surilgan g'oyani ayting.
4. Do'st tanlash shartlarini daftaringizga ko'chirib oling.

**93- mashq.** Berilgan so'zlarning qanday so'roqlarga javob bo'lishini ayting.

*Namuna: jinoyatga (nimaga?)*

Alamdan, tuhmatni, hadyaning, shaxdam, yashirin, do'q bilan, tantana uchun, saqichdan, ushoq haqida, mag'rur, soat sakkiz, yigirmanchi, o'ttizta, g'azab bilan, yaqqol, qiziyapti, qo'riqladi, sinaydi, tegirmon, yuk, jinoyatchi, tuhmatchi, cho'ziq, jizza, pashmak, qirq, elliginchi, oltmishta, o'tyapti, o'tdi, o'tsa, o'tar edi, o'tadi, o'tardi.

**94- mashq.** Qavslarni tushirib qoldiring, so'zlarni tegishli grammatik qo'shimchalar bilan qo'llagan holda gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. (Tong otmoq) yo'lga chiqdik. 2. Jahongir otasining qo'y (so'yimoq) ko'p ko'rgan. 3. ... ba'zi qo'ylar (yoyilmoq) terilarni hidlab, boshini yerga surkaydi. (*S.Barnoyev*) 4. Cho'l lolasini (termoq) bilan tugamaydi. 5. U ovqatlanib bo'lgach, o'tov atrofini (aylanmoq) chiqdi. 6. O'quvchilar orasida kim oshdiga (o'ynamoq) oz emas. 7. (Ayamoq) ko'zga cho'p tushar. (*Maqol*) 8. Bolasidan (ajralmoq) ona qo'ylar ma'rab, to'rt tomonga chopadi. (*S.Barnoyev*) 9. Cho'ponlar (qo'zilamoq) qo'ylarni to'plab, yana yaylovga haydaydilar.

**95- mashq.** «Farzand — oila ko'rki», «Ota-onani farzandning qaysi ishlari ranjitadi?» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Bunda «O'zbekcha-turkmancha lug'at»ning «Inson, uning ma'naviy dunyosi», «Ijtimoiy hayot» qismlaridagi so'zlardan foydalaning.

**96- mashq.** Quyidagi sinonim so'zlarni o'qing.

Foyda — naf, buyuk — ulug', xohlamoq — istamoq, hurmatsiz — beqadr, sira — hech — zinhor, xulq — fe'l.

Egalik qo'shimchasini olgan harakat nomi *bilan* ko'makchisiga birikib, bir ish-harakatdan keyinoq ikkinchisining boshlangan paytini anglatadi. Masalan: *Mirza suvdan chiqishi bilan sochiqqa o'ranib oldi.* — *Mirza suvda çykan dessine polotense bilen dolanyp aldy.*

**97- mashq.** Kun bo'yi qaysi harakatlarni biridan ikkinchisiga tez o'tib bardingiz? **Shular** haqida gapirib bering.

*Namuna: Men ertalab uyg'onishim bilan o'rnimdan turdim. Choy tayyor bo'lishi bilan dasturxonga o'tirdim...*

**98- mashq.** Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'ying.

O'choq atrofidagi tekis qumloqda qo'zichoq terisi tizib tashlangan. ... buning oti qorako'l. Eh-he, qancha qo'zichoqlar ... Demak, shuncha ...

Jahongirning fikrini oshpaz darrov uqib oldimi yoki asli tabiati shundaymi, barra go'shtni bo'la turib uni gapga soldi:

– Toy, bu terilarning hammasi tillo. ... hozir ajratish qiyin. Tuzda yotibdi. ... tuzi qotsin. O'ngiga ag'darib qo'yishsa ko'rasan. Oftob tekkach, yaltirab ketadi. Qaysi sur, qaysi ko'k, qaysi antiqa, ... bilinadi. *(S.Barnoyev)*

**99- mashq.** Berilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib o'qing va yozing. Bo'g'inga ajratilmaydigan so'zlarni izohlang.

Tingla, yanchma, ezib tashladi, himoya, hujum, oshirma, egalla, erishing, yaratdi, dastgoh, ipak, shakl, egov, qayiq, jinoyat, hadya, ahd, alam, nasihat, yapaloq, yashirin, qadrdon, cho'ziq, yaraqlaydi, ushoq, ichimlik, obinon, ilik, o'rama, qovurdoq, yamadi, g'ijimladi, yayra, tarqadi, ola.

**100- mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalarni qo'shib o'qing va ko'chiring.

1. Gapirganing — kumush, gapirmagan... — oltin. *(Maqol)* 2. Kiyimingni yangiligida saqla, obro'y...ni yoshlikdan. *(Maqol)* 3. Ishlagan... menga, o'rgangan... o'zingga. *(Maqol)* 4. Ukasi sevingan...dan yig'labdi. 5. Erkin aytgan...ni qilib, o'quvchilar xonasi tomon yo'l oldi. *(S. Barnoyev)* 6. Go'sht, yog', guruch, sabzi top..., qozon to'la taom pishirishdi. 7. Jahongirning yaylovga kelgan...ga uch kun bo'ldi. 8. Ish... bo'lmasin! 9. Bir kuni o'qishga otlanayotgan...da eshik qattiq taqilladi.

**27- topshiriq.** Hikmatlarni va she'rni o'qing.

## YUSUF XOS HOJIB HIKMATLARIDAN

*Abdurahmon Jomiy*

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlarga qo'l uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulug'ligini aniqlagan, bularning ikkalasiga ega bo'lgan sara kishilar uyg'unlikka erishadilar.

Odamda zakovat bo'lsa nafi kattadir, bilim o'rgangan kishilar aziz va qadrli bo'ladilar.

Zakovat va bilimning ochqichi tildir, odamni yorug'likka boshlovchi tilni o'rgangin.

Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi. Sen o'zingning eson-omonligingni istasang, tilingdan zinhor yomon so'zlarni chiqarmagin.

Odam so'z tufayli ulug'likka erishadi, podsho bo'ladi, ko'p va ortiqcha so'z esa yuzni yerga qaratadi.

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri — yaxshi fe'li, ikkinchisi esa ezgu so'zi.

Mendan senga kumush va oltinlar qolsa, sen ularni bu so'zlarga teng tutib almashmagin.

Butun odam sarf etsa ham unga agar mehnatin,  
Meva bermas tarbiya hech kishi bo'lsa noqobil.  
Paxsa devor tepasida qurib qolgan tikanak,  
Yog'in bilan hech ko'karmas, barg chiqarmas, yaxshi bil.

**101- mashq.** Nuqtalar o'miga zarur harfni qo'yib o'qing va ko'chiring.

Ma.rur (g, g'), qovurdo. (q, k), .rama (o', u), or.ala (k, q), qa.ardi (v, b), .isadi (k, q), yup.a (q, k), sha.dam (h, x), yapa.l.q (a, o), ya.ol (kk, qq), ç.ziq (u, o'), tu.mat (h, x), qayi. (q, k), .osil (x, h).

**102- mashq.** Berilgan so'zlarni egalik qo'shimchalari bilan o'zgartiring.

*Namuna: aytishganga — aytishganimga, aytishganingga, aytishganiga...*

Oshirganda, bitirganga, o'rnashganni, qotgandan, mingashganga, g'ijimlaganda, intilganning.

## 18- §.

**103- mashq.** «Mening akam harbiy xizmatda», «Mening akam chegarachi», «Mening akam harbiy uchuvchi», «Mening akam — bojxona xodimi» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Bunda lug'atning «Ijtimoiy hayot» qismidagi so'zlardan foydalaning.

**104- mashq.** *Qasam, talab, saf* soʻzlarini qatnashtirib, soʻz birikmalari tuzing.

Oʻzbek tilida egalik qoʻshimchasini olgan sifatdosh *uchun* koʻmakchisi bilan qoʻllanib, sabab maʼnosini anglatadi. Masalan: *ayrilmoq, ayrilgani uchun — aʻryrlmak, aʻryrlany uchun.*

Shu maʼnoda *uchun* koʻmakchisi **-dan** qoʻshimchasiga sinonim boʻlib keladi: *yeyilganidan.*

Koʻpincha sifatdosh boʻlishsiz shaklda boʻladi: *saylamoq, saylamagani uchun — saylamak, saylamany uchun.*

**105- mashq.** Quyidagi feʼllardan sifatdosh hosil qiling va *uchun* koʻmakchisi bilan qoʻllab savol-javoblar tuzing.

*Namuna: topmoq, artmoq*

– *Nima uchun doskani artmading?*

– *Latta topolmaganim uchun doskani artmadim.*

Tushunmoq, yanglishmoq; avaylamoq, sindirmoq; aytmoq, bajarmoq; toʻlamoq, oʻchirmoq; urmoq, xafa boʻlmoq.

**106- mashq.** Berilgan feʼllarni **-gani uchun** shaklida qoʻllab oʻqing va turkman tiliga tarjima qiling.

Aytishmoq, boʻgʻmoq, qutulmoq, gʻamlamoq, oʻgʻirlamoq, tuzmoq, tarqamoq, gʻijimlamoq, chuvalmoq, kuchaymoq, boʻrtmoq, qaramoq, yaraqlamoq, qismoq, qotmoq.

**107- mashq.** Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Meniñ gazananlarym. 2. Meniñ aʻydany. 3. Sen kim ücin ýyganyñ. 4. Ol kimden gorkan bolsa. 5. Ol kim bilen gelen bolsa. 6. Men kimi çagyran bolsam. 7. Biz çykanymyzda. 8. Men kömek edenim. 9. Siziñ görkezeniñiz.

**108 -mashq.** Savollarga javob bering.

1. Kech qolganimni koʻrdingmi? 2. Qoʻrqqaningni bilasanmi? 3. Bahor kelganini payqamadingmi? 4. Birinchi oʻrinni olganimizni eshitdingmi? 5. Otingni soʻraganimga hayronmisan? 6. Xafa boʻlganimni sezmandingmi? 7. Masalani tez ishlaganimga qoyilmisan?

**109- mashq.** Avval bir bo'g'inli, keyin ikki, so'ngra uch bo'g'inli so'zlarni o'qing va ko'chiring.

Ayb, ahd, tarqat, ola, mag'rur, uyat, his, jahl, havas, tola, surp, peshayvon, o'rindiq, ovut, zehn, qobiliyat, biqin, tingla, band, shakl, egov, ishtirok.

**110- mashq.** Sifatdoshni o'ziga bog'lanib kelgan so'zlari bilan birga tushirib qoldirib o'qing.

*Namuna:* Bo'g'irsoq ko'tarib kelgan bolalar bo'shagan lagan, likopchalarni ko'tarib, uy-uylariga ketishdi. (S.Barnoyev) — Bolalar lagan, likopchalarni ko'tarib uy-uylariga ketishdi.

1. Bu yilgi bahor kiradigan kechani o'zim o'sgan xonadonda o'tkazish uchun bordim. 2. Shoxlari yalang'och bo'lib qolgan shaftoli oldida yangisi turibdi. (*T.Malik*) 3. Oltin jilosi esini o'g'irlagan bu inson bolasi kindik qoni to'kilgan tuproqni la'natlash tubanlik ekanini tushunib yetmasdi. (*T.Malik*) 4. Daraxtning shapaloqdek bargi tilanchining uzatilgan ochiq kafti kabi titraydi. (*T.Malik*) 5. U daraxtning qurigan shoxini sindirdi. 6. Shifokor bemorning qon oqayotgan qo'lini bog'labdi.

**28- topshiriq.** S. Ahmadning «Ufq» romanidan berilgan parchani o'qing.

## UFQ

(*Romandan parcha*)

### VI

*Said Ahmad*

Oy chiqdi. Serbulut osmon xuddi siyoh sachragan zangori ko'ylakka o'xshardi. Hovli betidagi chuqurchalarda hosil bo'lgan ko'lmaklar beti oy-dinda shishadek yiltirardi.

Jannat xola yuraverib charchadi. Tinkasi qurib, odati bo'yicha ayvon labiga kelib endi o'tirgan ham ediki, eshikni kimdir juda sekin, jur'atsizlik bilan taqillata boshladi.

– Kim?

Eshik yana taqilladi-yu, hech kim ovoz bermadi.

Jannat xola hayron bo'lib, eshik yaqiniga borib yana:

– Kim? — dedi.

Javob bo'lmadi.

– Kim deyaqman?!

– Oching, oching, men.

Jannat xola titrab ketdi.

Jannat xola eshik halqasini qanday tushirganini bilmaydi. O‘g‘lining achimsiq hid buruqsab turgan bo‘yniga osilib, tinmay gapirardi:

– Voy, bolam, bolajonginam. Bormisan? Qayoqlarda qolib ketding? Yomonlar o‘lsin, yomonlarni qora yer yutsin! Ne-ne gaplarni tarqatishmadi. Bor ekansan, omon ekansan.

Tursunboy onaning gaplariga parvo qilmay, uning qo‘llarini bo‘ynidan olib tashladi-yu, orqasi bilan eshikni to‘sdi.

– Sekin, sekin, aya, birov eshitib qoladi.

– Eshitsin, eshitsin! Ne-ne gaplar qilishmadi. Ertalab boshimga tumonatni yig‘aman. Dadaginang bechora boshini ko‘tarolmay qoldi.

– Bo‘ldi, bo‘ldi!

Tursunboy eshik halqasini shoshib ildi-da, jonsaraklik bilan ichkari uyga qarab yugurdi. Jannat xola esankiraganicha uning orqasidan chopdi. Shoshib chiroq piligini ko‘tardi.

Tursunboy uy o‘rtasida qimirlamay turardi. Ona bolasining yuziga qaradi. Bu o‘sha Tursunboy mi? Yo boshqa odammi?

Ona qarshisida yuz-ko‘zlarini soqol bosib ketgan, ozib, qorayib, tanib bo‘lmas holga yetgan Tursunboy turardi. Uning yuziga ko‘pdan sovun tegmagan, to‘yib ovqat yemagan. Onaning yuragi jiz etib ketdi. Bitta-yu bitta bolasi-ya! Shu holga yetdimi? Yemay yedirgan, kiymay kiydirgan erkasi, shamolni ravo ko‘rmagan yolg‘izi shu ko‘yga tushdimi?

– Senga nima bo‘ldi, bolam?

– Qo‘yaver, aya.

– Qayerlarda yuribsan?

– So‘rama, so‘rama. Ovqating bormi? Qornim och.

Jannat hola hozir, hozir dedi-yu, bolasi oldidan ketmay unga tikilganча turaverdi.

– Ovqat deyapman, olib kelsang-chi!

Ona bo‘shashib tashqariga chiqdi. Nima qilishini bilmay oshxona eshigi oldida birdan xayol surib qoldi. Keyin qorong‘ida timirskilanib qozon tagida quyilib qolgan mastavani kosaga suzdi-da, yig‘lab-yig‘lab uyga olib kirdi.

– Bolam, shuni yeb tursang, hozir boshqa ovqat qilib beraman.

Tursunboy deraza rafiga o‘tirib, kosa chetidan ovqatni xo‘rillatib icha boshladi. Ona tik turganicha undan ko‘zini uzmasdi.



Tursunboy boshini ko'tarib onaga tanbehlovchi ohangda dedi:

– Kelganimni birov bilmasin!

– Qochganing rostmi?

Tursunboy darrov javob bermadi. Lablarini ancha paytgacha yalab turib dedi:

– Poyezddan qolib ketdim.

– Qochganing rost ekan-da?

– Ha. Gap tamom!

Onaning vujudi qaqshab ketdi. Tizzalarida darmon qolmay, sholchaga o'tirib qoldi. Ko'zleri jovdirab, birpasda kipriklari pipiradi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Tursunboyini qochoq deganda, Jannat xola ishonqiramagan edi. Ko'nglining bir chekkasida, bu gap yolg'on deb o'ylardi. Endi bu gapni bolasining o'z og'zidan eshitib, hushi boshidan uchdi. Butun istaklari, orzu umidlari shamolda to'zib ketgandek, kimsasiz cho'lu biyobonlarda qolib ketgandek, chorasiz bir ahvolda dunyo ko'ziga qorong'u bo'lib turardi. Yosh dumalab turgan ko'zlarini bolasiga qadadi.

– Kuch-quvvatdan qolgan otang ham qo'liga miltiq olib urushga bordi-ya! Bir oyog'ini urushda tashlab keldi-ya! Sen, shu gavgang, shu kuching bilan qochdingmi? Otangni tiriklay o'ldirding-ku! Meni adoyi tamom qilding-ku! Ertaga yurtning ko'ziga qanday qarayman? Dadang qanday qilib ko'chaga chiqadi? Shuni o'ylamadingmi?

Tursunboy dadasining frontdan qaytganini, bir oyoqsiz bo'lib kelganini eshitmagan edi. U uyga qaytarkan: «To urush tamom bo'lguncha yerto'ladami, o'radami kun kechiraman», degan o'yda edi. U qochishga qochib qo'yib, endi oftob ko'rmay yashashga ham rozi bo'lib qolgan edi. Dadasi kelgan bo'lsa endi uyda qololmaydi. Dadasining fe'lini biladi. Ertagayoq qo'lidan yetaklab chiqib topshiradi. Shu topda onasi: «Dadang bir oyoqdan ajrab keldi!» deganida, u seskanmadi ham, yuragi ham achimadi, aksincha, uning qaytib kelganidan ranjidi. Unga ota urushdan qaytib kelmagani durust edi. Uyda jon saqlab, kunduzi yerto'ladami, boloxonadami, shox-shabbalar orasidami yashirinib, kechasi tomorqada yotib kunini o'tkazardi. Endi rejasi buzildi. Ketishi kerak. Qayoqqa? Tursunboy shoshib so'radi:

– Dadam qani? Kelib qolmasidan ketay.

– Dada dema!..

– Kiyimlarimni topib ber. Ketaman.  
– Qayoqqa? Hech qayoqqa ketmaysan. Dadang kelsin.  
– Ikkovlarning bir bo‘lib meni tutib bermoqchimisalar?  
– Esingni yig‘, bolam. Ona o‘z bolasiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi.  
Maslahatlashib, biron chorasini topaylik. Axir dadang ko‘pni ko‘rgan odam.  
Bir maslahat chiqib qolar.

Tursunboy umidsiz qo‘l silkidi:

– Dadamni bilaman.  
– Bilsang bo‘pti-da. Jon bolam, gapimga kir. Egilgan boshni qilich kesmaydi, hali ham bo‘lsa, borib tavba qil. O‘zingni urushda oqla. Dadangni o‘zi borib uzr aytadi. Uning gapini yerda qoldirishmas. Hukumatga ko‘p ish qilgan odam. Gapi inobatga o‘tadi.

Tursunboy ko‘zlarida o‘t chaqnadi.

– Nima? Nima? — U o‘rta barmog‘ini peshonasiga no‘qib ko‘rsatdi.  
Tursunboy yana qo‘l silkib yuzini teskari o‘girdi.  
– Ketaman.

U qayoqqa borishni bilmasdi. Ona so‘rog‘iga javob topolmay, bo‘shagan kosaga qaragancha indamay qoldi.

– Kim senga joy beradi? Kim senga ovqat beradi? Qaroqchilik qilasanmi? Qay kovakka sig‘asan? Yaxshisi, gapimga kir. Dadang bilan tog‘a borib tushuntirib topshirsin. Deputat odam, gapini qaytarishmaydi. Tog‘aga yalinaman. Yig‘lab-yig‘lab yalinaman, jon bolam, dadang kelguncha ketma. Shunday qil, jon bolam, o‘rgulay bolam, yo‘q dema. Jannat xola shunday dedi-yu, shoshib hovliga chiqib ketdi. Katta samovarni ayvondan olib tushib suv quydi. O‘t tashladi. Oshxonaning orqasiga sovun olib borib, sochiqni behiga ilib qo‘ydi. Sandiqni ochib, Tursunboyning ko‘ylaklarini oldi.

– Yuvin. Soqollaringni qirib, boshqa kiyimlaringni kiyib ol. Juda kir bo‘lib ketibsan.

Ona tokchadagi qutichadan Ikromjonning ustarasini, oynakchani olib chiroq oldiga keltirib qo‘ydi.

– Mana, bolam. Bo‘la qol.

Tursunboy xontaxta oldida tiz cho‘kib oynaga qaradi. U o‘z aksini ko‘rib, birdan hayron bo‘lib qoldi. U rosa isqirt bo‘lib ketganini endi bilgan edi. Ilgarigi Tursunboydan endi faqat chaqnab turgan ikkita ko‘zgina qolgan edi.

Tursunboy soqolini olib bo‘lgach, oshxonaning orqasiga o‘tib ketdi. Tursunboy yuvinib, kiyinib keldi. Uning diydoriga qarab ona yuragidan

boyagi vahimalar nari ketgandek bo'ldi. Tursunboy yangi, toza liboslarda begunoh, pokiza bo'lib ko'rinib ketdi. U kelishgan, yuzlari, ko'zlari yashnagan yigit edi. Shu topda ona ko'nglida ham mehr, ham tashvish, ham g'azab bor edi. Shu uch his orasida qolgan ona qalbi qay tarafga yon bosishni bilmasdi.

Tursunboy o'tirgan yerida mudray boshladi. Ona uning yonboshiga bolish keltirib qo'ydi. Tursunboy bolishni nari surib boshini qo'ydi-da, dam o'tmay uyquga ketdi. Ona uning ustiga ko'rpa tashlab, bosh tomoniga tiz cho'kkanicha yuragida bir dunyo tashvish bilan kiprik qoqmay tikilib o'tiraverdi.

Qop-qora osmonning bir cheti bilinar-bilinmas oqarib kelayotganini, saharxez xo'rozlarning olis-olislardan qichqirayotganini sezmedi. U hamon yolg'iz bolasining diydoriga to'ymay tikilardi.

Qalbi vayron bo'lgan, umidlari sovun ko'pigidek sassizgina o'chgan onaning xayollari so'ngsiz edi. Samarasiz edi...

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Ona dastlab o'g'lini ko'rganda nimalarni o'yladi?
2. Tursunboy nega o'z uyiga qo'rqinch bilan keldi?
3. Haqiqatni bilgan onaning ahvolini so'zlab bering?
4. Tursunboyning qilgan ishi to'g'rimi? O'z fikringizni bildiring.

**111- mashq.** Berilgan gaplardan kimning?, qaysi?, qanday? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni tushirib qoldirib o'qing.

*Namuna: Ekinning hosildorligi va hosilning sifati o'simlik naviga bog'liq. — Hosildorlik va sifat o'simlik naviga bog'liq.*

1. Ko'sak — ko'pchilik yopiq urug'li o'simliklarning quruq va ko'p urug'li mevasi. (*O'z.E.*) 2. Bir tovoq yovg'on bilan odamning qorni to'yadi. (*Tohir Malik*) 3. Quyoshning rango-rang ipak nurlari suv betida sho'x jilvalanar, daryo yuziga harir parda tashlab olgandek tuyulardi. (*H.Ikromov*) 4. Uning kunga qaragan derazalariga ufqdan endigina bosh ko'targan quyoshning shu'lasi tushib turibdi. (*H.G'ulom*) 5. Uning bu shirin xayolini Valijonning quvnoq ovozi buzdi. (*I.R.*)

**112- mashq.** «Mening kun tartibim», «Men sport bilan shug'ullanaman», «Men sevgan sport turi», «Sport davolaydi», «Bahor keldi» mavzularida so'zlashga tayyorgarlik ko'ring. Bunda lug'atning «Inson, uning ma'naviy dunyosi», «Fe'llar» qismidagi so'zlardan foydalaning.

**113- mashq.** *Asab, yelka, jahl, iroda, kuch* soʻzlari ishtirokida soʻz birikmalari tuzing.

## 19- §.

Oʻzbek tilida kelasi zamon maqsad feʼli *edi*, *boʻldi* feʼllari bilan birikib keladi. *Edi* feʼli ish-harakatni bajarish niyati nutq paytidan ancha ilgari paydo boʻlganini, *boʻldi* feʼli ish-harakatni bajarishga boʻlgan istakning qatʼiy ekanligini anglatadi. Masalan: *qazimoqchi edi* — *gazjakdym (gazmak maksadym bardy)*, *aytmoqchi boʻldi* — *aytmagy karar etdi*.

**114- mashq.** Savol-javoblar tuzing.

**1- namuna:**

- *Kimni kutmoqchi edi?*
- *Ustani kutmoqchi edi.*

**2- namuna:**

- *Kimga yordam bermoqchi boʻldi?*
- *Oʻrtogʻiga yordam bermoqchi boʻldi.*

**115- mashq.** Feʼllarni noaniq shaklga keltirib oʻqing va koʻchiring.

*Namuna: qizdirganda — qizdirmoq.*

Oʻrnatgan, qatnayotgan, qoʻriqlaydigan, tinglamagan, himoya qilmayotgan, oshirmaydigan, bitirayotganlarni, boshqarganimni, erishganingga, yaramaganimda, tejamaganingni, kirishmaganimga, payqamaganimda, chaplanganlar, oʻrnatish, orqalashga, intilib, tarqamasdan, qutulish, gʻamlab, gʻamlamay.

**116- mashq.** Maqollarni oʻqing. Avval **-gan**, **-(a)yotgan** yoki **-adigan (-ydigan)** qoʻshimchasi boʻlgan, keyin **-sh (-ish)** qoʻshimchali, nihoyat, **-b (-ib)** yoki **-may** qoʻshimchasi boʻlgan feʼl shakllarini aniqlang.

1. Ajralgan — ajriqqa zor. 2. Ayrikganni ayiq yer, boʻlinganni boʻri yer. 3. Aytishga oson, qilish qiyin. 4. Zaxmat chekmay, rohat yoʻq. 5. Arpa ekan arpa olar, bugʻdoy ekan bugʻdoy olar. 6. Achchiq savol berib, shirin javob kutma. 7. Suv koʻrmay, etik yechma! 8. Egilgan boshni qilich kesmas.

**117- mashq.** Nuqtalar oʻrniga mos egalik qoʻshimchasini qoʻshib oʻqing va koʻchiring.

1. Sening olimpiadaga borish...ni eshitib, onang ham, men ham rosa suyungandik. 2. Xadicha uning toʻxtab qolgan...ni koʻrdi. 3. Qoʻlingizni

yuvgan...dan keyin ichkariga kiring, — dedi Janna Umidning orqasidan. (*Mirmuhsin*) 4. Nima, men uyda o‘tirish... kerakmi?! 5. Qaytish...da bir chelak suv olib kel. 6. Amaki, bu nima degan...? 7. Bilgan...ni qil!

*29- topshiriq.* H.Olimjonning «O‘rik gullaganda» she‘rini ifodali o‘qing va yod oling.

## O‘RIK GULLAGANDA

*Hamid Olimjon*

Derazamning oldida bir tup  
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar,  
Tongda aytdi hayot otini.  
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,  
Har bahor ham shunday o‘tadi.  
Qancha tirishsam ham u beor,  
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g‘ash,  
Xayolimni gulga o‘rayman.  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab-siypalab,  
Baxting bor, deb esadi yellar.  
Etgan kabi go‘yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.  
Men yurganda bog‘larga to‘lar,  
Faqat baxtni maqtagan ovoz.

«Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol,

Bunda tole har narsadan mo‘l,  
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrída hech gul ko‘rmay yig‘lab,  
O‘tganlarning haqqi ham senda.  
Har bahorni yig‘lab qarshilab,  
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup  
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

### *Savol va topshiriqlar:*

1. She‘rni ifodali o‘qing.
2. Har bahorda qanday voqea takrorlanadi?
3. Shoir o‘z xayollarini nimaga o‘raydi?
4. Shoir gullarning ko‘pligini yana nimalar bilan bog‘laydi?
5. «Umrída hech gul ko‘rmay yig‘lab...» misrasi bilan boshlanadigan bandni tahlil qiling.

### *She‘rga doir lug‘at*

**shabodda;** yel – yēñil şemal  
**qarshilamoq** — qarşylamak  
**kurtak** — düwünçek  
**roz** — syr, gizlin  
**siqqanicha** — nāçe sygsa  
**sig‘moq** — yerleşmek, sygmak  
**tole** — bagt  
**so‘ylamoq** — geplemek

**qurg‘ur** — şeytan  
**ilk** — ilkinji  
**sahar** — sāher  
**tot** — ýakymly ys  
**g‘ash qilmoq** — bahyllyk etmek  
**o‘ramoq** — dolanmak, oranmak  
**yakkash** — hemişe  
**silab-siypamoq** — sypalamak

## 20- §.

**118- mashq.** «Bahorgi ishlar», «Bahorgi ko‘katlar», «Ko‘k somsa», «Bahorgi taomlar» mavzularida so‘zlashga tayyorgarlik ko‘ring. Bunda lug‘atning «O‘simliklar», «Oziq-ovqat» qismlaridagi so‘zlardan ham foydalaning.

O‘zbek tilida *bormoq* ko‘makchi fe‘li yetakchi fe‘lga bog‘lanib, ish-harakatning boshqa shunday ish-harakat bilan baravar sodir

bo'lganini anglatadi. Masalan: *kuzatib bordi* — *Yanynda bardy, yozib bordi* — *yazyp bardy* (bir zadyñ dowamynda).

*Bormoq* ko'makchi fe'li ba'zan ish-harakatning miqdor va sifat jihatdan ortib borishini anglatadi. Masalan: *Shamol borgan sayin kuchayib bordi*. — *Şamal duran sayyn güyjedi*.

**119- mashq.** Darslikning oxirida berilgan lug'atdan «Fe'llar» qismini ko'rib chiqing, *bormoq* fe'li bilan birika oladigan fe'llarni ajrating.

*Namuna: eshitmoq — eshitib bordi.*

**30- topshiriq.** Pirimqul Qodirov asaridan berilgan parchani o'qing.

## YULDUZLI TUNLAR

*Pirimqul Qodirov*

Yigirma uch yoshli Humoyunning yigit yuragi kasallikni axiri yengdi. Oradan bir hafta o'tgach, u kasal ko'rishga kelganlarni o'rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so'ng otasini borib ko'rish uchun o'zi uydan chiqdi.

Bobur kutubxonaning xonai xosida qadimiy bir qo'lyozmani o'qib o'tirgan edi. Humoyun uning qarshisida tiz cho'kib:

– Men sizning iltijongiz bilan shifo topmishmen! — dedi.

– O'zinga kelganimdan beri xudodan tilaymenki, siz men uchun qilgan tasaddiqni dargohida qabul etmasin! Bu ulug' davlatni barpo etdingiz, ham-mamizning suyangan tog'imiz o'zingizsiz! Parvardigor bizga rahm qilsin!

– Mana, shukur, yuribmen-ku, o'g'lim. Hozirgi isitma-yu uyqusizlik menda bulturidan beri bor.

– Ruhoniylar: «Hazratim o'g'liga kelgan naqd ajalni o'zlariga oldilar», — deb ko'nglimga g'ulg'ula solmoqdalar!

– Sen nechun ularga ishonursen? Boshimizga og'ir kun tushganda shayxulislom menga o'z hukmini o'tkazmoqchi bo'ldi. Mana, xayriyat, tuzalib ketding. Agar o'shanda uning gapiga kirib, ko'hinur olmosini tasadduq qilsam, ruhoniylar g'olib chiqmasdimi? «Humoyunni biz qutqarib qoldik, podshohdan ham biz zo'rmiz!» deb tantana qilmasmidi? Seni bir umrga qarzdor qilib qo'ymasmidi?

– Ilohim, siz haqingizdagi karomatlari ham yolg'on chiqsin!

– Har qalay, sen bir narsani unutma. Ruhoniylar podshohning tepasiga

chiqib olsa, tamom! Samarqanddagi Abdullatifning inqirozi-yu, otaga qarshi qilich ko'tarishi shundan boshlangan.

– Toki tirikmen, bu o'gitingizni yodimdan chiqarmasmen!... Endi... hazratim, Saibhal chegarasida yana tajovuzlar bo'lmoqda emish. Men ertaga jo'nab ketay, ijozat bering.

Bobur hozir aytmqochi bo'lgan so'ziga alohida e'tibor talab qilib, bir lahza jim turdi.

– Humoyun, Bayda menga zahar bergandan beri hech o'zimga kelolmaymen. Qolgan kuchim ijodga yetsa ham xo'p gap. Endi davlat yukini sen yelkangga olmog'ing kerak. Mayli, Saibhalga borib, chegarani tinchitginu, o'ringga Hindubekni hokim qilib, darhol Agraga qaytgin.

\* \* \*

Yomg'ir fasli o'tib, osmon yana bulutlardan tozalandi, tunlar salqin bo'lib qoldi. Bobur uyqusiz tunlarda boqqa chiqar va yulduzlarni tomosha qilgisi kelib, osmonga qarardi. Lekin tanida isitmaning balandligidan osmondagi yulduzlar joyidan ko'chib, girdobga tushib aylanib ketayotganday ko'rinar, ko'ngli behuzur bo'lib, osmondan darhol ko'zini olardi.

Kunduz saroyda davlat ishlarini qilgan paytlarida goh shayxulislomni, goh nufuzli a'yonlarni uchratar, ular Boburga avvalgidan ham pastroq, egilib ta'zim qilishar, lekin o'lishi muqarrar bo'lgan bemorga qaraganday musibatli ko'zlar bilan qarashar, muomalalaridagi alohida muloyimlik ham shundan dalolat berar edi. Ularning e'tiqodiga binoan, Bobur o'z hayotini o'g'liga qurbon qilgan, shuning uchun Humoyun tuza-lib ketgan, endi ko'zga ko'rinmas ajal qilichi Boburning boshi ustida osilib turar edi.

Ochiq aytilmaydigan, haddan ortiq mayin gaplar, ta'zim tavozelar ostiga yashiriladigan bu mash'um ishonch Boburga juda og'ir ta'sir qilar, atrofida aylanib yurgan o'lim sharpasini uning o'zi ham sezganday bo'lar edi.

Mezon o'tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og'irlashdi. Biror joyida shish yoki yara yo'q, nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, uxlay olmaydi, rangi kun sayin so'lib boradi. Mavloni Yusufiy mamlakatning eng mashhur tabiblaridan uch-to'rttasini chaqirtirib maslahatlashdi. Bemorning tomiridan qon olib ko'rishdi, qoni rangi sog'lom odamnikidek tiniq emas, allanechuk iriganga o'xshab qolgan edi.



Tabiblar o‘zlari kengashib, «Malika Bayda bergan zaharning qonda asorati qolgan», degan xulosaga keldilar va qonni tozalaydigan dorilardan, anor suvidan ko‘proq berishni buyurdilar.

Lekin bu narsalarning hech biri kor qilmadi. Bobur holsizlanib yotib qolgach, Humoyunga chopar yuborishdi.

Humoyun kelsa, otasi o‘z xobgohida baland oq to‘shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo‘lib ketgan. Boburning bosh tomonida Xonzoda begim pat yelpig‘ich bilan uning yuzini yelpiyapti. Oyoq tomonida Mohim begim g‘am-g‘ussaga botib, haykalday beharakat o‘ltiribdi.

Humoyun tiz cho‘kib, otasining to‘shagini quchoqladi. Boburning ozg‘in qo‘lini o‘pib ko‘rishdi, so‘rashdi, so‘ng otasining bu ahvoliga o‘zi sababchi bo‘lganday yonib gapirdi:

– Nechun bizga bunchalik jon fido qildingiz, hazratim?

Bobur majolsiz tovush bilan:

– Sen buni o‘zingdan ko‘rma, — dedi. — Illat qonda emish. Bilmadim... Har qanday olov ham yonib-yonib axiyri bir kun... — Bobur «o‘chadi» demoqchi bo‘ldi-yu, lekin ayollarni ayadi: — alangasi pasayadi. Men umr bo‘yi ayovsiz yondim.

– Biz uchun ham kuyib-yongansiz! Endi bu qarzlarni uzishga mening butun umrim yetmagay!

– Qarzingni menga uzolmasang... farzandlaringga uzarsen...

Bobur to‘xtab-to‘xtab so‘zlayotgan bo‘lsa ham, ko‘nglidagi gaplarni ravon aytayotgani Humoyunni umidlantirdi. U otasining so‘zini bo‘lmay, jim quloq sola boshladi.

– Temuriylarning ko‘pchiligi... fidoyilikni unutib ... yo‘q bo‘lib ketdi. O‘g‘il otani o‘ldirdi. Og‘a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo‘ldi.. Undan ko‘ra... yaxshilikning fidosi bo‘lgan yaxshi emasmi?.. Mana, amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib, o‘zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo‘lishga undab keldi... Sen ham endi inilaringu... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o‘rgatgin.

Bobur to‘shakning orqa tomonidagi harir oq pardaning ortiga boshini burib qaradi. Parda ortida odam borligini Humoyun endi payqadi.

– Tohirbek, juzdonni keltiring, — dedi Bobur.

Shu vaqtgacha qimir etmay o‘tirgan Tohir endi tez o‘midan turdi-yu,

tokchadagi katta charm juzdonni ichida yangi muqovalangan qo‘lyozmasi bilan ikki qo‘llab ko‘tarib keldi.

– Badaxshonda, «Vaqoye’»ni so‘ragan eding, — dedi Bobur Humoyunga. — Mana, yozib tugatdim. Ol.

Tog‘lar orasida Boburning: «Bu kitob bitganda mening umrim ham tugagay!» — degani Humoyunning yodiga tushdi. U juzdon ichidagi kitobni olib peshonasiga surib o‘par ekan, ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Yirik bir yosh tomchisi zarhal muqova ustiga tomib tushganini Bobur ham ko‘rdi.

– Sendan iltimosim, — deb davom etdi Bobur. — Buni avlodlaring ham o‘qisin... xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo‘lsa, ko‘paytiringlar. Bu kitobdan nusxalar ko‘chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuboringin... Men tug‘ilgan yurt bilan aloqani uzmaglar, bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo‘lsa...

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Humoyun otasining kasalligiga nima uchun o‘zini sababchi deb biladi?
2. Boburning kasal paytidagi ruhiy holatini tasvirlab bering.
3. Bobur sog‘lig‘i haqida tabiblar qanday xulosaga keldilar?
4. Bobur o‘limi oldidan Humoyunga qanday vasiyat qildi? O‘sha o‘rinni qayta o‘qing.
5. Bobur «O‘g‘il otani o‘ldirdi» deganda kimni nazarda tutadi?
6. Eng oxirgi jummalarni o‘qing va mazmunini tushuntiring.

### *Matnga doir lug‘at*

**xonai xos; xobgoh** — yatalga,  
yatyan orag

**iltijo** — hayys

**dargoh** — koshg, oy

**Ko‘hinur olmosi** — Kohinur almazy

**karomat** — onundan chak edilen zat,  
keramat

**ruhoniylar** — ruhanylyk

**inqiroz** — pese dushme, dargama

**o‘git** — yagshy maslahat

**girdob** — girdap

**mezon** — mizan (gün yylynyñ  
yedinci aýyna dogry gelyär,

22 sentyabyrdan — 21 oktyabra  
çenli bolan period)

**qavs** — kaws (gün yylynyñ  
dokuzynjy aýynyñ ady)

**asorat** — kynlaşdyrma, agyrlaşma

**hazrat** — aly jenap

**majolsiz** — gowşak, ysgynsyz

**illat** — kesel, nahoşlyk

**razolat** — nejislik, namyssyz

**«Vaqoye’»** — «Babur-namanyñ»  
oñki ady

120- **mashq.** Savollarga javob bering.

1. Makkajo‘xori donini quruq qovurganda nima hosil bo‘ladi? 2. Sholi orasida nima o‘sadi? 3. Bozor non (obinon) ustiga nima sepiladi? 4. chegarachi postda qanday turadi? 5. Jinoyatchi nimani bo‘yniga oladi? 6. Chaqaloq qayerda yotibdi? 7. Qo‘yning kuzgi juni bosilsa, nima hosil bo‘ladi? 8. Gilam, palos ko‘paygandan keyin nimaga ehtiyoj kamaydi? 9. Simni nima bilan uzding? 10. O‘choqdan olovni nimada olding? 11. Shipda nima osig‘liq? 12. Ip nimaga o‘ralgan? 13. Talqon qilish uchun nima kerak? 14. Derazaga nima osilgan? 15. Qizcha sochini tarash uchun nimaga qarayapti? 16. Sen yostiqqa nima kiydiryapsan? 17. Ilgari suv nimada saqlanar edi? 18. Hamshira ukol qilish uchun bemorning bilagidan nimasini qidiryapti? 19. Bemor nima uchun ovqat yemayapti? 20. Gripp paytida kishida qanday holatlar yuz beradi?

121- **mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zlarni qo‘yib, gaplarni o‘qing.

1. Tog‘ va yo‘llar nur ... cho‘milar. (*M.Shayxzoda*) 2. Qalblarni yaxshilik ... qaratgin. (*M.Shayxzoda*) 3. ... bir chanoqli va ko‘p chanoqli bo‘ladi. 4. ... — amaliy bezak san‘atining bir turi. 5. ... ga qarshi naftalin ishlatiladi. 6. Shirinlik ...ni bo‘g‘adi, murch, garmdori ...ni ochadi. 7. Gripp tarqalgan paytda ko‘p odamlar ... bo‘ladilar. 8. Katta opamning o‘g‘li — mening yaxshi ko‘rgan ...im bu yil maktabga boradi. 9. ... tutatsa, xonadagi mikroblar o‘ladi. 10. ... oshni mazali qiladi. 11. U o‘tirib, shirin ... sura boshladi. 12. Cho‘chqatikan — ...ning bir turi. 13. Gulzorda rayhon va ...lar yoqimli hid taratib o‘sadi.

## 21-§.

O‘zbek tilida egalik qo‘shimchali sifatdosh *bilan* ko‘makchisiga bog‘lanib kelib, oldingi ish-harakatning keyingi ish-harakatning bajarilishiga to‘siq bo‘lmaganligi ma’nosini anglatadi. Masalan: *Erta qorong‘i tushgani bilan bolalar uyga shoshilmas edilar.* — *Irdengaraňky düşenine garamazadan oqlanlar öylerine gyssnma-ýardylar.*

O‘zbek tilida «-sa ham», «-sa-da» vositalari ham shunday ma’noni anglatadi. Masalan: Suv kam bo‘lsa ham, hosil mo‘l bo‘ldi. — Suwuň az bolanyňa garamazadan hasyl oňat boldy.

121- mashq. Gaplarni tugallang.

1. Kozim charchagani bilan... . 2. Uning puli oz bo'lsa ham... . 3. Mansur maktabga erta kelgani bilan... .

31- *topshiriq*. Oybekning «Na'matak» she'rini ifodali o'qing va yod oling.

### NA'MATAK

*Oybek*

Nafis chayqaladi bir tup na'matak,  
Yuksakda shamolning belanchagida.  
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o'shshaygan qoya labida,  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak.

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.  
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,  
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...  
Shamol injularni separ chashmadek,  
Boshida bir savat oq yulduz — chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum!

Tog'lar havosining firuzasidan,  
Mayin tovlanadi butun niholi.  
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,  
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. She'rni diqqat bilan o'qing. U sizda qanday taassurot uyg'otdi? She'r asosida rasm chizing.
2. Unda sizga tanish bo'lgan tasviriy vositalar bormi?
3. «Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...» misrasini tahlil qiling.
4. She'rda qarshilantirish (antiteza) usulidan qanday foydalanilgan?

## *She'rga doir lug'at*

<b>nafis</b> — nepis, nāzik	<b>fusun</b> — özune çekijilik, hayran galdyryjylyk
<b>inju</b> — dür, hünji	<b>poyida</b> — bir zadyň aşagynda
<b>chayqalmoq</b> — çaykalyp durmak, yranyp dyrmak	<b>ma'sum</b> — günäsir, neresse
<b>na'matak</b> — tikenli ýabany bāgūl	
<b>viqor</b> — agras, pāhimli	

### 22- §.

O'zbek tilida *ko'rmoq* ko'makchi fe'li ish-harakatning bir marta sinov uchun bajarilishi ma'nosini bildiradi. Masalan: *bog'lamoq* — *bog'lab ko'rdi* (*baglap gördi*), *yelimlamoq* — *yelimlab ko'rdi* (*yelmäp gördi.*)

**123- mashq.** Tajriba-sinov sifatida bajarilgan ish-harakatlarni ayting.

*Namuna: Rassom mo'yqalam bilan (kucmoçka bilen) ... chizib ko'rdi.*

Foydalanish uchun so'zlar: *montyor, yoqmoq; charxchi, kesmoq; futbolchi, tepmoq;*

**124- mashq.** Quyidagi gaplarning fe'l-kesimini *ko'rmoq* ko'makchi fe'li bilan qo'llang.

1. Bemor o'rnidan turdi. 2. Safar onasi olib kelgan yangi kostyumni kiydi. 3. U so'nggi kuchini sarflab olg'a yurdi. 4. Hech bo'lmasa, bir marta qilgan ishing haqida o'yla. 5. Tohir buzoqning qulog'idan asta ushladi. 6. Bu yerga podachi tashlab ketgan ipni olib, o'zining oyoq-qo'llarini bog'lagan.

**125- mashq.** Turkman tiliga tarjima qiling.

Chuvalla boshladi, yamay oladi, tarqay boshladi, botib ketdi, sug'urib oldi, unutib yubordi, chayqay ketdi, o'stirib yubordi, o'stirib yuribdi, yeyilib ketdi, unuta olmadi, so'zlay boshladi, to'sib turibdi, to'xtab yotibdi, to'xtab turibdi, kutib o'tiribdi, talab yotibdi, qo'rqib ketdi, tashlab yubordi, ayta olmadi, gapiraverdi, kavlab oldi, suvab chiqdi, ko'rib chiqdi, gapirib yuribdi, emaklay ketdi, o'ynab ketdi.

**126- mashq.** *Ko'rmoq* ko'makchi fe'li bilan birikib, ish-harakatni bajarish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash ma'nosini beradigan fe'llarni ajrating, ular asosida savollar tuzing.

Kichraymoq, ovutmoq, talamoq, alishmoq, boqmoq, buramoq, dumalamoq, yengmoq, yetmoq, ishonmoq, yiqilmoq, yig'moq, kuymoq, minmoq, oqmoq, pishirmoq, poylamoq, puflamoq, sachramoq, sepmoq, silamoq, surmoq, tashimoq, tugamoq, tuzatmoq, chertmoq, to'g'ramoq, sho'ng'imoq, ekmoq, elamoq, yulmoq, yasamoq, yasatmoq, o'rgatmoq, o'rmoq, o'tamoq, qayirmoq, qoqmoq, quvmoq.

**127- mashq.** Berilgan gaplarni *qanday?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar hisobiga kengaytiring.

1. Chiroq shu'la sochgani uchunmi, nazarimda, yaqinroq tuyulsa ham, yo'l yurdim. 2. Sobitning dadasi olma, pomidor, shaftoli, qovunlarni shu bozordan sotib oladi. 3. Hamma yoq maysa, shabada. 4. Ko'p yerlarda tunlarning kunduzday charaqlab ketganini ko'rgansan. 5. Ko'chaning nari-gi betida oyisi bilan kelayotgan bir bola barglar orasida gilosni ko'rди. 6. Iye, bolaning yig'lashini qara, — uyaltirdi chol. 7. Kelgusi yili terakning to'nkasidan novda chiqibdi. 8. Ikkita ko'chadan o'tib, paxsa devor oldidan chiqdim. 9. Soyga yetib kelishimiz bilan shabada yuzimizga urildi. 10. Qog'ozning ichida bir bog'lam mix bor edi. 11. Koptokni ko'rib Lolaning ko'zlari quvonchdan chaqnab ketdi. 12. Yomg'ir tingach, bulut orasida o'tob ko'rindi.

**32- topshiriq.** Cho'lponning «Xalq» va «Ko'ngil» she'rlarini ifodali o'qing.

## XALQ

### *Cho'lpon*

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq ofatdir, xalq o'chdir...  
Xalq qo'zg'olsa, kuch yo'qdirkim to'xtatsun!  
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsun.

Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,  
Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...  
Xalq istadi, ozod bo'ldi bu o'lka,  
Ketdi uning boshidagi ko'lanka.

Bir qo'zg'olur, bir qo'porur, bir qaynar,  
Bir intilur, bir hovliqur, bir o'ynar.

Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,  
O'z yurtini har narsaga to'q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,  
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

**Savol va topshiriqlar:**

1. Bu she'rda xalq nimalarga qiyos qilinadi?
2. «Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi, Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...» misralarini sharhlab bering.
3. «Xalq istadi, ozod bo'ldi bu o'lka, Ketdi uning boshidagi ko'lanka» misralarida qanday ma'no bor?
4. *Xalq* so'zining sinonimlarini eslang.

**She'rga doir lug'at**

isyon — gozgalañ

ko'pirmoq — möwç urmak

intilmoq — ymytlmak

hovliqmoq — gysanmak, tolgunlanmak

ko'lanka — kölege

saltanat — güyç, hökümdarlyk

**KO'NGIL**

*Cho'lpon*

Ko'ngil, sen munchalar nega  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?

Tirixsan, o'lmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsen.  
Kishan kiyma,  
Bo'yin egma,  
Ki sen ham hur tug'ilg'onsan!

**Savol va topshiriqlar:**

1. Shoir murojaatining mazmunini tushuntirib bering.
2. Nima uchun she'r «Ko'ngil» deb nomlangan?
3. Birinchi bandning mazmunini sharhlab bering.
4. «Kishan kiyma, Bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ilg'onsan!» misralarida qanday ma'no bor?

## She'rga doir lug'at

kishan — zynjyr, künde  
tuban — pes

sust — hayal, jansyz  
hur — erkin, azat

### 23- §.

O'zbek tilida ot-ko'makchilar **-ni** qo'shimchasi bilan birga qo'llanadi. Masalan: *ichini, ustini: javonning ustini art— shafayñ yokarky bölegini süpür.*

Shuningdek, o'zbek tilida ot-ko'makchilar mustaqil holda ham qo'llana oladi. Masalan: Yonimga o'tir. — Meniñ ýanymda otur. Orqangga qayt!— Yzyña gayt! Ichini och! — Içki bölegini aç.

**128- mashq.** Gaplarni o'qing, turkman tiliga tarjima qiling. Mustaqil qo'llangan ot-ko'makchilarga e'tibor bering.

1. Orqangga qayt. 2. Yonimga o'tir. 3. Orqasiga o't. 4. Ichiga sol. 5. Oldini to'sma. 6. Atrofini yig'ishtir. 7. Yoningga chaqir. 8. Orasida bo'l. 9. Tagidan ol. 10. O'rtasiga qo'y. 11. Tepasida tur. 12. Oldida o'tir. 13. Ustini art. 14. Ichini och. 15. Tagini chop. 16. Orqasini ko'rsat. 17. O'rtasini bo'shat.

**33- topshiriq.** Romandan parchani o'qing va tahlil qiling.

### JASUR QIZ

(Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan parcha)

Abdulla Qodiriy

Vaqt juda qiyinlik bilan o'tar, tashqarida «tiq» etgan tovush uni bir alang-latar edi. Bir xo'roz qichqirig'i o'tganiga talay vaqt bo'lsa ham, hamon Ra'no daraksiz. Yuragi siqilgan Anvar goh o'tirib, goh yonboshlar, sovuq-da muzlab ketgan mahsilik oyog'ini turli vaziyatga solib ko'rar edi. Shu azob ichida yana talay vaqt kechdi. Ma'shuqa mahbasiga tushgan Anvar o'ltirib chidolmadi. Kafshini kiyib, o'midan turdi, muzlagan oyog'ini isitish va og'riqqa kirgan a'zosini harakatlantirish uchun uy bo'yicha kezina boshladi. Necha vaqt sahn aylanib yana o'ltirdi. Oy ham bota boshlagan, chunki chetdagi daricha tirqishi orqali tushib turgan kuchsiz oydin izi ham yo'qolib, uyni qorong'ilik bosgan, tevarakda chalingan dovullarning «gum-gum» ohan-



gi ichida xo‘rozlar ikkinchi marta qichqirib yuborgan edilar. Ko‘kda turkum-turkum yulduzlar sayr etar edilar. Tom boshidan botishga yaqinlashgan oy nuri arang-arang ko‘zga chalinar edi. Anvar toza havo iskab, uzun nafas oldi.

– Zerikmadingizmi?

Qulog‘i ostidagi aytilgan bu so‘z Anvarni cho‘chitdi va o‘z yonida qo‘lida bir narsa ko‘tarib turgan Ra‘noni ko‘rdi.

– Ularni uxlatmay chiqolmadim... Uyga kiraylik, Anvar aka.

Yuragi orziqqan Anvar Ra‘noning orqasidan mashqxonaga kirdi. Ikkisi ko‘rpacha ustiga yonma-yon o‘ltirishdilar.

– Kitob ichidagi xatni payqamaysizmi, deb qo‘rqan edim, — dedi yarim tovush bilan Ra‘no. — Payqamasangiz...

– O‘zing hamma gapga tushuna turib, yana bunchalik achchiq yozganing nimadir, Ra‘no?

– Chunki shunchalik achchiq yozmasam, — dedi Ra‘no tovushida titroq ohang bilan, — siz kelmas edingiz... Siz ...Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko‘rasiz-a?

Anvar bu munosabatsiz savoldan bir oz hayron bo‘lib turdi.

– Tushunmadim ... Nima demakchisan?

– Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko‘rasizmi, deyaрман?

– Yaqinda mirzolikni tashlamoqchiman, Ra‘no.

– Mirzolikni tashlagandan so‘ng nima ish qilasisiz?

– Qo‘qondan ketaman, sayohat qilaman.

– Meni... meni ham o‘zingiz bilan olib ketmaysizmi?

Anvar yana tushunmadi. Ra‘noning yuziga ancha qarab turdi:

– Seni... senga mumkinmi, Ra‘no?!

– Mumkin! — deb qaltiradi Ra‘no, — Mirzoboshiliqni hozirdan e‘tiboran tashlasangiz mumkin...

Bu so‘z Anvarni ham qaltiratib yubordi.

– Nima deyapsan, Ra‘no!

Ra‘no bir necha vaqt javob berolmay turdi. O‘zini to‘xtatib olish, haya-jonini tindirish og‘ir edi.

– Haligi, haligi so‘zingiz chin bo‘lsa, men ham siz bilan ketishni xohlayman... Basharti sizga og‘ir oshmasam...

Anvar jim bo‘lib qoldi, tushiga ham kirmagan bu taklifga nima deyishini bilmay entikdi...

– Basharti sizga og‘ir oshmasam! — dedi takror Ra‘no.

«Jasur qiz!» deb o‘yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotinqizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish

edi. Anvar istiqbolda qanchalik mushkulot va xatar koʻrmasin, bu jasoratni xush qabul qilishga majbur, chunki muhabbatdan ham ilgari yigitlik taqozosi shu edi.

U oʻz yaqinida turgan qora tugunni ushlab qaradi.

– Bu nima, Raʼno!

– Bu... bu sizning eski kiyimlaringiz.

– Nima uchun bu?

– Basharti siz xohlasangiz.

Anvar paranjimi, deb chamalagan edi. Mantiqsiz bu javob uni shoshirdi.

– Xoʻp, sening rizolinging yoʻlida... — dedi Anvar yarim tovushda. —

Memng eski kiyimlarim senga nima darkor?

Raʼno javob berish oʻrniga uzun soʻlish olib yonidagi tugunini yecha boshladi.

– Paranji olmadingmi, axir?

– Hozir... — dedi Raʼno va qorongʻida bir narsalar qila berdi.

Paranji ham bordir, deb oʻylagan Anvar uni oʻz holiga qoʻyib turdi. Biror daqiqadan keyin Raʼno yerdan bir narsani tutib uzatdi, paranji kabi uzaygan narsa ichidan «taq» etgan bir narsa yerga tushdi.

– Topib oling shuni.

– Anvar yerni timirskiladi.

– Nima edi?

– Ayamga bergan omonatingiz.

Anvar tushgan narsa oltinlar ekanini payqadi, uzoqni oʻylagan Raʼnoga qarshi yuragida yana haroratliroq muhabbat sezdi.

– Topdingizmi?

– Topdim.

– Turing endi!

Anvar Raʼno bilan boshlashib hujradan chiqdi va oʻz yonida paranji yopingan qizni emas, telpak va toʻn kiygan yosh oʻspirin bir yigitni koʻrdi...

– Bu nimasi, Raʼno?

Raʼno javob berish oʻrniga yoʻlakka qarab yura berdi. Darvozani ochib koʻchaga chiqqandan soʻng, Anvar Raʼnoning oldiga tushib yoʻl boshladi va oʻzida yengillik his etdi. Chunki Raʼnoning yigit suratiga kirishi andozasi maʼqul; bemahalda paranjilik xotinni boshlab yurish mirshab va qorovullarda har turli shubha tugʻdirgani Anvarning oʻzi uchun ham oʻngʻaysiz boʻlar edi. Goʻyo bir oʻrtogʻi bilan ketib borgandek parvosiz koʻringan Anvar

burilishga yetganda o‘zidan o‘n qadam orqadagi hamrohini kutib turdi. Oy Anvar to‘xtagan muyulishga ko‘lanka kabi zaif nur sochar edi. Ra‘no Anvar yoniga yetib, «qayoqqa yuramiz», degan kabi bir yo‘lga va bir hamrohiga qaradi. Soch o‘rimlarini telpak ostiga bosib, to‘ni to‘pig‘i ustiga tushayozgan «yosh yigit» Anvarning ko‘ziga yana ham do‘ndiqroq ko‘rindi. Anvar Ra‘noning to‘nini bir oz ko‘tartibroq ushlatdi, onda-sonda telpagidan chiqib qolgan soch tolalarini yashirdi va «o‘ngga» degan ishora qildi. Ra‘no oldinda, undan ikki-uch qadam orqada Anvar yo‘lga tushdilar. Yengil bedona mahsisi bilan kala kafshi kichkina oyog‘iga juda ham kelishgan Ra‘no, go‘yo uchgandek tez yurib borar, orqada kelgan Anvar g‘oyai omolg‘a oshiqqandek undan qolishmaslikka tirishar edi. Uzoq yurdilar. Ellik qadam chamasi narida gulxan va gulxan tevaragida uch-to‘rt nafar kishilar ko‘rinib, Ra‘no to‘xtaldi.

– To‘xtama, Ra‘no, — dedi orqadan Anvar. — Sen pisand qilmagandek, parvosiz gulxan yonidan o‘ta ber, men ular bilan so‘zlashib qolsam, nariroqda kutib tur.

– Mirshablar bemahalda qo‘ymas emish-ku.

– Men bilan seni qo‘yar... qo‘rqmay boraver!

Ra‘no ikkilangansimon yo‘lga tushdi, gulxangacha o‘n qadam qolganda mirshablardan biri hayqirdi:

– To‘xta!!!

Ra‘no Anvarga qarab, taraddudlandi, Anvar yura berishga ishorat qilib, tezlik bilan gulxan yoniga yetdi. Anvarni tanigan mirshab va qorovullar ta‘ziman o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar.

– Qo‘zg‘almanglar! — dedi Anvar gulxanda isinib. — Dahboshi ham shu yerda ekanlar... Anvar «dahboshi» deb atagan yum-yumaloq kishi Qorunboy ismlik bo‘lib, mirshablarning qiziqrog‘i, shuning uchun undan «dahboshi» deb istehzo qilar edilar.

– Yoningizda besoqol bilan bemahalda nima qilib yuribsiz, taqsir? Odamzodga ishonib bo‘lmas ekan-da...

Anvar, «dahboshi»ning ko‘zi Ra‘noga tushib qolganini angladi. Gulxandan o‘ttiz qadamcha nariga borib to‘xtagan «besoqol» ga ko‘z qirini tashladi.

– Ziyofatda edik, dahboshi.

– Ha-a-a-a, men aytdim... Uy bu yoqda qolib, endi qayoqqa ketyapsiz, taqsir?

Anvar qo'lini yaqindan isitmoqchi bo'lib gulxan tarafga bir qadam bosdi.

– Eshitmadingizmi, hali?... men Rais ko'chadan ... yangi hovli oldim.

– Muborak, muborak!

Anvar qullug' aytib, ular bilan xayrlashdi. Mirshablar uning hurmati uchun qo'zg'alib qoldilar.

Gulxanchilardan ellik qadamlar uzoqlashgach, Ra'no Anvarning yetib kelishi uchun yo'l ustida to'xtadi.

– Nima deyapti u go'rso'xta?

Anvar hirlinglab kuldi va Ra'noning orqasiga qoqdi:

– Yur, yur yigitcha! Go'rso'xta to'g'ri aytyapti!

– Yetayozdikmi, qayerga boramiz?

– Yaqin qoldi, kechagi xotinning uyiga...

Ra'no oldinga tushib ketdi, uzoqqina so'zsiz borgandan keyin orqasiga qayrilib so'radi:

– O'zlari yaxshi odamlarmi?

– Yaxshi, yaxshi! — dedi Anvar va o'n qadam chamasi bordi.

– Sen uy egasidan qochib o'tirma, o'zi meni og'am...Tuzukmi, Ra'no?

– Xo'p. Yana biroz yurib, torroq bir ko'chaga burildilar. Sultonalining darvozasiga yetguncha ikkisi ham og'iz ochib gapirishmadilar.

### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Ra'noni kutayotgan Anvarning ruhiy kechinmasini tasvirlab bering.

2. Nima uchun Anvar ichida Ra'noni «Jasur qiz» deb o'yladi?

3. Ra'no nima maqsadda erkak kiyimini kiyib oldi?

4. Ra'no va Anvar timsolidagi qaysi o'rinlarda sevgiga vafodorlikni ko'rasiz?

5. Asarda tasvirlangan voqealar qaysi davrda yuz bergan?

6. Ra'no timsoliga tavsif bering.

### ***Matnga doir lug'at***

**orziqmoq** — gysmak

**haroratli** — gyzgyn, yhlasly

**mashxona** — okamak uchun otag

**o'ng'aysiz** — o'na'ysyz

**tindirish** — kōshe'dirmek

**ko'lanka** — kōlege

**og'ir olmoq** — gynanmak

**to'piq** — topuk

**chindan ham** — chyndan hem

**kafsh** — mili ayakgap

**mushkulot** — kynchylyk ploisiya'çy

**chamalamoq** — çenlemek

**dahboshi** — onbaşy

**pisand qilmay** — hasap etmezden,  
üns bermezden

**mantiqsiz** — manysyz

**rizolik (rozilik)** — pazylyk

**nariroq** — aňyrrakda

**omonat** — wagtla'yyn saklap  
bermek uchun berilen zat

**tevarakda** — daş tōwerekde

**timirskilamoq** — gōzlemek,  
sermenmek

hayqirmoq — gaty gygyrmak  
surati — edil

mirshab — polisyáçy  
go'rs'o'xta — g'ors'oxta

129- mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Birinji bölegini görkez. 2. Meniñ yzymdan yöre. 3. Meniñ öñümde dur. 4. Biziñ daşymyzy gurşap alyñ. 5. Ortada goý. 6. Ustünde goý. 7. Meniñ üstümde durma. 8. Meniñ ýanymda otur. 9. Menin ýanymdan git. 10. Meniñ ýanyma gel. 11. Indiki bölegini görkez.

130- mashq. Nuqtalar o'miga zarur kelishik qo'shimchalarini qo'shib o'qing va ko'chiring.

1. Sen... ko'ra raisdan so'rash kerak. 2. Mana shu... beri qancha yil o'tib ketdi. 3. Ertasiga ikki oshna Yangibozor qishlog'i... qarab yo'l olishdi. 4. Sen... buning ahamiyati yo'q. 5. Men... haqimda nima gaplar aytding? 6. U... orqasidan qarab qoldi. 7. Chayla... orqasiga eson-omon o'tib olsak, marra bizniki. 8. Bu odamni ko'p... buyon bilaman. 9. U... qarshisida ulkan daraxt turardi. 10. Bu taqinchoqlar sen... boshqa kimda bor? (*Oybek*) 11. Dadangga men... boshqa kuyadigan odam qolgani yo'q! (*A.Qahhor*) 12. Anvarning ko'z oldiga ammasi... boshqa hech kim kelmadi. 13. U... atro-fida kattakon bir parvona aylanib qoldi. 14. Sobir Javlon... yonidan o'tib zalga, undan yotoqqa kirdi. 15. Doktor chiqib ketgan... keyin Murod Ali holsiz ko'z ishorasi bilan Anvarni chaqirdi. (*A.Qahhor*) 16. Anvar borib ammasi... yoniga o'tirdi. 17. Haqiqatan, kech... tomon Murod Alining ahvoli og'irlashdi (*A.Qahhor*). 18. Marg'uba uni bemor... oldiga olib kirdi va eshikni qulflab oldi. (*A.Qahhor*) 19. Anvar bilan hech kimning ishi bo'lmay qoldi.

131- mashq. Avval ikki, keyin uch, so'ngra to'rt bo'g'inli so'zlarni bo'g'inlab o'qing va ko'chiring.

Burch, jamoa, taxt, isyon, hokimiyat, zulm, kuya, chang, hasharot, baroq, qoramol, tuya, zamburug', kon, yaylov, ko'kalamzor, alanga, kamalak, nav, sulii, chim, sho'ra, shakarqamish, chirmovuq, isiriq, ajriq, hajm, hissa, xususiyat, mash'al, qalb, miya, shapaloq, muhabbat, zehn, biqin.

132- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni -sh, -ish, -maslik hamda kelishik qo'shimchalari bilan qo'llab, gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. Qurmagur, savdo-sotiqni (uyushtirmoq) chechan. 2. Bu dengiz orqali (tashimoq) ancha arzon. (*Shuhrat*) 3. U loyni (bosmoq) harakat qildi.

4. Muattar nima (demoq) bilmay, Hakimjonga qaradi. 5. Marg'uba dugonasiga sira (aldamoq) so'z berdi. 6. Yurtimiz avtomobil sanoatini (rivojlan-tirmoq) katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 7. Sobira ertadan kechgacha sochini (taramoq) charchamaydi. 8. O'qituvchi intizomga rioya (qilmoq) ahamiyati haqida uzoq gapirdi. 9. Shifokor har kuni ikki mahal tish (yuv-moq) foydasi haqida so'zladi. 10. Muhabbat endi uni hech qachon (ko'rmoq) intiladi. 11. Haqiqatni (aytmoq) qo'rqma. 12. Sodir kattalar bilan (ay-tishmoq) o'ziga odat qilib olgan. 13. Men velosiped (minmoq) yaxshi ko'raman. 14. Bobongga (sezdirmoq) harakat qildi.

**34- topshiriq.** Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasini o'qib, mazmunini izohlab bering.

## O'G'RI

*Abdulla Qahhor*

*Otning o'limi, itning bayrami.*

*(Maqol)*

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qo-bil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqaqlaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi — burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib, teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og‘ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag‘ishlagan edi, bu so‘zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig‘lab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola ho‘kiz edi...

Odamlar, o‘g‘ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho‘kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to‘g‘risida bahslash-bahslash tarqaldi. G‘ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig‘idan to‘xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko‘rdi. Qobil bobo qo‘l qovush-tirib, uning ketidan yurar va yig‘lar edi.

– Yig‘lama, yig‘lama, deymen! Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa topiladi.

Ellikboshi ho‘kizni juda naqd qilib qo‘ydi. Go‘yo u ko‘chaga chiqsa bas — ho‘kiz topiladi. Bu «xudo yarlaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo‘lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma‘lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi? Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir yo‘qoldimi?

– Yo‘q... sigir emas, ho‘kiz, ola ho‘kiz edi.

– Ho‘kizmi?... Ho‘kiz ekan-da! Him... Ola ho‘kiz? Tavba!...

– Bori-yo‘g‘im shu bitta ho‘kiz edi...

Amin chinchalog‘ini, ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho‘kiz edi?

– Ola ho‘kiz...

– Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi?

– Qo‘sh mahali...

– Yaxshi ho‘kiz biron yetaklasa ketaveradimi?

– Bisotimda hech narsa yo‘q...

– O‘zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikan-a? — dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga ar-tib, — Suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho‘kizing» deganday bo‘lib ketdi.

Kam bo‘lmang, — dedi pulni uzatib, — yana xizmatigingizdaman.

– Yana hafta o‘tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiy-da, uch yelpishtovoq jo‘xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sak-kizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi:

– Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo‘lsa ham, Qobil boboning o‘zidan chiq-di. Yuzta tuxumni qo‘ni-qo‘shni, yor-birodarlar o‘zaro yig‘ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o‘tib bo‘lmaydi. Tilmoch tortiqni oldi va beto‘xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va‘da qildi. Cholning butun bo‘g‘inlari bo‘shashib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go‘rda bir narsa deya oldimi! «O‘ynashmagin arbob bilan — seni urar har bob bilan». Yaxshilab tushuntirilgan pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so‘m pulni ol-ganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, «beto‘xtov hokimga xabar bera-man» demasdan, «aminga bor», deb qo‘ya qoldi. Amin «ellikboshiga bo-rilsin», — dedi.

– Gumoningizni ayting bo‘lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo‘lib, — kim olganini men bilmasam! Olgan odam allaqachon so‘yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko‘nchilikka borib, terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko‘nchilikka tushgan bo‘lsa, allaqachon charm bo‘ldi; xudo biladi, kavush bo‘lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo‘ladi-da. Peshonam sho‘r bo‘lmasa... — dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho‘kiz odamning xunimi?



Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma‘lum bo‘ladi...

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Tong qorong‘isida turgan kampir nimaga dod soldi?
2. Ho‘kizi o‘g‘irlangan Qobil boboning ruhiy holatini tasvirlab bering.
3. Ho‘kizni topish uchun Qobil bobo va uning kampiri nimalar qilishdi?
4. Ho‘kizning yo‘qolishi kimlar tufayli Qobil boboga ko‘p qiyinchiliklar keltirdi va nima uchun?
5. Yozuvchi hikoyada qanday maqol va iboralardan foydalangan?

### **Asarga doir lug‘at**

**tortiq** — sowgat

**kurk tovuq** — kürk towuk

**yelpishtovoq** — uly agacdan  
yasalan tabak

**farangi** — fransyʼaly; ywropaly

**chinchaloq** — külembike barmak

**kulangir (kulankir)** — towuklaryñ  
iri görnüşi

**133- mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Kimden sorajagyny bilmadi. 2. Agdararyn diyip gorkdy. 3. Başga zatlar hakynda pikir etmejek boldy. 4. Dolandyrmaga päsgel beryär. 5. Göz yetirmek için. 6. Gaçmaga gyssanma. 7. Aytmaly boldy. 8. Çalşyrmaga kömekleşdi. 9. Gizläp yetişmedi. 10. Jogap bermezlige karar etdi. 11. Tygşytlamagy oñat görýär. 12. Suw saklamak için ulanýar.

**134- mashq.** *Qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlang, ularga -roq qo‘shimchasini qo‘shib o‘qing va ko‘chiring.

1. Chiroq boyagidan yorug‘ shu‘la sochyapti. 2. Hamma narsamiz bor edi-yu, ammo oziq-ovqat masalasi chatoq. 3. «Soy sayoz, — dedi tarbiyachi,— ammo tez oqadi». 4. Quyoning go‘sh tidan mazali go‘sh tidunydoda yo‘q. 5. Ba‘zilar o‘roqdan qochib o‘zini yengil ishga urar edilar. 6. Quyosh tikkaga kelganda dam oluvchilar salqin joyni qidira boshlaydilar. 7. Ertalab, qush uyqusi buzilmay, qiyshiq darcha qiyillab ochildi. (A. Dilmurodov)

**135- mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib, maqollarni o'qing.

1. Avval o'z aybingni bil, keyin boshqadan ... 2. Har kim ... o'rar. 3. Arqonning ..., gapning qisqasi yaxshi. 4. Aql yoshda emas, ... 5. Besh ... birini tishlasang, bari og'rir. 6. Besh qo'l (barmoq) ... emas. 7. Bilagi zo'r birni yiqar, ... zo'r mingni yiqar. 8. Bilim bilan hikmat - ... qimmat. 9. Bir kun avval eksang, ... oldin o'rasan. 10. Birovning noni ... og'ritar. 11. Davlat tugat, ... tugamas.

## 24- §

O'zbek tilida bo'lishsiz shakldagi harakat nomi otlashib, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi. Masalan: *bo'ysunmaslik* (bo'yunegmezlik) — *bo'ysunmasligingizga* ((bo'yunegmeyanligiñize).

**136- mashq.** Savol - javoblar tuzing.

**1- namuna:**

- *Istamasligimni bilasanmi?*
- *Ha, istamasligingni bilaman.*

**2- namuna:**

- *Topshirmasligimga ishonasizmi?*
- *Topshirmasligingizga ishonmayman.*

O'zbek tilida harakat nomi qabul qilgan **-ning** qo'shimchasi ba'zan tushib qolishi mumkin. Masalan: *rivojlantirishning rejalari* — *rivojlantirish rejalari*.

**137- mashq.** Harakat nomidan keyin so'z qo'shib gaplarni o'qing va ko'chiring.

**Namuna:** *Oshpaz ovqat pishirish haqida gapirdi. — Oshpaz ovqat pishirish san'ati haqida gapirdi.*

1. To'quvchi dastgohda atlas to'qishni oshirdi. 2. Respublika olimpiadasining ochilishida qatnashgan mehmonlar samimiy tilaklar bildirdilar. 3. Biz ko'chat ekishdan qanoatlandik. 4. Nima uchun suvli shishada quyosh nurlarini to'plash paydo bo'ldi? 5. Jismning issiqlikdan kengayishini bilasizmi?

Foydalanish uchun so'zlar: *sabab, marosim, tezlik, quvvat, tadbir.*

35- *topshiriq*. E.Vohidovning «Nido» dostonidan berilgan parchani o‘qing, mazmunini izohlang.

## NIDO

*Erkin Vohidov*

*(Dostondan parcha)*

### Bag‘ishlov

Hayqiraman,  
Tog‘lar bag‘ridan  
Gumburlagan sado keladi.  
Ona Yerning otash qa‘ridan,  
«O‘g‘lim!» degan nido keladi.  
«O‘g‘lim!»  
Vujudimni chulg‘ar alanga,  
Bo‘g‘zimga tiqilar hayajon.  
Mana men — o‘g‘lingiz, —  
Dardli olamga  
Sizdan tanho yodgor.  
So‘ylang, otajon!  
So‘ylang, bir daqiqa quloq solayin.  
Ovozingiz tinglab to‘yolmaganman,  
Bir marta yo‘qotib topolmaganman.  
Xayolimda tiklab olayin,  
Otajon!...  
Vujudim,  
Yuragimni yoqar o‘tli iztirob,  
Ammo ko‘zlarimda bir tomchi yosh yo‘q.  
Bag‘rim o‘yib,  
Bukun menga bermoqda azob,  
Sizning ko‘ksingizni teshgan qora o‘q.  
Silqib oqayotir  
Ko‘kragimdan qon.  
Qalbim o‘rtamoqda so‘ngsiz armonim...  
Yurak qonim bilan bitgan dostonim,  
Sizga bag‘ishladim,  
Otajon!  
Qadamlar,  
Qadamlar,  
Og‘ir qadamlar...

Etiklar zarbidan titraydi tuproq,  
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?  
Nahotki yo'llari shunchalar yiroq!  
– Ana, ko'ryapsanmi?  
Mening dadamlar!  
Dada!!!  
Ovozim hech chiqmaydi biroq,  
Yuguraman — ortga ketar qadamlar.  
Yig'layman — ko'zimga kelmaydi namlar,  
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!  
Bo'g'zimda alamlar,  
Achchiq alamlar,  
Yo'lning o'rtasida turibman.  
Shu choq —  
Poyezd qichqiradi.  
– To'xtang, odamlar!  
Qayga ketmoqdasiz?  
Qani dadamlar?!..  
Tepamda yonadi zangori chiroq...

\* \* \*

Cho'chib uyg'onaman,  
Onam qoshimda,  
Mehribon qo'llari  
Otash boshimda:  
– Nega yig'layapsan,  
Yolg'izim, qo'zim?  
Tun uzoq, uxlay qol,  
Ko'zlaringni yum.  
Orom ol, men senga  
Allalar aytay,  
Tongda peshonangdan  
O'pib uyg'otay...  
Hozircha orom ol,  
Yolg'izim, qo'zim.  
Tun uzoq, uxlay qol,  
Ko'zlaringni yum...  
Ellarning erk degani  
Sof tilagi deb,  
Jahonning nurafshon  
Kelajagi deb,

Ofat solmasin deb  
Olamga qotil,  
Otang uzoq yurtda  
Jang qilayotir.  
Sen uchun, men uchun,  
O'zi uchun emas,  
Faqat o'zbek va yo  
Rus uchun emas,  
Butun Yer — undagi  
Bor avlod uchun,  
Dunyoda eng qutlug'  
E'tiqod uchun.  
Uzoq o'lkalarda  
Qon kechib hozir,  
Otang hayot uchun  
Jang qilayotir.  
Sen uxla, yolg'izim,  
Sen uxla, qo'zim.  
Bir nafas orom ol,  
Ko'zlaringni yum.

Bu kunlar albatta  
O'tib ketadi,  
Bashar jarohati  
Bitib ketadi.  
Ona Yer qaytadan  
Yasharar bir kun,  
Olam nur qo'ynida  
Yashnar lolagun...  
Bu kunlar ketaru  
G'am, dog'i qolur.  
Yuraklarga solgan  
Firog'i qolur.  
Avlod-avlodlarga  
Zamon-zamonga,  
Abadiy-abadiy  
Sabog'i qolur.  
Sen ham unutmassan  
Yuragim, qo'zim,  
Hozircha tinch uxla,  
Ko'zlaringni yum.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Doston nima uchun «Nido» deb ataladi? Doston matni asosida tushuntiring.
2. Dostonning «Bag'ishlov» qismini qayta o'qing. Shoirning iztirobli xotirasini ifodalab bering.
3. Dostonning ona qiyofasi, mehri ifodalangan qismini qayta o'qing. Mazmunini izohlang.
4. Parchadan o'xshatish va sifatlashga misol topib, daftaringizga ko'chirib oling.

### **Dostonga doir lug'at**

**hayqirmoq** — gygymak (bütün sesiñe)

**tabarruk** — mukaddes

**nido** — ses, obaz

**chulg'amoq** — gujaklamak, guşamak

**iztirob** — köñül tolgunmagy

**gumburlamoq** — güpürdemek

**majruh** — maýyp edilen,

ýaralanan

**138- mashq.** Avval so'z birikmalarini, keyin yasama so'zlarni turkman tiliga tarjima qiling.

Ko'sak yetilganda, urug'li o'simliklar, nasldan naslga o'tadigan belgilar, suratni ko'rsatgach, ko'zlariga ishonmadi, chelak ichiga tashlangandan keyin, sho'rvaga o'xshamagan bir narsa, qayoqqa ketayotganini bilmagan edi, yoshi ellikdan oshmagan ishchining gaplarini eshitib.

Tegirmonchi, yukchi, qayiqchi, mixlamoq, yuklamoq, yukli, yuksiz, jino-yatchi, ishtirokchi, ishtirok etmoq, parvarish qilmoq, tuhmatchi, tuhmat qilmoq, zarar qilmoq, zarar keltirmoq, do'q qilmoq, ahd qilmoq, yaxlamoq, tepalik, aybli, aybsiz, ayblamoq, vijdonli, vijdonsiz, eslamoq, g'azablanmoq, his qilmoq, jihozlamoq, zehnlı, irodali, irodasiz, g'ayratli, qobiliyatli, vafot etmoq, maiza qilmoq, xayol surmoq, xurrak otmoq, ibratli, muvaffaqiyatli, alangali, alangalanmoq, changli, ozuqali, davriy, rejali, rejasiz, imloviy, ixtiro qilmoq, ixtirochi, savodli, savodsiz.

**139- mashq.** Nuqtalar o'miga **-gan, -(a)yotgan, -adigan, (-ydigan), -b(-ib), -may, -sh(-ish), -maslik, -gach, -sa** qo'shimchalaridan birini qo'shib, gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. Nega ketib qol...ini baribir tushunmadim. 2. U balkonning bo'yog'i ko'ch... ustuniga suyan... xayol sura boshladi. 3. Pastdan uch...ga tayyorlan... lochinga o'xshatibman-a! 4. Said unga kul... qaradi. 5. Xonasiga o't...da burchakdagi kiyim javoni ko'zgusi oldida bir zum to'xtadi. 6. Fanda o'rganil... hasharotlar soni 1 millionga yaqindir. 7. Onasi piyolaga qayna...

suv quyib berdi-da, belanchakni tebrata boshladi. 8. Temir konlari zaxirasi mln. tonna bo'l... kichik kon, 10 mln. tonna bo'l... o'rta kon, 100 mln. tonnadan ortig'i katta kon hisoblanadi. 9. Isiriq cho'l va chala cho'llarda, aholi yasha... yerlarda, ekinlar orasida va tog' yonbag'irlarida uchraydi. 10. Bolalardan biri engash... pastga qara..., qo'rqib ketdi. 11. Ilhom o'rtog'ini kutib o'tir... tezda sinfdan chiqib ketdi. 12. Qizlar nima qil...ni bil..., bir-birlariga qaraydilar. 13. Yusuf hamma vaqt ko'p gapir...ka, lekin fikrini to'liq tushuntir...ga harakat qiladi.

**140- mashq.** Quyidagi qo'shma fe'l shakllaridan ko'makchi fe'llarni tushirib qoldirib, noaniq fe'l shaklida o'qing va ko'chiring.

Bilmay qolarkan, topolmayotgan, to'yib ketgan, chiqolmaysan, ishonmay qo'yadi, o'ylay boshlaganingdan beri, yulib tashlashga, tasavvur qilolmaydigan, tikilib qoldi, bilolmasdim, ko'rib qolgan, aylanib qolgan, tushunolmaydigan, siltab yuborganimni, uyg'onib ketdim, tortib ketaveradigan, sovib ketgan, o'tib ketishga, ko'tarib yurolmaydi, kutaverdim, taxlab qo'yilgan, to'xtatib yuboring, quvonib ketarding, aytib yuborgisi keldi, ko'rinib turardi, tushuna olmayapman, tekshirib olgach, qarab qo'ydi, chizib tashlagach, yozib bera oladi, erib ketadi, ko'z yugurtirib chiqdim, kuzatib turibdi, yuraveraylikmi, qo'rqib ketganimdan, taqib olgan, kulib yuborishdan, ovutib kelayotgan, quloq solib ko'rdi, hikoya qilib berishga, so'rab ko'ray, boshlab yubordi, to'kib tashlagach, ushlab ko'rib, qarab turib, so'rab o'tiribdi.

**141- mashq.** So'z shakllarini turkman tiliga tarjima qilib o'qing.

Bosgisi keldi, ezib bo'lmaydi, ko'taraylik, almashtirish mumkin emas, ko'rib bo'lmaydi, eshitsa kerak, aytishgani yo'q, qarasa.

**142- mashq.** Har bir savolga bir nechtadan javob qaytaring.

*Namuna: Ko'changizda qanday bolalar ko'p? — Ko'chamizda temir-tersak yig'ayotgan bolalar ko'p. Ko'chamizda futbol o'ynaydigan bolalar ko'p...*

1. Nimani (nima bo'lganini) bilmay qolibsiz? 2. Nimaga (nima boshlanishiga) yigirma daqiqa qoldi? 3. Kimlar (nima qilganlar) mukofot olishdi? 4. Qachon (nima bo'lishi bilan) seni chaqiray? 5. Sen nima qilmaslikka harakat qilasan? 6. U nimani (nima qilganimni) biladi? 7. Qachon (nima bo'lganda) kiyimingni almashtirasan? 8. Bu asbob nima uchun (nima

qilish uchun) mo'ljallangan? 9. Soating buzilsa, nima qilasan? 10. Kech bo'lgani bilan nimani davom ettirmoqchisan?

**143- mashq.** Quyida berilgan qo'shimchalarni guruhlarga ajrating.

– sa, -ni, -ning, -gan(-kan, -qan), -lar, -m(-im), -m, -ga (-ka, -qa), -da, -ng(-ing), -man, -san, -ngiz, -(a)ytotgan, -ngiz (-ingiz), -gi(si keldi), -b (-ib), -may, -sh (-ish), -masdan, -maslik, -gach (-kach -qach), -dan, -yap, -a (-y), -ar (-r), -r edi (-ar edi), -mas edi, - ta, -nchi (-inchi), -y (-ay), -ylik (-aylik), -nglar (-inglar), -sin(lar).

Ko'plik qo'shimchasi:

Kelishik qo'shimchalari:

Egalik qo'shimchalari:

Fe'ning zamon qo'shimchalari:

Fe'ning shaxs-son qo'shimchalari:

Harakat nomi:

Sifatdosh:

Ravishdosh:

Son (sanoq son, tartib son, dona son):

Buyruq-istak mayl:

Shart mayl:

Fe'ning boshqa shakllari.

**144- mashq.** O'qing, turkman tiliga tarjima qiling.

Yarqiragan narsa. Yarqirayotgan narsa. Yarqiraydigan narsa.

Ko'rganlar aytsin. Ko'rayotganlar aytishsin. Ko'radiganlar aytishsin. Ko'rganlarning havasi kelsin. Ko'rganlarni topaylik. Ko'rganlarga so'z bering. Ko'rganlarda gap ko'p. Ko'rganlardan so'rab bilish kerak. Ko'rganlar haqida ma'lumot to'plang. Ko'rganlar bilan gaplashib oldim. Ko'rganlar uchun buning qizig'i yo'q.

Aytishganim ko'pchilikka yoqmadi. Aytishganimning sababi bor. Aytishganimni o'zim ham bilaman. Aytishganimga jahling chiqdimi? Aytishganimda sen bu yerda emas eding. Aytishganimdan o'zim ham uyalaman.

Kech qolganing yaxshi bo'lmadi. Kech qolgani rost. Kech qolganimiz hammaning og'zida. Kech qolganingiz chakki bo'ldi. Kech qolganlari chatoq.

Qutulganing haqida maqola yoz. Qutulganim uchun quvonib yuribman. Qutulgani bilan hali oldida ko'p qiyinchiliklar bor.



## QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN MATERIALLAR

### YULDUZIM

*Erkin Vohidov*

Yosh ko‘nglimda orzularim mo‘l,  
 Quyosh erir yurak taftimga.  
 Men osmonga uzatganda qo‘l,  
 Sayyoralar qo‘nar kaftimga.  
 Tafakkurning po‘lat qushida,  
 Ko‘z-ko‘z etib bu yoshlik ko‘rkin.  
 Cheksiz fazo — nur og‘ushida  
 Yiroqlarga uchaman bir kun.  
 Parvonadek o‘ynab parpirab,  
 Atrofimni o‘rar yulduzlar.  
 Hayrat ichra yonib, yarqirab,  
 Asta mendan so‘rar yulduzlar:  
 «Qanday yorug‘ yulduzsan, ajab,  
 Yoki biror tuxumdan ajrab,  
 Biz yoqlarda ovoradirsan?  
 Nechun kirding sho‘x davramizga  
 O‘tdek yonib hatto kunduzlar?»  
 Shunda deyman:  
 Kimligim sizga  
 Bayon etay, tinglang yulduzlar.  
 Tafakkurim — sinmas qanotim,  
 E‘tiqodim — nur ila oftob,  
 Men insonman, mening hayotim,  
 Tarixlarda buyuk bir kitob.  
 Men insonman, qalbidam otash,  
 Quyoshdan toj, oydan taxt qurdim.

#### *Savollarga javob bering:*

1. She‘r nima haqida?
2. Shoirning orzulari qanday?
3. She‘rdagi o‘xshatishlarni toping.

## RUBOIYLAR

*Alisher Navoiy*

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.  
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulga tikandek oshyon bo'lmas emish.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,  
Ahvolidida idbor nishoni bil oni.  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yomon-yomoni bil oni.

## RUBOIYLAR

*Zahiriddin Muhammad Bobur*

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'r magay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,  
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Har bir ruboiyning nima haqda ekanligini ayting.
2. Navoiy o'z ruboiylarida nima demoqchi?
3. Bobur o'z ruboiylarida nima demoqchi?

## MAQOLLAR

Mevali daraxtga tosh tegar.

Odobni beodobdan o'rgan.

Oy tunda kerak, aql kunda kerak.

Olim bo'lsang, olam seniki.

Rang ko‘r, hol so‘r.  
Suv ko‘rmay etik yechma.  
So‘raganning aybi yo‘q.  
Tilingni botir qilma, o‘zingni botir qil.  
Tog‘ning ko‘rki tosh bilan,  
Odamning ko‘rki bosh bilan.  
Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin.  
Elga xizmat — oliy himmat.  
Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘ qolar.  
Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma.  
Qochoqqa shafqat yo‘q, qo‘rqoqqa — hurmat.  
Qars ikki qo‘ldan chiqadi.  
O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.

## TILAK

*E. Vohidov*

Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim,  
Elga sochgan bo‘lsa borini doim,  
Himmatini bor bo‘la turib, tilagim,  
Qo‘lidan davlati ketmasin uning.

Kim umrida sira bilmagan tinim,  
Mehnatsiz bir lahza turolmagan jim,  
G‘ayrati bor bo‘la turib, tilagim,  
Belidan quvvati ketmasin uning.

Bir ishga qasd qilib shoir yo olim,  
Xayol surib — keyin ne bo‘lur holim,  
Qudrati bor bo‘la turib, tilagim,  
Dilidan jur‘ati ketmasin uning.

## BAYRAM URF-ODATLARI

Navro'zda:

Bug'doy undiradilar; sumalak pishiradilar; yaxshi niyat qiladilar; yangi kiyim-bosh oladilar; g'amgin o'tirmaydilar; Navro'z taomlarini pishiradilar; qarindosh-urug'larnikiga mehmonga boradilar; mehmon kutadilar; barra yalpiz teradilar.

### MENI KIM QUTQARDI?

*H. Nazir*

– Eh, oyijon, oyijon! Nega tag'in xafa bo'ldingiz-a?

Nahotki shundoq bo'ladi deb o'ylagan bo'lsam-a? Axir sizni xursand qilmoqchi edim-ku?

Kim oyisini xursand qilgisi kelmaydi. Jon deb istaydi hamma. Lekin-chi, istagani bilan uddasidan chiqavermas ekan.

Oyilar ko'p narsani talab qilishadimi, deyman-da? Kuching yetish-yetmasligi, hafsalang kelish-kelmasligi bilan ishi yo'q. «Aytganimni qilasan», — deydi. Tamom. Boring, ana — kuchingiz ham, hafsalangiz ham yetsin, ammo vaqtingiz bo'lmasa-chi? Vaqt har kimning o'z qo'lida. Gap undan to'g'ri foydalanishda», — deydi oyim. To'g'ri foydalanish uchun nima qilishing kerak? «O'zingni tuta bilishing, boshqara olishing kerak» emish. Miyang bir joyda turmasa, o'zingni qanday ushlay olasan? Miya bedanamaski, to'rqovoqqa qamab olsang.

Ayniqsa, eshik qoqib yoz keldi-yu, xayol to'rt yoqqa sochilib, vaqt yetishmay qoldi. Qiynalib-qiynalib bo'lsayam, ahdimni bajarishga bel bog'ladim.

O'qishning oxirgi kuni ham keldi. Bugun yillik bahomiz e'lon qilinadi. Ishqilib hamma fandan «besh» bo'lsin-da!

Boshqalarni bilmayman-ku, men jar yoqasida turgandayman. Puf desa qulab ketadiganday. Yo'q, qulab ketmadim. Baholar e'lon qilinganda, bo'yim bir qarich o'sganday bo'ldi. Yo'q, undan ancha baland, osmon baravar ko'tarilganday bo'ldim. Shu ko'tarilganimcha qushday pirillab, uyga uchdim.

Hovliqqanimdan halloslab, o'pkam tiqilib qolgan ekan, buvim jon xolatda divandan turib ketdi:

– Ha, ha, qo'zim! Birov quvdimi, ayt!

– Joyida! Joyida! — deymanu, u yog‘ini aytolmayman.

Og‘zimga piyolada suv tutdi. Icha turib, voqeani aytdim.

– Voy, xayriyat, xayriyat-ey, qutulibsan! — deb meni bag‘riga bosdi buvim. — Ana endi yegan-ichganing ichingga tushib, bemalol o‘ynaydigan bo‘psan.

Oyim mendan tezroq xabar olish uchunmi, shanba bo‘lgani uchunmi, bugun ishdan erta qaytdi. Unga ham hovliqib aytib berdim. Sevinib ketar deb tursam, yo‘q, oddiy xabarday qarshi oldi.

– Endi boramiz-a, oyi?

– Qayerga?

– Cho‘lga.

– Men senga va‘da beribmidim? Juda borging kelyaptimi?

– Shuncha kutay, shuncha ovora bo‘lay, tag‘in siz ...

– Ovora bo‘lgan bo‘lsang, birov uchun ovora bo‘psanmi?

Damim ichimga tushdi ...

Katta ko‘chaga chiqiboq, avtobusga tushdim. Milliy bog‘dagi ko‘lga ketdim. Ta‘til boshlangan. Bog‘da bolalar ko‘p. Ayniqsa, katta ko‘l qirg‘og‘i qiy-chuv. Bolalar qumda ag‘anagan, bir-birlarini quvishgan, to‘p tepishgan, baliqlardek bilanglashib suvda suzishgan. Men qarab turarmidim! Yechiniboq o‘zimni suvga otdim. Kun issiq. Suv muzdakkina. Juda maza. Odam chiqqisi kelmaydi. Suzishni uncha bilmayman. Avval yuzaroq joylarda cho‘milaman. Keyin bolalarga qiziqib, chuqurroq joylarga intilaman, sho‘ng‘ib-sho‘ng‘ib chiqaman. Suvdan chiqa solib, issiq qumga cho‘zilaman, bolalar bilan o‘ynayman.

Qum qizigandan-qiziyapti. Qornim ochdi. Endi qaytsammikin desam, hech kim ko‘ldan chiqqisi kelmaydi. Qiziqib, yana suvga o‘zimni urdim. Bir to‘da bola kim o‘zish o‘ynashga kirishdi. Ko‘lning o‘rtasiga qarab suzisha ketdi. Baliqday bilang-bilang qilib, goh unisi o‘zib ketadi, goh bunisi. Unga sari qirg‘oqdagilar chuvvos ko‘tarishadi, o‘zib kelgan bolaning nomini aytib:

– Yasha, bo‘sh kelma, qoyil! — deb chapak chalishadi. Xuddi futboldagining o‘zi.

Men ham qiziqib ketibman. Suzib borayotganlarga qarab intilibman. Nima, ko‘pchiligi o‘zim tengi bolalar shunaqa suzganda, men qolarkanmanmi? Kuchim boricha qo‘l-oyog‘imni shaloplatib, ancha joyga borib qolibman. Shu vaqt guldur-guldur qilib ko‘l o‘rtasidan o‘quvchilar ke-

masi o'tib qoldi. Birdan suv qattiq chayqalib, to'lqin turdi. To'lqin ko'tarila-ko'tarila biz tomonga keldi. Yetib keldi-yu, o'zishuv o'ynayotgan bolalarni har yoqqa xuddi po'kakday uloqtirib tashladi. Arg'imchoq uchganday bolalar suvda baland-past bo'lib, goh yo'qolib, goh ko'rinib orqaga qaytishardi.

Bu— ham qiziq, ham qo'rqinchili edi. Yaxshiki, men beriroqdaman. Lekin to'lqin menga ham yetib keldi, to'satdan tortib ketdi. Ilgari ko'chamizdagi ariqda cho'milganimda hech bunaqa bo'lmasdi. Hozir oyoq-qo'llarimni eplolmay qoldim. Og'zi-burnim suvga to'ldi, ko'zim hech narsani ko'rmaydi, qulog'im eshitmaydi. «Voy-dod!» deb baqirmoqchi bo'laman, ovozim chiqmaydi. O'zim suvning ustidamanmi, ostidamanmi — bilolmayman.

Bir vaqt ko'zimni ochsam qumdaman. Ustimda bolalar uymalashgan. Shovqin-suron. Meni uloq-uloq qilishyapti:

– Qulog'idan tort! Og'zini osmonga qil! Boshini silkit!

Meni sirkdagi dorboz boladay xo'p likillatib, ag'dar-to'ntar qilishdi. Shalvirab qoldim. Keyin yotqizishdi. Iliqqina qum yoqib, mudrabman. Shovqindan uyg'onib ketdim. O'rnimdan turay deyman, gavdamni ko'tarolmayman. O'zim nima ahvoldamanu bolalar xaxolashadi. Mayna bo'lib qoldim shekilli-a, ularga.

– Bo'ldi erkalik qilib yotish. Uying emas bu, tur, ketdik!

Tanish ovoz. Solih. Chap qo'ltig'imdan u, o'ng qo'ltig'imdan yana bittasi ko'tarib, meni yetaklab ketishdi. Yo'l-yo'lakay Solih javrardi:

– Sen mittiga kim qo'ydi ko'lda suzishni! Hazilmi bu senga. Oldin uyda gi hovuzchada suzishni mashq qilib olgin-da, keyin tushgin katta ko'lga.

Obbo, rosa jig'imni ezadi shekilli borgunimcha.

Ikkinchi bola indamaydi-yu, piq-piq kuladi.

– Nega kulasan, hey bola? To'g'rimasmi so'zim? Qo'lidan kelsa qatnashsinda suzish musobaqasiga. Mana bizga o'xshab!

Bahona bilan o'zini maqtab, meni yerga uryapti. Bola endi jim turolmadi:

– O'zi bechoraning bo'ladigani bo'ldi-ku. Nima qilasan dakki bera-verib, — dedi u.

– Menga aql o'rgatmoqchimisan, — deb Solih unga o'shqirdi. — Suvga cho'kkanni qutqardim deb chiranyapsanmi? Sen bo'lmasang ham o'zimiz qutqarib olardik! Ha, o'zing kimsan, qaysi maktabdansen? Ochig'ini ayt-chi!

Shundan keyin men o'ng yonimdagi bolaga yaqinroq tikildim. Begona bola. Mendan kattaroq. Qotma, ko'k ko'z. Yuzi, peshonasiga hurpayib tushgan sochlari sap-sariq. Ko'rinishi mo'min-yuvosh. Ancha joygacha Solihning savolini eshitmaganday bordi. Solih yana «Ochig'ini ayt» deb qistagandan so'ng, sekin dedi:

– Nima qilasan surishtirib?

– Bilishim kerak.

– Nima uchun?

– Shuning uchun, — dedi Solih gap topolmay.

– Qizilqumdanman, — dedi bola ensasi qotib, — Qizilqumni bilasanmi?

Solih ajablanib bolaning boshidan oyog'igacha qarab chiqdi-da, yana so'radi:

– Qizilquming qayerda?

– Geografiyadan xabaring yo'qmi?

– U yog'i bizni ish, — dedi turqini o'zgartirmay Solih. To'g'risi, Qizilqumni u ham, men ham bilmasdim, — geografiyani bilsang, o'zing ayt-chi: Qizilqum qaysi respublikada?

Bola piqillab kulgan edi, Solihning jahli chiqdi. Bolaga xunuk qaradi-da:

– Nima, o'ynashyapsanmi biz bilan. Shahrimizda nima qilib yuribsan, qishloqi! Boraver kelgan joyingga, — deb yubordi.

Bolaning ko'zi pirpirab, lablari gezardi.

– Nima, nima? Og'zingga qarab gapir, — dedi ovozi qaltirab. Shunda uning «g»ni «g», «q»ni «k» ga yaqin qilib aytganini sezdim.

Birdan Solihning oldiga o'tib, yo'lini to'sdi. Tishlari g'ijirlab, mushtlari tugildi. Azbaroyi qattiq tugilganidan oriq qo'lining suyaklari oqarib ketdi. Endi u menga mo'min-yuvosh bola bo'libmas, birovgga haqini o'tkazmaydigan, yomon gapni kechirolmaydigan bola bo'lib ko'rindi.

– Kim qishloqi, — dedi Solihning engagiga mushtini tirab.

«Horma, Solih» deb turibman ichimda. Solih ham darrov mushtini ishga soldi. O'zim shalvirab, ko'nglim ozib ketayotgani uchun aralashmay, bir chekkada turaverdim. Ko'z ochib-yumguncha ola-tasir «jang» boshlanib ketdi. Solih ilgari menga ishlatgan g'irromligini ishlatib ko'rди, bo'lmadi. Bola balo ekan, shoshirib, dovdiratib qo'ydi. Solih goh u yoqqa, goh bu yoqqa gandaraklab ketar, devorga, simyog'ochga suyanib qolardi.

Yaxshiki, yo‘lovchilar kelib ajratib qo‘yishdi. Solih sholg‘omday qizarib, qalt-qalt titrab, pishqirganicha o‘tirib qoldi. O‘tirgan joyida hadeb kuchanardi:

– To‘xtab tur, qishloqi, abjag‘ingni chiqaraman! Sen meni bilmas ekan-san! To‘xtab tur, hali!

– Mana to‘xtab turibman. Kela qol, kuching bo‘lsa, — dedi bola ham.

Men bolaning qo‘lidan tortdim. Solih ergashar desam, yuragi betlamladi. Bola meni yolg‘iz ketmasin dedimi, birga yurdi. Endi u o‘zini bosib olgan, basharasi avvalgicha yuvosh bo‘lib qolgan edi. Ko‘nglimdan shu gap o‘tdi: «G‘irromlikni bilmaydigan, halol bola ko‘rinadi, o‘rtoq bo‘lsang arziydi». Shundoq deb aytgim keldi-yu, keyin aytarman dedim. Uyga taklif qildim:

– Yo‘q, zarur ishim bor, — dedi tortinib.

Qistab qo‘ymadim. Qizilqumlik ajoyib bola bilan yaxshiroq tanishib olgim kelardi. Innaykeyin, uyga u bilan kirsam, oyim kamroq urishar.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Matnning mavzusi nima?
2. Asar qahramonining maqsadi nima edi?
3. U nima uchun xafa bo‘ldi?
4. Ko‘lda qanday voqea yuz berdi?
5. Tengdoshingizning onasiga jahl qilgani to‘g‘rimi?
6. Uni kim qutqardi?
7. Bu haqda o‘z fikringizni ayting.

### *Matnga doir lug‘at*

**uddasidan chiqmoq** — o‘narmak, basarmak

**hafsala** — isleg

**qarich** — garyş

**hovliqmoq** — howlukmak

**ovora bo‘lmoq** — rahatsyzlanmak

**azbaroyi** — üçin, -den; huda üçin

**gezarmoq** — agarmak

**mo‘min-yuvosh** — zelesiz, dijeni ediji

**turq** — ýüz

**pirpiramoq** — gözünü gysmak; galtyramak

**yuza** — meydan

**qotma** — gatma

## **NOQIS TADBIRLI DO‘ST RA‘YI BILAN HALOKAT GIRDOBIGA TUSHGAN SHOH HAQIDA HIKOYAT**

Kashmir viloyatida bir podshoh bo‘lib, xazinalarini tog‘lar ko‘tara olmas va lashkarlari hisobini bilib bo‘lmas edi. U komronlik tug‘ini ko‘tarib, adolatli shoh sifatida Mashriq Mag‘ribga mashhur edi.

Bu podshohning bir maymuni bor bo‘lib, ba‘zi ofatlar vaqtida suyanib qolgani sababli unga shohona parvarishlar qilar edi. Maymun ham yuksak



ixlos bilan shohga xizmat qilar, kechalari qo‘liga qilich olib, uning yostig‘i ustida o‘tirib chiqar, tong otgunga qadar uxlamas edi.

Ittifoqo, bir ziyrak va g‘arib o‘g‘ri bu viloyatga kelib qoldi. Bir kecha juda o‘g‘irlik qilgisi keldi. Yaxshi liboslarga o‘ralib, mahallalarni kezib yurdi. Bir betajriba va nodon o‘g‘ri bilan tanishib qoldi. Ikkovlari sayr qila boshladilar. Musofir o‘g‘ri do‘stiga dedi:

– Qaysi mahallaga borsak va kimning uyini teshsak ekan? Nodon o‘g‘ri javob berdi:

– Raisning otxonasida bir semiz eshak bor. Rais uni juda yaxshi ko‘rib, parvarish qiladi. Hatto ikki xizmatkorni unga qarash uchun tayin ham qilgan. Ana shu eshakni o‘g‘irlasak, keyin Chorsudagi shishagarlik do‘konini teshib, shishalarni eshakka ortib ketsak.

Dono o‘g‘ri nodon o‘g‘rining bu so‘zlaridan taajjub qilib, o‘ylab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Nogoh qarshilaridan mirshab chiqib qoldi. Dono o‘g‘ri bir hiyla bilan o‘zini devor orqasiga oldi. Nodon o‘g‘ri esa ushlandi. Mirshab so‘radi:

– Sen kimsan va qayerga ketyapsan?

O‘g‘ri javob berdi:

– Men o‘g‘riman. Raisning eshagini o‘g‘irlab, shishalar do‘konini teshib, shishalarni eshakka yuklab, uyimga olib ketishga jazm qildim.

Mirshab kuldi va dedi:

– Ofarin! Bunaqa o‘g‘ri ham bo‘lar ekan. Bir necha posboni bor eshak deb, o‘zini balo domiga otgan, bir tangaga hech kim olmaydigan shishalar deb, o‘zini xatar yo‘liga solgan o‘g‘rini endi ko‘rdim. Agar shuncha mehnatni podshoh xazinasi uchun qilsang ish boshqacha bo‘larmidi? Unda zamon ahli qoshida mag‘rur bo‘lib qolarding. Bularni aytgach, o‘g‘rining qo‘llarini bog‘lab, zindonga olib ketdi. Dono o‘g‘ri esa nodon ishidan ibrat olib, ogoh bo‘lib, mirshab so‘zidan tajriba ko‘tarib, o‘ziga dedi:

«Bu o‘g‘ri menga nodon do‘st edi, mirshab — ziyrak dushman. Nodon do‘st meni aniq halokat sari soldi, bu dushman so‘ziga ko‘ra xazinaga borilsa, asl maqsadim amalga oshadi».

Shunday qilib u asta-sekin qasr tagiga keldi va lahim kovlay boshladi. Kechasi bilan tosh kesib, lahim kovladi. Hali oy ko‘tarilmagan edi, o‘g‘ri shoh yotog‘idan bosh chiqardi. U qarasa, shoh zarrin taxtida uxlab yotibdi. Hammayoq javohiru gilamlar, nozik buyumlaru shoyi-atlaslar, qimmatbaho shamdonlardagi shamlar ravshan yonib turibdi, parvonalar esa kambag‘allar ko‘nglidek nomurodlik shu‘lasiga o‘zini urib yotibdi. Qo‘lida qilich bir may-

mun shoh yostig‘i tepasida turibdi. U o‘ng va so‘lga ehtiyotkorlik bilan qarab qo‘yar edi. O‘g‘ri hayron bo‘lib o‘yladi: «Bu chaqqon savil mundog‘ darajaga qanday yetishdi ekan? Bu o‘tkir qilich uning qo‘liga qanday va qayerdan tushdi ekan?»

O‘g‘ri xayol dengiziga cho‘mib, sarosima bilan atrofni kuzatar ekan, nogoh bir necha chumoli shoh siynasiga o‘rmlab kela boshladi. Shoh uyqu aralash qo‘lini siynasiga urdi. Maymun yugurib kelib qarasa, shoh siynasida chumolilar o‘rmlab yuribdi. G‘azabdan uning ko‘zlari chaqnab ketdi. «Mahobatidan yulduzlar bedor bo‘lgan mendek posbon turganda, bu bir necha zaif chumolilarga mundog‘ gustohlikni kim qo‘yibdi?!» Shunday qilib, hamiyat jahiliyatni harakatga keltirdi. U qilichni ko‘tarib, shoh siynasida javlon urayotgan chumolilarni chopib tashlamoqchi bo‘ldi. Ana shu payt o‘g‘ri na‘ra tortib:

– Ey nobakor, to‘xta, hozir olam binosi ustunini yiqitasan, — deb yugurib keldi va maymunning qilich ko‘targan qo‘lini ushladi.

Shoh ham o‘g‘rining na‘rasidan uyg‘onib ketdi va ular holatini ko‘rib, so‘radiki:

– Sen kimsan?

O‘g‘ri javob berdi:

– Senga dushmani donodurmen. Bu yerga mol talabida kelib edim. Agar bir lahza g‘aflatda qolsam, bu mehribon, lekin nodon do‘sting hamma yoqni qonga to‘ldirar edi.

Shoh voqeani eshitib, behad tashakkurlar bilan dedi:

– Ha, agar azaliy inoyat yuz ko‘rsatsa, o‘g‘ri posbon va dushman mehribon bo‘lishi hech gap emas ekan!

Shoh o‘g‘riga mehribonlik ko‘rsatib, o‘zining yaqin mulozimlaridan qilib tayinladi. Maymunni esa zanjirband qilib, otxonaga yubordi. Qarangki, niyati yomon o‘g‘ri donishmandlik libosini kiygani uchun mol-davlat, shon-shavkat tojini boshiga qo‘ydilar, mehribon maymun nodon bo‘lgani uchun undan hurmat libosini yechib oldilar.

### *Matnga doir lug‘at*

**ofat** — bela. howpluk

**ixlos** — yhlas, wepalylyk

**balo domi** — bela üçin duzak

**libos** — ge‘yim

**musofir** — başga ýerden gelen adam

**ziyrak** — çakkan, pähimli

**siyna** — kökrek

**hiyla** — mekirlik

**ittifoqo** — birden, bilmezden

**nodon** — akylsyz, samsyk

**taajjub** — hayran galmak

**mirshab** — polisyyaçy

### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Dono va ziyrak o'g'rilar voqeasini aytib bering.
2. O'g'rilarning ham donosi va nodoni bo'lishi mumkinmi?
3. Nodon do'st va ziyrak dushman degani nima?
4. Maymunning qilmishini qanday baholaysiz?
5. O'g'ri podsho yotgan joyga nima maqsadda borgan edi?
6. Podsho to'g'ri hukm chiqardimi?
7. Hikoyaning mavzusi nima?
8. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosani ayting.
9. Shu mavzuga oid qanday maqol va hikmatli so'zlarni bilasiz?

## **OTA VA ONA HAQINI BILMAK ZIKRIDA**

*(«Qobusnoma»dan parcha)*

Ey, farzand, bilg'ilki, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman, deb ko'nglingga keltirmag'il, bilg'ilki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadurlar.

Har farzandki oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdan xoli bo'lmag'usidir. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo'lg'ay va ham farmon bo'lg'ay. Ota-onaning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoyish senga yaxshilik o'rgatmoqdur. Ey, farzand, shul vajdin ota-onangni sag'al ham ranjitmag'il.

Aytishlaricha, amiralmo'minin Alidan so'radilarki: farzandda ota-onaning haqi qanchadur? Hazrat Ali dedi: «Haq taolo bu adabni Rasulning ota-onasi o'limida ko'rguzdi. Nedinkim, bu hazrat ota-onasining hayotiylik ayyotini topsa erdi, ularni o'zidan ilgari tutmoq, ularning haqini bilmoq va ularga farzandlik yuzidan tavoze ko'rgazmoq vojib bo'lur edi».

Bas, ota-onaning haqiga din nuqtai nazaridan rioya qilmasang ham, aql yuzidan, muruvvat yuzidan rioya qil va ko'rg'il ota va ona aslda seni jon va dil bila parvarish qilmishdir. Agar ular haqida kamchiliklar qilsang, ta'sir ko'rguzsang, sen hech yaxshilikka sazovor emasdursan, nedinkim, har kishi aslning yaxshilig'in bilmasa, o'zganing ham yaxshilig'in bilmag'usidir. O'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim, sen ota-onang haqida nima ish qilsang,

farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydur. Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo‘lur. Ota-onani izzat va hurmatini qancha ko‘p qilsang, ularning sening haqingdagi duosi shuncha tezroq mustajob bo‘lur.

Zinhor meros olmoq hirsni birla ota-onang o‘limin tilamag‘ilki, ularning rizqi birla sening rizqing yetishur. Ota-onangning o‘limini tilamag‘il, chunki ota-ona o‘lmay yursalar ham rizqing yetishaveradi, nedinkim, rizq mahsumdir, taqsimlangandur va u har yo‘l bila senga vosil bo‘lur. Ro‘ziy nasiba uchun o‘zingni ko‘p ranj-mashaqqatga qo‘ymag‘il, ro‘ziy ranj va azob-uqubat bila ziyoda bo‘lmag‘usidir.

Holi-ahvoli sendan yaxshiroq bo‘lgan kishilarga qaramag‘il, holi-ahvoli sendan yomonroq bo‘lg‘on kishilarga qarag‘il.

Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aql dan boy bo‘lmoqqa sa‘y ko‘rguzg‘ilki, mol bila boy bo‘lg‘ondan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas, bilg‘il, bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvga oqmas.

Bas, agar aqling bo‘lsa, hunar o‘rgang‘il, nedinkim, hunarsiz aql boshsiz tan, suratsiz badandir. Undoqkim debdurlar: al-adab — surati aql.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Nima uchun ota-onani hurmat qilish kerak?
2. Ota-ona farzandiga qanday yaxshiliklar qiladi?
3. Ota-onaning yomoni bo‘ladimi?
4. Aql bilan boy bo‘lgan yaxshimi, mol bilan boy bo‘lgan yaxshimi? Nima uchun?
5. «Nima eksang, shuni o‘rasan» maqolining mazmunini tushuntirib bering.
6. Siz ota-onangizni hurmat qilasizmi?
7. Men yaxshi farzandman deb ayta olasizmi?

## **NAJMIDDIN KUBRO**

*(Ulug‘ allomalar ibrat)*

Yo‘q emaskan, bor ekan. Och emaskan, to‘q ekan. Qadim zamonda, Amudaryo tomonda gulu bo‘ston bir yurt bo‘lgan ekan. Tabiati g‘oyat so‘lim, eli halim ekan. Tuprog‘i shu qadar hosildor ekanki, yolg‘ondan cho‘p qadasang, chindan daraxt bo‘lib o‘sarkan. Bu o‘lkaning donolari ham ko‘p ekan. Shayx Najmiddin Kubro donolar donosi sanalar ekan. Xalq nimaiki

ishga qo‘l ursa, avvalo ularning maslahatini olarkan. Shuning uchun bu o‘lka urush-janjalgaga begona ekan. Yurtning nomi esa Xorazm ekan. Yaxshilik bilan yomonlik hamma ertakda bor, shunday emasmi?

Bir kuni nima bo‘libdi, deysizmi? Quloq soling va sizlarga nimaiki gapir-sam, bariga ishoning. Bu ertak — aslida voqea.

Xullas, bir kuni Mug‘ul degan bosqinchi Xorazmga yurish boshlabdi. Yo‘lida uchragan bog‘u rog‘larni vayron qilibdi. Uylarga o‘t qo‘yib, qo‘y-qo‘zilarni haydab ketib, shaharni o‘rab olibdi. Bosqinchilarning niyati bu go‘zal yurtga o‘zlari hukmron bo‘lib, uning xalqini qul qilib sotish ekan.

Ahli Xorazm qayg‘uga tushibdi. Botirlari jangga hozirlik qila boshlabdi.

Shahar atrofida izg‘ib yurgan dushman esa qal‘ani yorib kirish yo‘llarini izlarkan. Ayg‘oqchilardan biri mug‘ullar sardoriga:

– Onhazrat, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, fikrimni ayturman, — deb ta‘zim qilibdi.

– So‘yla!

– Shohim, bu yurtning donolari ko‘pdur. Donolar donosi shayx Najmiddin Kubro erur. Bu qonli jangda ul hazratning ko‘ngillari ozor topsa, zinhorg‘alabai munavvarga yetmasmiz. Farmon bering, shayx biz tarafga o‘tsinlar. Ondin so‘ng biz yeng shimarib jang boshlaylik.

U zamonlarning dushmani ham mard bo‘lgan ekan, bolajonlar.

Shoh ko‘p o‘ylabdi. Nihoyat taklifni qabul aylabdi.

– Maktub tayyorlang! Chopar yuboring! Shayx hazratlari biz tomonga o‘tsinlar!

Chopar maktubni olib, qal‘a darvozalaridan ichkari kiribdi. Najmiddin Kubroga xatni tutqazibdi. Bir qancha muridlari bilan o‘tirgan shayx maktubni ovoz chiqarib o‘qibdilar:

«Shayx hazratlari, sizga bo‘lgan kamoli ehtiromimiz haqqi, oilangiz va yana o‘n kishi birla biz tarafga o‘ting! Osuda, farog‘atda umr ko‘rursiz!»

Shayx xatni o‘qib, choparga debdilar:

– Borib yetkazing! Mening yaqinlarim o‘n kishidan ko‘pdur.

Ertasi kuni chopar yana xatni keltiribdi.

«Hazrat, mayli, yuz kishi birla o‘ting!»

Shayx debdilar:

– Yetkazingkim, ular yuz kishidan ham ko‘pdur.

Uchinchi kun chopar yana maktub keltiribdi:

«Mayli, ming kishi birla o‘ting,» — deyilibdi xatda. Hazrat shunday debdilar:

– Mening yaqinlarim ming kishidan ham ko‘pdir. Butun xalq mening yaqinlarimdir. Ularning yaxshi kunida birga bo‘ldim. Og‘irida tashlab ketayinmi? Bir boshda bir o‘lim bor. Shohingga ayt, qonga-qon, jonga-jon!

To‘rtinchi kunning tongi otmabdi. Elu yurtning oromi yo‘q, yotmabdi. Quyosh hali boshin ko‘tarmay turib, dushman qal‘a ichra kirdi ot surib, kimning qo‘lida tayoq, kimning qo‘lida o‘roq. Dushmanga hamla qilar, o‘lmoqni sharaf bilar. Shayx Najmiddin Kubro botir botirlar aro. Qonli jangga kiribdi, dushmanni ko‘p qiribdi. Yer tishlatib o‘n beshin, majruh qilibdi beshin. Ammo dushman ko‘p beor, kelaverdi ustivor, qahri oshib Kubroning yana ham g‘ashlanibdi. Bayroqqa tashlanibdi. Bayroqning egilgani — raqibning yengilgani.

Ana shunda, jonim bolalarim, shayx Kubro dushman bayrog‘ini pastga tortib turganda, bir bosqinchi shayxning o‘ng qo‘liga qilich solibdi. Qora qonga bo‘yalgan shayx ot ustida qolib ketibdi. Yov bayrog‘ida qolib ketgan shayxning o‘ng qo‘llari esa, hamon bayroqni changallab, pastga tortar ekan. Harchand urinmasin, yov shayxning qo‘llarida g‘ijimlanib turgan bayroqni sug‘urib ololmabdi. Dushman yengilibdi.

Shayx Najmiddin Kubro esa Vatan uchun, ona Yer uchun bo‘lgan jangda shahid bo‘libdilar. Jannatmakon hazratning ruhlari hamisha shod bo‘lsin.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Hikoyada qaysi yurt haqida so‘z boradi?
2. Xorazm yurti nima sababdan mashhur ekan?
3. Najmiddin Kubro kim?
4. Uning qanday farzandlari bor ekan?
5. Siz vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?
6. Kubro tanlagan yo‘l sizga ma‘qulmi?
7. Kubroning mardligini, xalqsevarligini ko‘rsatuvchi gaplarni topib o‘qing.

# O'ZBEKCHA-TURKMANCHA LUG'AT

## OTLAR

### *Tabiat*

<b>adir</b> — baýyr,depe	<b>manzara</b> — owadan,örän
<b>alanga</b> — ýalyn	ýagsy, peýzaž
<b>alamat</b> — bellik,belgi	<b>modda</b> — madda
<b>botqoq</b> — batga	<b>olmos</b> — almaz
<b>bo'ron</b> — tupan,boragan	<b>oqshom</b> — ağşamara
<b>vodiy</b> — wadyý	<b>sayyora</b> — planeta
<b>vulqon</b> — wulkan	<b>saraton</b> — yssy (tomusdaky)
<b>gulshan</b> — gülzarlyk	<b>tepa</b> — depe, ýokary
<b>dasht</b> — sähra, meýdan, tekizlik	<b>ufq</b> — gorizont
<b>do'l</b> — doly	<b>fazo</b> — giňişlik
<b>yelvizak</b> — şemalyň oňi	<b>chakalak</b> — gyrymsy ağaçlar
<b>jala</b> — çogba	<b>cho'g'</b> — jog, yssylyk
<b>jilg'a</b> — akarjyk,çeşme	<b>shabada</b> — salkyn ýeljagaz
<b>zahar</b> — zäher	<b>sharshara</b> — şaglawuk
<b>zilzila</b> — ýer titreme	<b>shag'al</b> — daş
<b>irmoq</b> — derýanyň goşandy	<b>shudring</b> — çyg, gyraw
<b>iqlim</b> — elimat,howa ýagdaýy	<b>shu'la</b> — şöhle, ýagtylyk
<b>koinot</b> — älem,dünýä	<b>yaylov</b> — ýaýla
<b>kon</b> — çeşme,magdan gazyp alynan ýer	<b>yax</b> — buz
<b>kul</b> — kül	<b>qir</b> — belentlikler
<b>kumush</b> — kümüş	<b>qit'a</b> — kontinent, materik
<b>ko'kalmazor</b> — çemenlik	<b>qoya</b> — gaýa
<b>ko'lmak</b> — batgajyk	<b>quvur</b> — keramiki truba
<b>mavsum</b> — möwsüm	<b>qo'rg'oshin</b> — gurşun
	<b>harorat</b> — ýylykyk, yssylyk

### *O'simliklar*

<b>arpa</b> — arpa	<b>ko'sak</b> — goza
<b>jambil</b> — jammyl	<b>loviya</b> — noýba
<b>zaytun</b> — zeytun	<b>majnuntol</b> — leyli saç (söwüdiň bir hili)
<b>zira</b> — zire	<b>maysa</b> — maýsa
<b>isiriq</b> — iswent	<b>nav</b> — sort
<b>ismaloq</b> — ysmanak	<b>poya</b> — payä
<b>kanop</b> — kenap	<b>po'st</b> — gat
<b>kashnich</b> — koriand, kaşniç	

**po'choq** — gabyk  
**rayhon** — reyhan  
**suli** — owýos  
**tariq** — dary  
**xina** — hnr  
**chim** — bajak

**shakarqamish** — şeker gamyş  
**shona** — pagtanyň gunçasy  
**sho'ra** — şora  
**eman** — dub, agaç  
**o'sma** — osma

### *Hayvonlar, qushlar, jonli mavjudotlar*

**zamburug'** — kömelek  
**zararkumanda** — zyýan getirji  
**zuluk** — sülük  
**yilqi** — ýylky sürüsi  
**kuya** — küye

**changal** — çeñnel; penje  
**qashqir** — möjek  
**qirg'iy** — gyrgyý  
**qoramol** — garamal  
**hasharot** — mörmöjek

### *Inson, uning ma'naviy dunyosi*

**ayb** — ayb  
**alam** — horluk, azp  
**araz** — yryş, öýke-kine  
**asab** — nerw  
**ahvöl** — ýagday, şert  
**bezgak** — yssytma, malýariya  
**bilak** — bilek  
**biqin** — gaptal  
**buyrak** — böwrek  
**vafot** — ölüm  
**viydon** — wyždan  
**gavda** — beden  
**gumon** — güman  
**dugona** — jora  
**do'q** — gorky, howp  
**yelka** — egin  
**yonoq** — ýañak  
**jasorat** — jesarat  
**jag'** — eñek  
**jahl** — gahar  
**jigar** — bagyr  
**jon** — jan  
**zavq** — lezzet  
**izzat** — hormat  
**ilhom** — ylham  
**iroda** — erk, gayrat

**istak** — isteg  
**ichak** — içege  
**ishtaha** — işde  
**ishtiyok** — güýçli isteg,  
gyzyklanma  
**yiring** — iriň  
**yig'i** — agy  
**yo'tal** — ügsürik  
**kayfiyat** — keyp  
**kaft** — el  
**kiprik** — kirpik  
**kuch** — güýç  
**ko'krak** — kökrek  
**ko'ngil** — köñül  
**maqsad** — maksat  
**miya** — beyni  
**musht** — muş  
**muhabbat** — söygi  
**nafas** — dem almal  
**oshqozon** — aşgazan  
**sir** — syr  
**sadoqat** — wepalylyk  
**soqol** — sakal  
**sog'liq** — saglyk  
**suyak** — süňk  
**tabassum** — ýylgyrma



**tana** — beden  
**ta'sir** — täsir  
**ter** — der  
**teri** — deri  
**tovon** — dawan  
**tomir** — damyr, gan damyry  
**tumov** — dümew  
**tupuk** — tüyükilik  
**tush** — düýş  
**umid** — umyt  
**uyat** — utanç  
**farzand** — perzent  
**faxr** — şöhrat, namys  
**xavotir** — ynjalyksyzlyk  
**xayol** — göz öñüne getirme  
**xotira** — ýät, ýädygärlik  
**chiroy** — owadanlyk

**shaxs** — şahs, şahsyýet  
**shubha** — şübhe  
**egizak** — ekizler  
**es** — ýat, zehin  
**o'pka** — öýken  
**qadam** — ädim  
**qalb** — kalb  
**qarindosh** — garyndaş  
**qobiliyat** — ukyplylyk, başarmylyk  
**qovoq** — gabak  
**qo'ltiq** — goltuk  
**g'azab** — gahar, gazap  
**g'ayrat** — gaýrat  
**havas** — höwes  
**hayajon** — tolgunmak  
**his** — duýgy  
**husn** — owadanlyk

### *Ijtimoiy hayot*

**aloqa** — baglanyşyk  
**amal** — amal  
**arafa** — öñ ýany  
**asir** — ýesir  
**asorat** — ýesirlik  
**asos** — esas  
**bahona** — bahana, sebäp  
**belgi** — belgi  
**bitim** — ylalaşyk  
**bosqich** — etap  
**boshliq** — başlyk  
**burch** — borç  
**bo'hton** — töhmet  
**vaziyat** — ýagdaý  
**vosita** — erişde  
**guruh** — topar  
**davr** — döwür  
**dalil** — delil  
**daraja** — dereje  
**darak** — habar  
**dahshat** — gorkynç  
**din** — dyn

**dong** — meşhurlyk  
**yov** — duşman  
**jamiyat** — jemagat  
**jannat** — jennet  
**jamoat** — jemagatçylyk  
**janjal** — uruş  
**jamoat** — oba jemagaty  
**jarima** — jerime  
**jahon** — jahan  
**zarar** — zeled, zyýan  
**zulm** — zulum  
**ibrat** — mysal, husga  
**idora** — edara, kärhana,  
**ijro** — ýerine ýetirmek  
**iloj** — ymkaniýet  
**imtihon** — ekzamen  
**intizom** — tertip  
**isyon** — bunt, topalaň  
**istiqbol** — gelejek  
**istiqlol** — garaşsyzlyk  
**ittifoq** — bileleşik

**ishtirok** — gatnaşmak  
**kambag'al** — garyp, biçara  
**kehgash** — geñeş; maslahat  
**la'nat** — gargyş  
**marra** — ahyry  
**maslahat** — maslahat  
**mashaqqat** — kyýynçylyk  
**mashal** — meşel, çyra  
**mergan** — mergen  
**meros** — miras  
**minbar** — tribuna  
**mohiyat** — özeni, manysy  
**muwaffaqiyat** — gazanylan  
üstünlik  
**muddat** — müddet  
**mudir** — müdir  
**mukofot** — premiýa  
**munosabat** — aragatnaşyk  
**muxbir** — korresponden  
**muhit** — sreda  
**nazorat** — üstünden garamak,  
barlamak kontrol, syn etmek  
**nayrang** — mekirlik  
**nasihat** — nesihat  
**natija** — netije  
**nishon** — nyşan  
**notiq** — orator, söz sözleýän  
**odat** — adat  
**olim** — alym  
**omad** — üstünlik, şowlulyk  
**orom** — dynç almak  
**parvarish** — iýmitlendirmek,  
seretmek  
**raqib** — konkurent, bäsdeş  
**reja** — pla, meýilnama  
**rohat** — lezzet, hezil  
**sabab** — sebäb  
**saf** — hatar  
**tadbir** — çäre  
**talab** — talap  
**tantana** — dabara

**tartib** — tertip  
**tasodif** — tötänlik, duýdansyzlyk  
**taxmin** — güman, çaklama  
**taxt** — tagt  
**tashabbus** — inisiatiwa  
**tashakkur** — hoşallyk  
**tuhmat** — töhmet  
**to'y** — toý  
**to'p** — top, köpçülik  
**farq** — tapawut  
**fikr** — pikir  
**fojia** — heläkçilik, betbagtçylyk  
**foyda** — peýda  
**xabar** — habar  
**xavf** — howp  
**xanjar** — hanjar  
**xususiyat** — has häsiýeti  
**chegara** — äraçäk  
**chipta** — bilet  
**chora** — çäre  
**sharoit** — şert, ýagdaý  
**shon** — şöhrat  
**el** — halk  
**erk** — erkinlik  
**ehtiyot** — seresaplylyk  
**o'q** — ok  
**o'g'ri** — ogry  
**qarz** — karz  
**qasam** — kasam  
**qilich** — gylyç  
**qonun** — kanun  
**qul** — gul  
**qo'shin** — goşyn  
**g'olib** — yeñiji  
**hajm** — göwrüm  
**haqiqat** — hakykat  
**hissa** — ülüş, goşant  
**hodisa** — hadysa  
**hokimiyat** — hakimlyk  
**hujum** — hüjüm  
**hukumat** — hökümet

## *Maktab, adabiyot, san'at, ilm-fan*

- adabiyot** — edebiyat  
**adib** — edebiyatçı  
**alla** — hüwdi  
**an'ana** — dâp-dessur  
**asar** — eser  
**afsona** — legenda,erteki  
**bayon** — beyan  
**bayt** — bent, (ikileme)  
**bastakor** — kompozitor  
**baxshi** — bahşy  
**do'mbira** — deprek; baraban  
**jo'g'rofiya** — geografiya  
**ilm** — ylym  
**imlo** — orfografiya  
**isbot** — delil  
**ifoda** — alatma  
**ixtiro** — oýalp tapylan zat  
**ishora** — belgi; bellik, signal  
**kashfiyot** — açyş, oýalp tapylan zat  
**kimyo** — himiýa  
**lavha** — tagta, görnüş, peýzaž, plitka  
**lapar** — halk poeziyasynyň eseri  
**latifa** — gülkili waka  
**madaniyat** — medeniýet  
**madrasa** — medrese  
**manba** — çeşme  
**maorif** — magaryf  
**masal** — basnýa  
**matal** — matal  
**ma'lumot** — maglumat, bilim  
**maqbara** — gabyr, mazar  
**musiqa** — saz  
**nafosat** — nepislik  
**nashr** — neşir  
**nashriyot** — neşriyat  
**haqsh** — nagş  
**naqqosh** — suratçy  
**nusxa** — nusga  
**obida** — ýadygärlik  
**ohang** — saz  
**rasadxona** — obserwatoriya  
**ruboiy** — rubagy  
**savod** — sowat  
**sana** — sene  
**san'at** — sungat  
**sivizg'a** — naý  
**soz** — saz, muzyka  
**sozanda** — sazçy  
**tabobat** — halk medisinasy  
**tavsiya** — terlip etmek  
**tanqid** — tankyd  
**tarbiya** — terbiye  
**tarix** — taryh  
**tarona** — aýdym, heň  
**tasvir** — görmüş  
**ta'lim** — bilim  
**ta'til** — dync almak  
**tibbiyot** — medicina  
**tomosha** — sahna  
**to'r** — tör  
**usul** — usul, ýol  
**falsafa** — filosofiya  
**fan** — ylym  
**xarita** — karta  
**xattot** — kalligraf (düşnükli, owadan ýazyän adam)  
**xonanda** — aýdymçy  
**xulosa** — netije  
**chang** — çeň (muzyka. esbapy.)  
**esdalik** — ýadygärlik  
**yalla** — aýdym  
**qism** — bölüm  
**qissa** — powest  
**hofiz** — bagşy, klassiki aýdymlyry ýerine ýetiriji  
**husnihat** — arassa ýazuw

## *Uy-ro'zg'or buyumlari*

<b>astar</b> — astar	<b>otashkurak</b> — ataşkir
<b>belanchak</b> — arlyk	<b>oshtaxta</b> — aştagda
<b>beshik</b> — sallançak	<b>oshqoshiq</b> — nahar çemçe
<b>billur</b> — hrustal	<b>palak</b> — gobeleninbir görnüşi
<b>bolish</b> — ýässyk	<b>palos</b> — palas
<b>gardish</b> — disk, tegelek	<b>patnis</b> — padnos
<b>dorpech</b> — asylgy duran köýnek- leriň üstüne ýapylyän mata	<b>poyandoz</b> — haly düşençe
<b>doshqozon</b> — daş gazan	<b>sox</b> — syh
<b>yostiqjild</b> — ýässygyň daşlygy	<b>supra</b> — supra
<b>jihoz</b> — öý enjamlary	<b>taqsimcha</b> — tarelkajyk
<b>joynomoz</b> — namaz okalyän haly	<b>tova</b> — gazan
<b>jom</b> — legen	<b>toshoyna</b> — aýna
<b>yo'rma</b> — ýörme keşdäniň bit görnüşi	<b>to'rvä</b> — torba
<b>kigiz (namat)</b> — keçe	<b>to'rparda</b> — perde
<b>kurak</b> — agaçdan ýasalan pil	<b>xarid</b> — haryt
<b>ko'za</b> — uly küýze	<b>chaqich</b> — tikeç
<b>ko'zgu</b> — aýna	<b>chinni</b> — farfor
<b>obdasta</b> — kuman, yuwunmak üçin agzy inçe küýze	<b>qadah</b> — gap
<b>ombir</b> — gysgyç	<b>qandil</b> — lüüstra, çyra
	<b>g'altak</b> — tegek
	<b>hovoncha</b> — soky

## *Kiyim-keçak, zeb-ziynat*

<b>banoras</b> — banoras (elde dokalan ýüpek matanyň bir görnüşi)	<b>kimxob</b> — parça
<b>belbog'</b> — guşäk	<b>ko'zmunchok</b> — gözmonjuk
<b>beqasam</b> — bikasam (elde dokalan ýüpek matanyň bir görnüşi)	<b>mahsi</b> — messi
<b>bilaguzuk</b> — bilezik	<b>mo'yna</b> — deri
<b>boldoq</b> — baldak (gaşsyz ýüzük)	<b>parcha</b> — bölek
<b>bo'z</b> — báz	<b>popuk</b> — popuklary, seçek
<b>duxoba</b> — bahmal	<b>po'stin</b> — postun
<b>jiyak</b> — jiyek, tasma, keşde	<b>sadaf</b> — perlamutr
<b>zar</b> — altyn, altyn suw berilen zatlar	<b>sarpo</b> — serpay
<b>zeb-ziynat</b> — her hili dakynjklar	<b>surp</b> — báz
<b>ziynat</b> — bezeg; dakynjaklar	<b>tasma</b> — tasma, lenta
<b>zirak</b> — gulak halka	<b>taqinchoq</b> — geýilän dakynjaklar
	<b>uzuk</b> — ýüzük
	<b>chit</b> — çit
	<b>shoyi (shohi)</b> — ýüpek

**engil** — geým  
**yaktak** — tomusda geýilýän  
geým

**qiyiqcha** — keşde tikilen bilbag  
**quloqchin** — telpek

### *Oziq-ovqat*

**bodroq** — gowurylan mekkejö-  
wen  
**varaqi** — gowurylan etli somsa  
**gijda** — töwerekli uly edip  
ýasalan nan  
**do'lma** — dolma, etli nahar  
**jaz** — mayda edilip gowurulan et  
**jizza** — jyzzyk, gowurylan ýag  
**zig'ir moy (yog'i)** — zygyr  
ýagy

**zuwala** — zuwala  
**iliq** — ýyly  
**ichimlik** — içimlik  
**kalla** — malyň kellesi  
**kurmak** — haşal ot  
**ko'knor** — gök nar  
**masalliq** — iýmitiň düzümi  
**moxora** — nohut çorba  
**namakob** — duzly suw  
**nisholda** — nişala  
**novvot** — nawat  
**ozuqa** — azyk  
**parvarda** — perwerde (un bilen  
şekerden bişirilýän süýji)  
**pashmak** — peşmek (halwanyň  
bir görmüşi)  
**pishloq** — peýnir  
**rezavor** — gök otlar

**saqich** — sakkyç  
**sedana** — sedene  
**sirka** — uksus  
**suzma** — süzme (suwy alynan  
gatyk)  
**so'k** — sök  
**taom** — nahar  
**uvra (ugra)** — un aş  
**ushoq** — ownuklar  
**shilpildoq** — kürdük (içine kiçi  
dörtburçluk edilip kesilen  
hamyr salynan çorba)  
**shira** — şerbet  
**shirchoy** — süýtli çay (galmyk  
çayy)  
**yupqa** — çelpek  
**o'rama** — orama (turşan hamyr-  
da bişirilýän nahar)  
**qayla** — nahar goşulýan ysly ot  
**qandolat** — süýjilikleriň görmüşi  
**qazi** — kazi  
**qiyom** — kyýam  
**qiyma** — farş, maydalanan et  
**qimiz** — gymyz  
**qovurdoq** — gowurdak  
**holva** — halwa  
**holvaytar** — halwaýtar (un, şeker,  
ýagdan bişirilýän tagam)

### *Mehnat*

**andaza** — ölçeğ, ülni  
**arqon** — arkan, ýüp  
**asbob** — esbap  
**band (dasta)** — bend (deste)  
**dastgoh** — stanok, cnjam  
**yelkan** — ýelken

**yonilg'i** — ýanylgy  
**zambil** — zember  
**zanjir** — zynjyr  
**ipak** — ýüpek  
**ishkom** — üzümlik  
**kashta** — keşde

<b>kema</b> — gâmi	<b>to'g'on</b> — bent
<b>kir</b> — kir; suwulýan zatlar (kir zatlar)	<b>foiz</b> — prosent
<b>korxona</b> — kârhana	<b>harajat</b> — harajat
<b>kotib(a)</b> — sekretar	<b>xaskash</b> — dyrmak
<b>kulol</b> — kulal	<b>xomashyo</b> — çig mal
<b>mahsulot</b> — önüm	<b>xomtok</b> — çekanka
<b>mehnat</b> — zâhmet	<b>xossa</b> — hâsiyet
<b>mirishkor</b> — tejribeli ussa	<b>charm</b> — deri
<b>mirob</b> — mirap (suwyň ulanyl- magyna seredyän adam)	<b>charx</b> — çarh
<b>moki</b> — mäki	<b>chevar</b> — çeper (oňat tikiñi)
<b>mix</b> — çüý	<b>chok</b> — tikin
<b>sanoat</b> — senagat	<b>shakl</b> — şekil
<b>sartarosh</b> — dellekçi	<b>shisha</b> — aýna
<b>sarf</b> — sarp, harajat	<b>egat</b> — joýa
<b>simyog'och</b> — sim agajy	<b>egov</b> — igew
<b>sop</b> — sap	<b>yuk</b> — yük
<b>sopol</b> — laýdan edilen	<b>yagana</b> — ýekelemek
<b>soha</b> — pudak	<b>o'tloq</b> — ötamak
<b>tayoq</b> — taýak	<b>o'g'it</b> — dökün
<b>tabib</b> — tebib	<b>qiyqim</b> — gyýyndy
<b>tajriba</b> — tejribe	<b>qirra</b> — gapyrga
<b>tarmoq</b> — pudak	<b>qolip</b> — kalyp, şoblon
<b>tarozi</b> — terezi	<b>qopqon</b> — gapan
<b>tegirmon</b> — degirmen	<b>qorovul</b> — garawul
<b>tesha</b> — teşe (elde işleyän esbap)	<b>g'ilof</b> — çehol
<b>tig'</b> — tyg	<b>hunar</b> — hünär
	<b>hunarmand</b> — hünärmend

### *Fe'llar*

<b>ajra(l)moq</b> — aýrylmak, dagramak	<b>asramoq</b> — gorap saklamak
<b>aynamoq (aynimoq)</b> — aýnamak, bozulmak	<b>ayamoq</b> — aýawly saklamak
<b>ayrilmoq</b> — aýra düşmek, hoşlaşmak	<b>barpo bo'lmoq</b> — döretmek
<b>aytishmoq</b> — tersleşmek, dawalaşmak	<b>birikmoq</b> — birikmek
<b>ardoqlamoq</b> — nâzini götermek, erkeletmek	<b>birlashmoq</b> — birleşmek
	<b>bitirmoq</b> — gutarmak
	<b>bichmoq</b> — biçmek
	<b>botmoq</b> — gark bolmak, çümüp gitmek

**boshqarmoq** — dolandirmak  
**buklamoq** — bükmek  
**bulamoq** — hapalamak  
**burmoq** — buramak  
**butamoq** — pudamak  
**bo'ysunmoq** — boyunsünmek  
**bo'rtmoq** — çişmek, gaty  
gyzarmak  
**bo'g'moq** — bogmak  
**voyaga yetmoq** — kāmillik  
yaşyna yetmek  
**gumburlamoq** — güpürdemek  
**do'ppaymoq** — goppaymak  
**yeyilmoq** — könelmek, iyilmek  
**yemirmoq** — agdarmak  
**yopishmoq** — ýapyşmak  
**yoritmoq** — ýaymak  
**jo'namoq** — ugramak  
**ivimoq** — öl-myjyyk bolmak  
**ikkilanmoq** — ikilenmek  
**ilashmoq** — tutup almak  
**intilmoq** — ymtylmak  
**istamoq** — istemek  
**itoat etmoq** — tabyn bolmak  
**kavlamoq** — köwlemek  
**kertmoq** — gertmek  
**kirishmoq** — girişmek  
**kichraymoq** — kiçelmek  
**kuzatmoq** — syn etmek  
**kuramoq** — gazyp çykarmak  
**kurashmoq** — göreşmek  
**kuchaymoq** — güyçlenmek  
**ko'karmoq** — gögermek  
**ko'pirmoq** — köpürmek, möwç  
urmak  
**ko'pchimoq** — tutup almak  
**minmoq** — münmek  
**mo'ralamoq** — seredtmek,  
jyklamak  
**ovutmoq (ovuntirmoq)** —  
köşeşdirmek

**oralamoq** — içinden geçmek  
**ortmoq** — yüklemek, artyp  
galmak  
**oshirmoq** — aşyrmak; hamyry  
ajatmak  
**oshlamoq** — aşlamak  
**oqizmoq** — akyzmaq  
**og'moq** — akyp gitmek  
**paydo bo'lmoq** — peýda bolmak  
**payqamoq** — görmek  
**pehvoz chiqmoq** — öñune  
çykmak  
**portlamoq** — partlamak  
**ranjimoq** — öykelemek  
**rivojlanmoq** — ösmek  
**savamoq** — ditmek (pagtany,  
yüñi we başg.)  
**saylamoq** — saylamak  
**sevmoq** — söymek  
**sezmoq** — duymak  
**sidirmoq** — üstünden almak  
**sinamoq** — synamak  
**sig'moq** — sygmak  
**suvamoq** — suwamak  
**sudramoq** — süyremek  
**surishtirmoq** — soramak,  
idemek  
**surkamoq** — sürtmek  
**surtmoq** — sürtmek  
**sug'urmoq** — sogyrmak  
**so'zlamoq** — aydyp bermek  
**talamoq** — talamak  
**tarqamoq** — dargamak  
**taqsim qilmoq** — bölmek  
**tebratmoq** — gymyldatmak  
**tejamoq** — tygsytlamak  
**tekkizmoq (tegizmoq)** — degmek  
**tilamoq** — dilemek  
**tilmoq** — dilik edip kesmek  
**tinglamoq** — eşitmek

**tiramoq** — diremek  
**titmoq** — elde ditmek  
**tovlanmoq** — her hili reŭkde  
     öwüşmek  
**tolmoq** — ýadamak  
**topshirmoq** — tabşyrmak  
**tutmoq** — baglamak  
**tusamoq** — islemek  
**tutamoq** — tütemek  
**tug‘moq** — dogmak  
**to‘zmoq** — tozmak  
**to‘ntarmoq** (to‘nkarmoq) —  
     agdarmak  
**to‘qimoq** — dokumak  
**uzaymoq** — usalmak  
**ulgurmoq** — yetişmek  
**unmoq** — ösmek  
**unutmoq** — ýatdan çykarmak  
**uchramoq** — duş gelmek  
**uyushtirmoq** — uýüşdirmek  
**hushdan ketmoq** — huşundan  
     gitmek  
**chaymoq** — çaymak  
**chaynamoq** — çeynemek  
**chayqamoq** — çaykamak  
**charaqlamoq** — ýaldyramak  
**chuvalamoq** — çolaşdyrmak  
**chulg‘amoq** — gujaklamak,  
     guşamak  
**shishmoq** — çişmek  
**egallamoq** — eýelemek  
**ezmoq** — basmak, ýençmek  
**emaklamoq** — emedeklemek  
**engashmoq** — büklenmek  
**esmoq** — ösmek  
**yubormoq** — ibermek  
**yupatmoq** — köşeşdirmek  
**yayramoq** — oňat ýaşamak  
**yamamoq** — ýamamak  
**yanglishmoq** — ýalňyşmak  
**yanchmoq** — ýençmek  
**yaratmoq** — döretmek  
**yaraqlamoq** — öwüşmek  
**yarqiramoq** — ýalpyldamak  
**o‘girmoq** — öwürmek  
**o‘zgarimoq** — üýtgetmek  
**o‘zlashmoq** — özleşdirmek  
**o‘lmoq** — ölmek  
**o‘ramoq** — dolamak  
**o‘rmalamoq** — emedeklemek  
**o‘rnatmoq** — установить  
**o‘rnashmoq** — yerleşmek  
**o‘smoq** — ösmek  
**o‘stirmoq** — ösdürmek  
**o‘xshamoq** — meňzemek  
**o‘qtalmoq** — oklandyrmak  
**o‘g‘irlamoq** — ogurlamak  
**qavarmoq** — gawarmak  
**qazimoq** — gazmak  
**qalamoq** — odunlary goýmak  
**qatnamoq** — gatnamak  
**qizdirmoq** — gyzdyrmak  
**qizimoq** — gyzmak, gaýnamak  
**qiynamoq** — kynamak  
**qimirlamoq** — gymyldamak  
**qismoq** — gysmak  
**qistamoq** — gyssamak  
**qonamoq** — gan akmak  
**qotmoq** — gatmak  
**qutulmoq** — halas bolamk,  
     gutulmak  
**qutqarmoq** — halas etmek  
**qo‘riqlamoq** — goramak  
**o‘pmoq** — öpmek  
**hayqirmoq** — gyrykmak  
**g‘amlamoq** — ätiýaj edip  
     goýmak  
**g‘ijimlamoq** — gysymlamak



## *Sifat va ravishlar*

<b>abadiy</b> — ebedi, hemişelik	<b>gavjum</b> — köp adamly
<b>abjir</b> — çakkan	<b>gohida</b> — kāmahal
<b>aziz</b> — eziz	<b>duduq</b> — sakaw
<b>aksincha</b> — gaýtam	<b>yovvoyi</b> — ýabany
<b>aniq</b> — anyk	<b>yovg'on</b> — ýuwan
<b>anqov</b> — aňkow	<b>yonma-yon</b> — ýanma-ýan
<b>arzanda</b> — söygüli, mähirli	<b>yorqin</b> — açyk
<b>arzon</b> — arzan	<b>yot</b> — ýat
<b>asl</b> — asyl	<b>yoqimli</b> — ýakymly
<b>asov</b> — ýaman gylykly	<b>zaxa</b> — urulandan emele gelen ýara
<b>astoydil</b> — çýn	<b>zimdan</b> — bildirmezden
<b>atoqli</b> — görnükli	<b>jiddiy</b> — salyhatly, möhüm
<b>ahil</b> — dostluly	<b>ildam</b> — çalt
<b>bajonidil</b> — göwün bilen	<b>iliq</b> — ýyly
<b>baralla</b> — anyk, sesli	<b>ilk</b> — ilkinji
<b>barvaqt</b> — ir, irden	<b>issiq</b> — yssy
<b>baroq</b> — hüjjük	<b>iflos</b> — hapa
<b>bahodir</b> — merd	<b>ixcham</b> — kiçjik
<b>begona</b> — ýat	<b>ishchan</b> — işjeň
<b>bejirim</b> — nepis	<b>yirik</b> — iri
<b>bezovta</b> — ynjalysyz	<b>yirtqich</b> — ýyrtyjy
<b>beixtiyor</b> — isleseň-islemeseň	<b>yog'on</b> — semiz
<b>bekor</b> — işsiz	<b>kalta</b> — kelte
<b>beso'haqay</b> — gelişiksiz	<b>keskin</b> — ýiti
<b>betob</b> — kesel	<b>ko'ndalang (iga)</b> — keseligine
<b>bexosdan</b> — birden, bilmezden	<b>loyqa</b> — laýly
<b>behad</b> — çäksiz	<b>lohas</b> — ysgynsyz
<b>behuda</b> — peýdasyz	<b>lo'nda</b> — doly
<b>biyron</b> — ýiti	<b>mavhum</b> — abstrakt
<b>bir boshdan</b> — bir başdan	<b>madaniy</b> — medeniýetli
<b>birdan</b> — birden	<b>mayda</b> — maýda
<b>birin-ketin</b> — biri-biriniň zyndan	<b>mamnun</b> — kaýyl,razy
<b>birma-bir</b> — bir birden	<b>mangu</b> — hemişelik
<b>darrov</b> — dessine	<b>maxsus</b> — mahsus
<b>botir</b> — batyr	<b>ma'qul</b> — makul, dogry gelyän
<b>bu yoqda</b> — bu ýerde	<b>mag'rur</b> — namysly
<b>buzuq</b> — bozulan	<b>mahalliy</b> — şu ýerli
<b>burro</b> — anyk	<b>mehribon</b> — mähirli
<b>bo'sh</b> — boş	<b>milliy</b> — milli

**moddiy** — material  
**mujmal** — nāanyk  
**muntazam** — hemişelik  
**murakkab** — çylşyrymly  
**musaffo** — dury, arassa  
**mustaqil** — özbaşdak  
**mufassal** — jikme-jik  
**mo'rt** — port  
**nafis** — nepis  
**novcha** — uzyn boýly, nowça  
**nodir** — kem duş gelyän  
**nozik** — näzik  
**norozı** — nārazy  
**obod** — abat  
**oddiy** — sada  
**ozoda** — arassa  
**ozg'in** — arryk  
**ola** — ala-mula  
**ola-bula** — ala-mula  
**olazarak** — ynjalyksyz  
**oldinma-keyin** — biri biriniň  
zyyndan  
**olijanob** — alyjenap  
**omon** — aman  
**onda-sonda (ora-sira)** — wagtal-  
wagtal  
**osoyishta** — ýuwaş  
**oson** — yeñil  
**och** — aç  
**og'ir** — agyr  
**porloq** — ajaýyp  
**past** — pes  
**pishiq** — berk  
**puch** — puç  
**ravshan** — rōwşen, anyk  
**rosa (raso)** — örän zor  
**rost** — dogry  
**sara** — saýlanan  
**saxiy** — eli açyk  
**semiz** — semiz  
**sayoz** — saý  
**salqin** — salkyn  
**sergak** — ýiti gözli  
**sira** — heç haçan  
**siyrak** — seýrek  
**silliq** — ýylmanak  
**sog'** — saglam  
**sodda** — sada  
**sodiq** — wepaly  
**sun'iy** — emeli  
**suyuq** — suýuk  
**takroran** — gaýtalanma  
**talay** — biraz  
**tamoman** — umuman  
**tanish** — tanyş  
**tansiq** — em duş gelyän zat  
**tinimsiz** — dyngysyz  
**tekis** — tekiz  
**teng** — deň  
**teskari** — tersi  
**tetik** — şähti açyk  
**tinch** — ýuwaş, asuda  
**tig'iz** — dykyz  
**tirik** — diri  
**to'la-to'kis** — hemmesi bilelikde  
**to'satdan** — birden  
**umrbod** — ömürlik  
**unda-bunda** — onda-munda  
**ustma-ust** — üstme-üst  
**faol** — akriw, işjeň  
**xasis** — açgöz  
**xafa** — gaýgyly  
**xipcha** — nepis, inçe  
**xos** — has, mahsus  
**xursand** — şatlykly  
**xususan** — hususan  
**xushchaqchaq** — begençli  
**chambarchas** — ýakyn, üzülmes

**chaqqon** — ökde  
**chekkada** — bir çetde  
**cheksiz** — çäksiz  
**chetdan** — bir çetden  
**chigal** — çylşyrymly  
**chuqur** — çuños  
**chin, chinakam** — çyn  
**cho'ziq** — çozulan  
**sharros** — jala  
**shahdam** — berk, anyk  
**shod** — şatlykly  
**sho'r** — şor  
**sho'xok** — duzly ýerler  
**sho'x** — sagdyn  
**erkin** — erkin  
**erka** — erke  
**erta-indin** — şu günlerde  
**eson-omon** — sag-aman  
**yuzma-yuz** — ýüzme-ýüz  
**yuksak** — belent  
**yumaloq** — tegelek  
**yupqa** — ýuka  
**yuqori** — ýokary; uly  
**yagona** — ýeke  
**yakka** — bir, individual  
**yakkama-yakka** — bir-birine  
**yangicha (siga)** — täzeçe  
**yapaloq** — tekiz  
**yassi** — ýasy  
**yaxlit** — bütin  
**yaxna** — sowuk  
**yashirin** — gizlin  
**yaqqol** — anyk, röwşen  
**o'gay** — ogeý  
**o'zaro** — özara  
**o'zboshimcha** — özbaşdaklyk  
**o'tkir** — ýiti

**o'tmas** — ötmez  
**o'shancha** — şunça  
**o'g'rincha** — ogryn  
**qarddon** — ýakyn  
**qalbakı** — galp  
**qalin** — galyň  
**qaltis** — howply  
**qarama-qarshi** — gapma-  
garşy  
**qardosh** — doganlyk  
**qat'iy** — üzül-kesil  
**qizg'in** — gyzgyn  
**qiyin** — kyn  
**qiyshiq** — gýşyk  
**qimmat** — gymmat  
**qisman** — bölkleýin  
**qoyil** — haýran galyjy!  
**qoloq** — yzda galan  
**qonıqarli** — kanagatlananrly  
**qochoq** — gaçak  
**quvnoq** — guwançly  
**qulay** — amatly  
**quruq** — gury  
**quyuq** — goýy  
**qo'rs** — gödek  
**qo'qqısdan** — tosatdan  
**g'alız** — galyň (mata hakynda)  
**g'amgin** — gamgyn  
**g'ijim** — narpyzly  
**g'uj** — bir ýere toplanan  
**g'o'r** — ham, gök  
**hanuz (gacha)** — häzire çenli  
**harbiy** — harby  
**haqqoniy** — hakykatçy, adalatly  
**hur** — erkin  
**hushyor** — hüşgär

### *Boshqa turkumlarga oid soʻzlar*

<b>avval</b> — öň, ilki bilen	<b>oldindan</b> — öňünden
<b>agar (da)</b> — eger-de	<b>ortigʻi bilan</b> — artygy bilen
<b>aksiga</b> — tersine alyp	<b>tashqari</b> — ondan başga
<b>balki</b> — belki	<b>tufayli</b> — görä
<b>bir-birini</b> — bir-birini	<b>xullas</b> — gysga aýdylanda
<b>bir xil</b> — bir hili	<b>xususan</b> — hususan
<b>birinchidan</b> — birinjiden	<b>shubhasiz</b> — şübhesiz
<b>biror</b> — haýsydyr	<b>shunday qilib</b> — şeýle edip
<b>goh</b> — kāmahal	<b>shunungdek</b> — şeýle hem
<b>goʻyo (ki)</b> — edil	<b>oh</b> — eh, ah
<b>deyarli</b> — diýen ýaly, takmynan	<b>yuzasidan</b> — üstünden
<b>doir</b> — degisli	<b>yaʻni</b> — ýagny
<b>zarur</b> — serur	<b>oʻsha</b> — şol
<b>iborat</b> — ybarat, düzülen	<b>qaraganda</b> — garanda, deñeşdirende
<b>ilgari</b> — ozal, öñler	<b>qatori (da)</b> — bir hatorda, şeýle hem
<b>kamida</b> — keminde	<b>quyidagi</b> — aşakdakylar
<b>muvofig</b> — dogry gelyän	<b>hammasi boʻlib</b> — hemmesi bolup, jemi
<b>nari (da)</b> — añryda, öñde	
<b>oid</b> — degişli	
<b>oldin</b> — ilki bilen	

## MUNDARIJA

Mualliflardan .....	3
1- §. ....	4
O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi haqida .....	4
2- §. ....	5
O'tilganlarni takrorlash .....	5
3- §. ....	7
O'tilganlarni takrorlash (davomi) .....	7
4- §. ....	11
Vatan madhiyasi .....	11
5- §. ....	12
Men nechun sevaman O'zbekistonni .....	13
6- §. ....	14
Ilm ista .....	15
7- §. ....	16
Toshbaqa bilan Chayon .....	16
8- §. ....	18
Roziman, rizoman, o'la-o'lguncha .....	19
9- §. ....	20
10- §. ....	21
Sifatdoshning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishi (takrorlash) .....	22
Oloy malikasi (Tarixiy hikoya) .....	23
11- §. ....	25
12- §. ....	27
Sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalar .....	27
13- §. ....	29
Tong .....	30
14- §. ....	31
Gilampaypoq («Dunyoning ishlari» qissasidan parcha) .....	32
15- §. ....	35
Burgut .....	36
16- §. ....	37
Suv bilan suhbat .....	37
17- §. ....	41
Do'st tanlash haqida («Qobusnoma»dan) .....	42
Yusuf Xos Hojib hikmatlaridan .....	42
18- §. ....	45
Ufq (Romandan parcha) .....	47
19- §. ....	52
O'rik gullaganda .....	53
20- §. ....	54
Yulduzli tunlar .....	55
21- §. ....	59
Na'matak .....	60
22- §. ....	61
Xalq .....	62
Ko'ngil .....	63

23- § .....	64
Jasur qiz (Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan parcha) .....	64
O'g'ri .....	70
24- § .....	74
Nido (Dostondan parcha) Bag'ishlov .....	75
Qo'shimcha o'qish uchun materiallar .....	81
Yulduzim .....	82
Ruboiylar .....	83
Maqollar .....	83
Tilak .....	84
Bayram urf-odatlari .....	84
Meni kim qutqardi? .....	85
Noqis tadbirli do'st ra'yi bilan halokat girdobiga tushgan shoh haqida hikoyat .....	89
Ota va ona haqini bilmak zikrida («Qobusnoma»dan parcha).....	92
Najmiddin Kubro (Ulug' allomalar ibratini) .....	94
O'zbekcha-turkmancha lug'at .....	97

O' – 16

**O'zbek tili:** (Ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablarning 8- sinfi uchun darslik) /R. Yo'ldoshev va boshqalar. — T.: «Ijod dunyosi», 2004. — 112 b.

I. R. Yo'ldoshev va boshq.

**BBK 81. 20'z — 96**

**RUSTAM YO'LDOSHEV, MIRZAHAKIM TO'XTAMIRZAYEV,  
MUHTARAM RIXSIYEVA, ROZA NIYOZMETOVA**

## **O'ZBEK TILI**

*Ta'lim turkman tilida  
olib boriladigan maktablarning*

*8- sinfi uchun darslik*

*Birinchi nashri*

*Toshkent, «Ijod dunyosi», 2004*

Muharrirlar *G. Ahmedova, B. Rejepov*

Badiiy muharrir *Sh. Odilov*

Muqova musavviri *R. Zufarov*

Texnik muharrir *Ye. Tolochko*

Sahifalovchi *A. Tillaxo'jayev*

Musahhah *M. Usmonova*

Bosishga 14.06.2004 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>.

Kegli 11, 9 shponli. Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli b.t. 7,0. Nashr. t. 5,11. 19–2004-shartnoma. 770 nusxada bosildi.

Buyurtma № 31.

«Ijod dunyosi» nashriyot uyi. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«Yangiyul Poligraph Service» OAJda chop etildi.  
Yangiyul shahar, Samarqand ko'chasi, 44.

MEKTEB KITABHANASI ÜÇIN

*Berlen okuw kitabynyň ýagdaýyny  
görkezýän tablisa*

№	Myallymnyň ady, famyliýsy	Okuw ýyly	Okuw kitabyny alan wagtyndaky ýagdaýy	Synp ýolbaşçysynyň goly	Okuw kitabyny tabşyrandaky ýagdaýy	Synp ýolbaşçysynyň goly
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

*Okuw ýylynyň ahyrynda gaýtaryp alnanda ýokarky tablisa synp ýolbaşçysy tarapyndan aşakdaky bahalamak tertibine esaslanyp doldurylýar:*

<b>Täze</b>	Okuw kitabynyň ilkinji gezek peýdalanmaga berlendäki ýagdaýy.
<b>Ýagсы</b>	Jilti gowy, okuw kitabynyň esasy böleginden bölünmedik. Ähli sahypalary bar, ýyrtylmadyk, sahypalarynda ýazgylar we çyzgylar ýok.
<b>Kanagatlanarly</b>	Jilti ýenjilen, kä ýerleri çyzylan, gyralary gädilen, okuw kitabynyň esasy böleginden bölek ýerleri bar, peýdalanyjy tarapyndan kanagatlanarly derejede abatlanypdyr. Goparlan sahypalary ýelimlenen, käbir sahypalary çyzylan.
<b>Kanagatlanarsyz</b>	Jilti çyzylan, ýyrtyk, esasy böleginden aýrylan, ýyrtylan ýeri düşüp galan, kanagatlanarsyz derejede abatlanan. Sahypalary ýyrtylan, listleri yetişmeýär, çyzyp taşlanan. Okuw kitabyny gaýtadan dikeldip bolmaýar.